

**O’zbekiston Respublikasi  
Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**

**S.T. Yunusova**

**BOSHQARISH SISTEMALARINING  
ELEMENTLARI VA QURILMALARI**

«5311000- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni aftomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo, va oziq-ovqat sanoati) » ta’lim yo’nalishi talabalariga darslik sifatida tavsiya etilgan

**Toshkent -2020**

UDK 62-50

Ushbu darslik «5311000- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo, va oziq-ovqat sanoati) » ta’lim yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan.

Darslik ishlab chiqarishni zamonaviy asbob-uskunalar, mashina va agregatlar bilan ta’minalash, tadqiq qilish soxasidagi bilimlarni egallashga va o’rgatishga mo’ljallangan. Boshqarish sistemalari element va qurilmalari— uzlusiz rivojlanuvchi tizim bo’lib, u ishlab chiqarishning o’ziga xos xususiyatlari va fan-tenxikaning ko’pchilik sohalari bilan uzbek bog’langandir. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishning bevosita sharti asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarini mechanizatsiyalash hisoblanadi. Avtomatlashtirish tizimlarida qo’llanuvchi texnik vositalarning ish prinsiplari, avtomatik boshqarish, rostlash tizimlarining umumiyligi tuzilishi va ularni tadqiq qilish usullarini o’rganish hamda sanoat va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida namunaviy texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xamda ularni tadqiq qilish masalalari bayon etilgan.

Darslik ushbu fanning namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Тузувчи : Yunusova S.T.

Taqrizchilar: Xolmatov D.,A.dost. TTESI

YU.G.Shipulin - t.f.d.prof., TDTU.

УДК 62-50

Этот учебник предназначен для студентов по специальности «5311000 - Автоматизация и управление технологическими процессами и производством (химическая, нефтехимическая и пищевая промышленность)».

Учебник предназначен для приобретения и оснащения научных исследований, современного машин и оборудования . Элементы и устройства систем управления - это непрерывно развивающаяся система, которая неразрывно связана с особенностями производства и многими областями науки и техники. Основным условием достижения высокой эффективности в автоматизации производства является механизация основных и вспомогательных производственных процессов.

Изучение принципов работы систем автоматизации, общей структуры и методов управления системами автоматического регулирования, наладки, а также вопросов автоматизации и исследования типовых технологических процессов в промышленном и сельскохозяйственном производстве.

Учебник основан на стандартной программе по этому предмету.

Yunusova S.T.

Рецензенты: Д.А.Холматов - т.ф.н.доц., ТТЕСИ  
Ю.Г.Шипулин – т.ф.д.,проф., ТГТУ.

УДК 62-50

This textbook is intended for students in the specialty "5311000 - Automation and control of technological processes and production (chemical, petrochemical and food industries)."

The textbook is intended for the acquisition and equipping of scientific research, modern machinery and equipment. Elements and devices of control systems is a continuously developing system that is inextricably linked with the characteristics of production and many fields of science and technology. The main condition for achieving high efficiency in production automation is the mechanization of the main and auxiliary production processes

Studying the principles of operation of automation systems, the general structure and management methods of automatic control systems, adjustment, as well as automation and research of typical technological processes in industrial and agricultural production. The textbook is based on a standard program in this subject.

Yunusova S.T.

Retsenzenty: Xolmatov D.,A.dost - Candidate of Technical Sciences, Associate Professor., TITLI  
YU.G.Shipulin - Doctor of technical sciences.f.d.prof., TSTU.

## **A N N O T A T S I Y A**

Ushbu darslik «5311000- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni aftomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neftkimyo, va oziq-ovqat sanoati) » ta’lim yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan. Darslik ishlab chiqarishni zamonaviy asbob-uskunalar, mashina va agregatlar bilan ta’minlash, tadqiq qilish soxasidagi bilimlarni egallashga va o’rgatishga mo’ljallangan. Boshqarish sistemalari element va qurilmalari— uzlusiz rivojlanuvchi tizim bo’lib, u ishlab chiqarishning o’ziga xos xususiyatlari va fan-texnikaning ko’pchilik sohalari bilan uzviy bog’langandir. Avtomatlashtirish tizimlarida qo’llanuvchi texnik vositalarning ish prinsiplari, avtomatik boshqarish, rostlash tizimlarining umumiyl tuzilishi va ularni tadqiq qilish usullarini o’rganish hamda sanoat va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida namunaviy texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xamda ularni tadqiq qilish masalalari bayon etilgan.

Darslik ushbu fanning namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

## **A H N O T A C I Y**

Данное учебник предназначен для студентов по специальности «5311000 - Автоматизация и управление технологическими процессами и производством (химическая, нефтехимическая и пищевая промышленность)». Учебник предназначен для приобретения и оснащения научных исследований, современного машин и оборудования . Элементы и устройства систем управления - это непрерывно развивающаяся система, которая неразрывно связана с особенностями производства и многими областями науки и техники. Изучение принципов работы систем автоматизации, общей структуры и методов управления системами автоматического регулирования, наладки, а также вопросов автоматизации и исследования типовых технологических процессов в промышленном и сельскохозяйственном производстве.

Учебник основан на стандартной программе по этому предмету.

## **A N N O T A T I O N**

This textbook is intended for students in the specialty "5311000 - Automation and control of technological processes and production (chemical, petrochemical and food industries)." The textbook is intended for the acquisition and equipping of scientific research, modern machinery and equipment. Elements and devices of control systems is a continuously developing system that is inextricably linked with the characteristics of production and many areas of science and technology. Studying the principles of operation of automation systems, the general structure and management methods of automatic control systems, adjustment, as well as automation and research of typical technological processes in industrial and agricultural production.

The textbook is based on a standard program in this subject.

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida olib borilayotgan tadbirlarning asosiy maqsadi – ta'lim tizimi islohatlarini hayotga tadbiq etish, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta'lim tizimi orqali yoshlarni intellektual, ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtida texnika va texnologiyaning rivojlanishi amaliy sohadagi fanlarning yanada rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bu esa turli ishlab chiqarishlarda qo'llaniladigan texnologik qurilmalarni avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalg etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shunindek, O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlanishi uchun Harakat lar strategiyasi asosida ilmiy-tadqiqot va innovatsion yutuqlarini amaliyatga joriy etish mexanizmlaridan iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligini oshirishda foydalanish muxim ahamiyatga ega hisoblanadi.[1].

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoev "2017-2021 yillarda O'zbekistonda rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi"ning ijtimoiy soxani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida belgilab qo'yanidek, ta'lim va sohani rivojlantirish bo'yicha "Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli

ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o’quv-metodik qo’llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish” bugungi kunda ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir professor-o’qituvchining vazifasidir [4].

Hozirgi vaqtida murakkab boshqarish tizimlarini yaratish va axborotlarga ishlov berishdagi tadqiqot ishlarida yangi g’oyalarni va tizimlarni analiz va sintez qilishning zamonaviy usullarini keng qo’llash natijasida, so’ngi 5-10 yillikdagi ilmiy-tadqiqot ishlari taraqqiy etib bormoqda. Shunga bog’liq holda universitetlarda hamda ishlab-chiqarish doirasida tizimlarni loyihalashning yangi usullarini izohlovchi va tizimlashtiruvchi zamonaviy boshqarish tizimlari darsliklariga, o’quv va uslubiy qo’llanmalarga sezilarli darajada zaruriyat tug’ilmoqda. Talabalarga avtomatik sistemalarda qo’llaniladigan element va qurilmalarning tuzilishini, ishlash prinsiplarini asosiy va tavsiflarini, sistema sifatiga talablar asosida ularni tanlashni va ularni ishlatishni o’rgatish, yo’nalish profiliga mos ta’lim standartida talab qilingan bilimlar, ko’nikmalar va tajribalar darajasini ta’minlashdir.

Respublikamizda xalq xo’jaligi, sanoat, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini avtomatlashtirish, qo’l mexnatini engillashtirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash talab qilinadi. Avtomatik boshqarish tizimlarini tatbiq etish bilan turli murakkab texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga erishish mumkin.

Ko’rsatilgan masalalarni hal qilishda barcha sohalarda ishlab chiqarishni zamonaviy asbob-uskunalar, mashina va agregatlar bilan ta’minlash muxim vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ko’plab tarmoqlarda qo’llanilayotgan ilg’or texnologiyalar ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimlaridan foydalanishni talab qiladi. Shuning uchun soha bo'yicha tayyorlanayotgan

mutaxassislar texnologik jarayonlarni atvomatlashtirilgan tizimlari, avtomatik nazorat, avtomatik rostlash, avtomatik boshqaruv tizimlari xaqida maxsus bilimga ega bo'lishlari zarur.

Boshqarish sistemalari element va qurilmalari— uzluksiz rivojlanuvchi tizim bo'lib, u ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va fan-texnikaning ko'pchilik sohalari bilan uzviy bog'langandir. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishning bevosita sharti asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash hisoblanadi. Avtomatlashtirishni rivojlantirish jarayoniga quyidagi ko'p sonli qonuniy va tasodifiy omillar ta'sir ko'rsatadi: texnologiya va qurilmaning holati hamda avtomatlashtirishga tayyorgarligi, xomashyo, yarim mahsulotlar va energetik resurslarning sifati hamda barqarorligi, xodimlarning malakasi, ishchi va mutaxassislar faoliyatini tashkil etish va hokazo.

Boshqarish sistemalari element va qurilmalari faqat ishlab chiqarish texnikasini takomillashtirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bilangina emas, balki ishlab chikarish rentabelligini oshirish, birlik mahsulotga ketadigan moddiy va mehnat xarajatlarini pasaytirib, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini orttirish bilan bog'liq.

Xalq xo'jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ‘Boshqarish sistemalari element va qurilmalari’ fani katta ahamiyatga ega. Bu fan talabalarga o'z ixtisosliklarini nazariy jihatdan chuqr egallashga, ularning bilimlarini mustahkamlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va texnologik jarayonlardan unumli foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Avtomatlashtirish borasida eng mas'uliyatli ishlar esa, shubhasiz, kadrlar zimmasiga tushadi. Bugungi kun kadrlari yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishni keng joriy etishga, ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash va uni jadallashtirishga qodir bo'lishlari kerak. Xususan, yosh kadrlar oldida fan-texnika taraqqiyotining yo'l boshlovchisi bo'lishdek mas'uliyatli vazifa turadi. SHuning uchun texnologik jarayonlarni nazorat qilish

va avtomatlashtirish asoslarini shu soha mutaxassislarigina emas, balki texnolog-konstruktorlar, iqtisodchilar va boshqalar ham bilishlari muhim.

Darslik va o'quv adabiyotlarini mazmuni va mohiyati jihatidan talabalarda mustaqil va erkin fikrlash, oldindan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lif olish, dolzarb yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi lozim.

## **I-BOB. AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMALARI-ELEMENTLAR MAJMUASI.**

### **1.1. AVTOMATIK QURILMALAR. AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMALARINING FUNKSIONAL SXEMALARI VA ASOSIY ELEMENTLARI.**

Hozirgi vaqtida xalq xo'jaligining borchasi sohalarida avtomatlashtirish jadal suratlarda olib borilmoqda, avtomatlashtirilgan agregat mashinalari, potok liniyalari, sex va zavodlar barpo bo'lmoqda.

Inson eng avval og'ir jismoniy mehnat turlari (energiya va haraktlantiruvchi kuch manbai vazifasini bajarish)dan ozod bo'lishga erishgan. Bu o'rinda u tabiiy energiya manbalaridan (suv, shamol va b) foydalangan. Keyinchalik bug' va elektr mashinalarini yaratilishi va ularning ishlab chiqarishda qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lган fan va texnika taraqqiyotining birinchi bosqichi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalash fazasi boshlandi.

Ishlab chiqarish sistemalarining asosiy elementlaridan biri bu texnologik jarayondir. Texnologik jarayon bu-mehnat qurollari holati o'zgaruvchi yoki ta'minlovchi harakatlardir. Texnologik jarayonlar texnologik operatsiyalardan iborat va u bitta ish joyida bajariladi. Texnologik rejim – texnologik jarayonning o'zgaruvchi qiymatlaridir. Texnologik jarayon matematik tarzda quyidagicha shakllanadi.

$$TP = T(R_o, R_s, R_p, R_r, I_k, I_{ch})$$

$R_o$ -texnologik qurilma agregatlarning parametrlari majmuasi;

$P_c$ -xom-ashyo parametrlarning majmuasi;

$P_p$ -jarayon parametrlarning to`plami;

$P_p$ -mahsulot parametri to`plami;

$I_k, I_{ch}$ -kirish, chiqish oqimlari parametrlarining intensivligi. Texnologik jarayonning matematik javobini qurushi. U ayrim element operatsiyalari bilan qaraladi.

Avtomatika - fan va texnikaning alohida sohasi bo'lib, bu soha avtomatik boshqarish nazariyasi, avtomatik tizimlar yaratish printsiplari va bu tizimlarda qo'llaniladigan texnik vositalar bilan shug'ullanadi. Avtomatika so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib, o'zi harakatlanuvchan moslamani anglatadi. Avtomatika fan sifatida 18-asrning ikkinchi yarmida, ya'ni ip-yigiruv, tikuv stanoklari va bug' mashinalari kabi birinchi murakkab mashina - qurilmalarining paydo bo'lish davrida ishlatila boshlandi.

Avtomatik qurilma Polzunov bug' mashinasini (1765 y.) yaratilgan. Bu mashina oddiy shamol va gidravlik dvigatellarning o'rniiga ishlatilgan va odam ishtirokisiz suvning sathini rostlagan. Avtomatik rostlashning asosiy printsiplarini ingliz olimi F. Maksvell tomonidan 1868 yilda ishlab chiqildi.

Texnikaning rivojlanishi va odamlarning og'ir qo'l mexnatidan bo'shashiga qaramasdan ish jarayonlari va mehnat quollarini boshqarish kengayib va murakkablashib bordi. Ayrim holatlarda esa maxsus qo'shimcha elementlarsiz mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni boshqarish imkoniyatlari murakkablashdi. Bu esa o'z navbatida avtomatikaning muhimligini va uni rivojlantirish kerakligini isbotladi.

Avtomatlashtirishning turlari :

*Avtomatika* – fan va texnika soxasi bo'lib, ishlab chikarish yoki boshqa jarayonlarni odam ishtirokisiz boshqarish nazariyasi va tizimlarini tuzish usullarini o'z ichiga oladi.

*Avtomatlashtirish* - keng ma'noda ishlab chiqarish jarayonlarini odam ishtirokisiz boshqarishni ta'minlashga qaratilgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tadbirlar majmuidir.

Avtomatlashtirish o'z oldiga birgina kishi mexnatini engillashtirishnigina vazifa qilib quymay, balki ishlab chiqarishni shunday yukori tezlikda, anqlikda puxtalikda, tejamkorlikda o'tishini ta'minlaydiki, uni inson bajara olmaydi.

*Avtomatika*- iborasi qadimiyligi grek so'zi "avtomatos"dan kelib chikib o'z-o'zidan ishlaydigan qurilma ma'nosini bildiradi. Qadim zamonlarda ham o'z-

o'zidan ishlaydigan qurilmalar mavjud bo'lgan, masalan, olov yoqilish i bilan ibodatxonalar eshigini ochib yuboradigan pnevmatik avtomatlar, mo'jizaviy suvlarni quyadigan avtomatlar va sh. o'.

Boshqarish sistemalarining elementlari va qurilmalari fanini o'qitilishidan maqsad – talabalarga boshqarish sistemalarining asosini tashkil etuvchi element va qurilmalarning ishlash printsipiga qarab sinflanishi, turlanishi, konstruktiv tuzilishlari, statik va dinamik xarakteristikalarini, ularga qo'yiladigan talablar asosida tanlash va sxemotexnik tuzilishini o'rgatish, shuningdek ularda yo'nalish profiliغا mos ta'lim standarti talablariga javob beradigan bilimlar, ko'nikmalar va tushunchalarni hosil qilishdir.

**Fanning vazifasi** – boshqarish sistemalarida avtomatika elementlari va qurilmalarini tutgan o'rni, ularni ishlatish xususiyatlarini mukammallashtirish va rivojlantirish usullarini, zamonaviy elementlar asosida qurilmalar yaratishni talabalarga o'rgatishdan iborat.

**Fanning maqsadi** – talabalarga element va qurilmalarning tuzilishini, ishlash printsiplarini, asosiy xarakteristikalarini, sistema sifatiga qo'yiladigan talablar asosida ularni tanlashni, element va qurilmalarni aniq va xatosiz ishlatishni o'rgatishdan iborat.

Avtomatik qurilmalar elementlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- ish rejimi boshqaruving sezgir elementlari;
- elektrik o'zgartirgichlar(datchiklar va elektromagnitli relelar);
- avtomatik qurilma kuchaytirgichlari(magnitli, elektromagnitli, elektrovakuumli, yarimo'tkazgichli, porshenli kuchaytirgichlar);
- mexanizmlarning burchak holatlarini o'lchovchi elementlar(halqali potensiometrlar, aylanuvchi transformatorlar);
- teskari aloqaning richagli, elektromexanik, pnevmatik, elektronli va boshqa elementlari;

- avtomatik qurilmalarning ijro etuvchi mexanizmlari(elektrli, gidravlik, pnevmatik va boshqa turli).

Har qanday boshqarish jarayoni to’rtda tashkil etuvchilarga bo’linishi mumkin:

- 1) ob’yekt holati parametrlarining qiymatini berish yoki boshqarish haqidagi ma’lumotni olish;
- 2) ob’yekt holati haqidagi ma’lumotni olish;
- 3) olingan ma’lumotni qayta ishlash va qaror qabul qilish, ya’ni boshqarish signalini shakllantirish;
- 4) shakllangan boshqarish signalini amalga oshirish – ishlab chiqiqgan boshqarish signaliga mos ravishda boshqarish ta’sirini amalga tadbiq etish.

Maxsus avtomatik qurilmalar yordamida bajariluvchi vazifalariga ko’ra avtomatlashtirishni quyidagi asosiy ko’rinishlarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik ximoya, avtomatik va masofadan boshqarish, telemexanik boshqaruv.

*Avtomatik nazorat* texnologik jarayon xaqida operativ ma’lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uning tarkibiga avtomatik signallash, o’lchash, saralash va axborot yig’ish kiradi.

*Topshiriq beruvchi element* (zadatchik) deb, boshqarish maqsadiga mos siganllarni ishlab chiqaruvchi elementga aytildi. Topshiriq beruvchi qurilma sifatida oddiy reostatli zadatchiklar, kontaktli buyruq-apparatlar, kontaktsiz dasturiy qurilmalar va boshqalar ishlatilishi mumkin.



*Avtomatik signallash* nazorat qilinayotgan turli texnologik jarayonlarning chegaraviy holatlarini xizmatchi xodimlarga ma'lum qilishda qo'llaniladi. Signallash vositalari yorug'lik, tovushli yoki bir vaqtda ikkala ko'rinishga ega bo'lishi mumkin (lampalar, sirenalar maxsus dinamik qurilmalar va boshqalar).

*Avtomatik o'lchash* alohida texnologik jarayon yoki mashina va agregatlarning ishini ko'rsatuvchi fizik kattaliklar xaqida o'lchov vostalari yordamida ma'lumotlar olishga xizmat qiladi.

*O'lchovchi element* ob'yekt holatini, ob'yeqtning chiqish parametrlarini, shuningdek tashqi muhit parametrlarini va ushbu ma'lumotni tizimning boshqaruvchi elementiga uzatishni nazorat qilishga uchun xizmat qiladi.



*Boshqaruvchi(rostlovchi) element* oddiy holatda boshqariluvchi(rostanuvchi) qiymatni berilgan qiymatdan og'ishiga proporsional boshqarish(rostlash) signalini ishlab chiqaradi. Odatda boshqaruvchi element(regulyator) juda murakkab tuzilishga ega va huddi boshqa turli elementlar(kuchaytirgichlar, filtlar, qo'shuvchi(jamlovchi) va h.k)dan tashkil topgan tizim deb ko'rish mumkin.



ELIM.DPUA

*Avtomatik saralash* maxsulotning o'lchami, og'irligi, kattaligi, cho'ziluvchanligi va boshqa fizik ko'rsatkichlariga qarab avtomatik ravishda ajratish va nazorat qilish vazifasini bajaradi (don maxsulotlari, tuxumlarni, mevalarni, sabzavotlarni saralash va x.k.).

*Ijro etuvchi elementlar* boshqarish ob'yekti holatini bevosita o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Ijro etuvchi elementlarga *ijro etuvchi mexanizmlar* va *rostlash organlari* taaluqlidir.



**TJni qisman va to'liq avtomatlashdirish.** Avtomatik axborot yig'ish texnologik jarayon xaqida, ishlab chiqilayotgan maxsulot xaqida hamda uning miqdori, sifati xaqida xizmatchi xodimlarga axborot berish uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlaridagi avariya holatlarini oldini olish, tekshirilayotgan jarayonni ishdan to'xtatish avtomatik himoya vositalari yordamida amalga oshiriladi (masalan, elektr uskunalarining alohida qismlarini qisqa tutashuv holatlarida ishdan to'xtatish). Avtomatik himoya avtomatik boshqaruv va signallash bilan uzviy bog'langan, chunki bunda ximoya vositalari boshqaruv organlariga ta'sir ko'rsatadi hamda bajarilgan vazifa haqida xizmatchi xodimlarni xabardor qiladi.

Rele himoyasi elektr stansiyalari, podstansiyalari, turli elektr uskunalarida qo'llanuvchi relelar asosida bajariladi.

Avtoblokirovka qurilmalari avtomatik ximoya tarkibiga kiruvchi elementlar bo'lib, uskunalarni noto'g'ri ulanish va ishdan to'xtash hollarini hamda avariya holatlarini oldini olishda qo'llaniladi.

Boshqaruv – boshqaruvchi kattalikning belgilangan algoritmiga mos bo'lган qiymatini saqlashga yo'naltirilgan ta'sirlar yigindisi xisoblanadi.

Algoritm bu texnologik jarayonda bajariluvchi operatsiyalarning ketma - ketligi va mazmunini belgilovchi; berilgan qiymatni oxirgi qiymatga o'tishini ko'rsatuvchi ko'rsatma xisoblanadi.

Ish algoritmi ma'lum texnologik jarayon yoki uskunada bajariluvchi vazifalarning ta'minlovchi ko'rsatmalar yig'indisi hisoblanadi.

Belgilangan ish algoritmini amalga oshirish uchun tash-qaridan maxsus ta'sirlar ko'rsatilishi zarur bo'lgan, moddiy va energetik balansga rioya qiluvchi mashina yoki agregat bosh-qariluvchi ob'ekt deb yuritiladi.

Bir biridan ma'lum masofada joylashtirilgan texnologik ob'ektlarni boshqarish masofaviy avtomatik boshqaruv tizimining texnik vositalarini o'z ichiga oladi. Bu holda boshqaruv impulslari dispatcherlik pultlari boshqaruv punktlarida o'rnatilgan avtomatlashtirish uskunalari orqali beriladi yoki qabul qilinadi.

*Avtomatik boshqaruv* – texnologik jarayonlarni odam ishtiokisiz boshqaradigan texnikaviy vositalarni joriy etish demakdir. Bu esa ishlab chiqarish jarayonidagi odam ishtirok etmagan yangi bosqich bo'lib, bunda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish funksiyasini avtomatik qurilmalar bajaradi. Avtomatlashtirishni joriy etish ishlar ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga, ya'ni ishlab chiqarilayotgan maxsulot miqdori va sifatining oshishi hamda tannarxining kamayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish asosan ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va aftomatlashtirishga asoslanadi. Bu tushunchalar orasidagi umumiylilik va farqi nimadan iborat.

*Mexanizatsiya* – bu qo'lda ishslash vositalarini mashina va mexanizimlar bilan almashtirishdir. Bular yordamida inson og'ir yuklarni ko'tarishni va siljитish, metallarni kesishi, eritishi va shtamplash, er ostidan qazilma boyliklarni qazib olish mumkin va xakozo. Lekin bu turli mashina mexanizmlar inson tomonidan boshqariladi.: u ishlab chiqarish, ularni taxlil qilish, qaror qabul qilib, bu jarayonta'sir qilish lozim.

Shuday qilib, mexanizimlashtirilganda, inson ishlab chiqarish jarayonida doimiy ishtroki talab etiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini aftomatlashtirilgada insonning ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtroki va qisman va butunlay texnik vositalarni va boshqarish tizimlarini qo'llash orqali ozod etiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning holati uch davrga bo'linadi.

*Birinchi davr* – ayrim texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bilan jarayonlarni avtomatlashtirilgan agregat yaqinida o'rnatilgan yirik o'lchamli qurilmalarning ko'rsatishiga muvofiq avtomatik ravishda rostlanadi. Bunda qurilmalarni mashina va apparatlarning yoniga joylashtiriladi.

*Ikkinci davr* – ayrim jarayonlarning kompleks avtomatlashtirilishidir. Bunda rostlash alohida shitga joylashtirilgan asboblar yordamida olib boriladi. Avtomatlashtirishning bu davrida shitdagি qurilmalarning xajmini kichiklashtirish zarurati paydo bo'ladi. Bu masalani xal qilishda kichik o'lchamli asboblar ishlatiladi.

*Uchinchi davr* (to'lik avtomatlashtirish davri) – agregat va sexlarni yalpisiga avtomatlashtirish bilan belgilanadi. Bu davning xususiyati shundaki, boshqarish yagona dispetcherlik punktiga markazlashtiriladi. SHu bilan birga mitti ikkilamchi asboblar yaratiladi. Doimiy nazoratni talab qilmaydigan o'lchash va rostlash asboblari (yirik o'lchamli) shidan tashqarida o'rnatiladi.


Avtomatlashtirish insonning aqliy mexnatini engillashtiradi, uni axborot olish, uzatish, uni o'zgartirish va undan foydalanish insonning bevosita ishtirokisiz amalga shoirladi.

Bu fanning maqsadi turli avtomatik boshqarish tizimlarining tashkil etuvichi asosiy elementlar va qurilmalarni bajaradigan vazifalari, ularning turlari va xususiyatlarini o'rganishdir. Avtomatik boshqarish qurilmalarining element va qurilmalari turli energiyalar: mexanik, gidravlik, pnevmatik, elektrik va ch.k.

Amalda elektrik enerjiyasi yordamida ishlardigan avtomatik element va qurilmalari keng tarqalgan. Avtomatikaning elementi deganda, avtomatik boshqaruv qurilmalarini tashkil etuvchi turli texnik vositalar tushuniladi.

Avtomatik boshqarish sistemasi avtomatik boshqarish qurilmasi va boshqarish ob'ektidan iborat.

Avtomatik boshqarish sistemasining funksional sxemasi 1.1-rasimda ko'rsatilingan.



1.1 - rasm. Avtomatik boshqarish sistemasining funksional sxemasi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashirishning holati uch davrga bo'linadi.

Bu sxemada: BO - boshqarish ob'ekti; D - datchik; T - topshiriq beruvchi element; T.E - taqsimlovchi element; K - kuchaytiruvchi element; N - ijro mexanizmi.

Topshiriq beruvchi qurilmadan  $g(t)$  topshiriq beruvchi ta'sir chiqadi. Datchikdan esa,  $y(t)$  boshqarish ob'ektini holati to'g'risidagi axborot beriladi. Taqqoslovchi element, topshiriq beruvchi axborot bilan, ob'ektning haqiqiy holati to'g'risidagi axborotlarni taqqoslaba, ularni farqini aniqlab beradi. Kuchaytirgich kuchsiz signallarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Ijro mexanizmi boshqarish ob'ektiga bevosita boshqaruvchi ta'sir etadi. Boshqaruvchi ta'sir rostlanayotgan kattalik  $y(t)$  topshiriq berilgan qiymati  $g(t)$  ga teng bo'limguncha boshqarish ob'ektiga ta'sir qiladi.

Har qanday boshqarish sistemasi, bir-birlari bilan o'zaro bog'langan, alohida elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Shuning uchun sistemaning xossa

va tenglamalari ko'p jihatdan, shu sistemaning tashkil qilgan elementlar xossalari bilan aniqlanadi.


Element yoki sistemaning statik tavsifi barqaror rejimda chiqish va kirish qiymatlari o'rtaqidagi aloqani ta'riflovchi bo'ladi.

$$X_{ch}(t) = f [X_k(t)],$$

bu erda  $X_{ch}(t)$ ,  $X_k(t)$  - mos ravishda element yoki sistemaning chiqish yoki kirish qiymatlari.

Sistemaning statik teglamasini olish uchun shu sistemaning tashkil etgan har bir elementning alohida statik tenglamasi tuziladi, so'ngra bu tenglamalar, oraliqdagi barcha o'zgaruvchan kattaliklarni mustasno qilgan holda, bиргаликда yechiladi.

Elementlar va  $L=S$  tavsiflari to'g'ri chiziqli va egri chiziqli bo'lishi mumkin. To'g'ri chiziqli elementlarda (sistemalarda) kirish qiymati o'zgarganda chiqish qiymati to'g'ri chiziq bo'yicha o'zgaradi. Ulardagi jarayonlar to'g'ri chiziqli algebraik va differential tenglamalar bilan ifodalanadi.



1.2 - rasm.

To'g'ri chiziqli elementlarga misol qilib termojuftni olish mumkin, uning statik tavsifi 1.2a- rasmida keltirilgan. Termojuft uchun nazorat qilinayotgan harorat kirish qiymati, uning chiqishida hosil bo'lgan termoelektr yurituvchi kuch (TEYuK) chiqish qiymati bo'lib xizmat qiladi.

Har bir statik tavsifdan, chiqish qiymatining kirish qiymatiga nisbati bilan aniqlanadigan uzatish koefisienti  $K$  topiladi.

To'g'ri chiziqli elementlar uchun uzatish koeffisenti K-o'zgarmas qiymatdir.

Egri chiziqli element va sistemalarda kirish qiymati o'zgarganda chiqish qiymati egri chiziq bo'yicha o'zgaradi. Shuning uchun ular yechimi qiyin va murakkab bo'lgan differensial tenglamalar bilan ifodalanadi. 1.2a-rasmida egri chiziqli elementning statik tavsifi keltirilgan. Bunday tavsifga masalan, RC yoki RL qarshiliklardan tashkil topgan, elektr zanjir yoki quvur bilan ulangan rezervuar va boshqalar tashkil etadilar. Rezervuarda kirish qiymati bo'lib quvurdagi ishchi rejimning bosimi, chiqish qiymati bo'lib rezervuardagi bosim hisoblanadi.

1.2b-rasmida keltirilgan tavsif repeli elementlarga ta'luqlidir.  $X_K > X_I$ ,  $X_k > X_I$  bo'lganda chiqish qiymatining sakrashsimon o'zgarishi sodir bo'ladi.  $X_{ch} > 0$  bo'lgandagi  $-X_I < X_k < X_1$  ga teng bo'lgan oraliq, relening nosezuvchaglik oralig'i deb ataladi. Bu oraliqda rele ishlagmaydi.

Signalizatsiya, muxofaza va nazorat qilish, sanoat protsesslarini boshqarish hamda rostlashni bundan keyingi avtomatlashtirilishi chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash, texnologik jarayonlarni optimal tartibda olib borish, texnologik uskunalar ishini intensivlash vazifalaridan kelib chiqadi.

Har bir texnologik jarayon (texnologik jarayon parametrlari deb ataluvchi) o'zgaruvchan fizikaviy va kimyoviy kattaliklar (bosim, sarf, har orat, namlik, konsentratsiya va x.k.) bilan tavsiflanadi. Texnologik uskuna jarayonning to'g'ri oqib o'tishini ta'minlashi uchun muayyan jarayonni tavsiflovchi ko'rsatkichlarini berilgan qiymatda saqlash lozim.

Qiymatini stabillash yoki bir tekisda o'zgarishini ta'minlash zarur bo'lgan kattalikka rostlanuvchi kattalik deb ataladi. Rostlanuvchi kattalikning qiymatini stabillash yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgarishini amalga oshirish uchun mo'ljallangan uskuna avtomat rostlagich deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning ayni paytda o'lchangan qiymati rostlanuvchi kattalikning xozirgi qiymati deyiladi. Rostlanuvchi kattalikning texnologik reglament bo'yicha ayni

vaqtida doimiy saqlanishi shart bo'lgan qiymati rostlanuvchi kattalikning berilgan qiymati deyiladi. Texnologik reglament rostlanuvchi kattalikning xozirgi va berilgan qiymatlarini vaqtning har bir onida teng bo'lismeni talab qiladi. Ammo ichki yoki tashqi sharoitlarning o'zgarishi sababli rostlanuvchi kattalikning xozirgi qiymati berilgan qiymatdan chetga chiqishi mumkin. SHu paytda hosil bo'lgan, qiymatlar farqini xato yoki nomoslik deyiladi.

Xato yoki nomoslik nolga teng bo'lgan texnologik jarayon turg'unlashgan rejim deyiladi. Turg'unlashgan rejimda moddiy va energetik balanslar qat'iy saqlanadi.

Har qanday avtomatik rostlash tizimini ish jarayonida turli faktorlar ta'sirida bo'ladigan alohida qurilmalar – elementlar tarzida ko'rsatish mumkin. Bularga tizimning ham o'ziga ham uning alohida elementlariga keladigan ta'sirlar kiradi.

Ta'sirlar ichki va tashqi bo'ladi. Tizim ichida bir element-dan boshqasiga uzatilib, texnologik jarayonning belgilangan yo'naliishda bajarilishini ta'minlaydigan ichki ta'sirlarning ketma-ket zanjirini hosil qiluvchi ta'sirlar *ichki ta'sirlar* deb ataladi.

*Tashqi ta'sirlarni* o'z navbatida ikki turga bo'lismen mumkin. Tizimning kirishiga ongli uzatiladigan va texnologik jarayonning normal borishi uchun zarur bo'lgan tashqi ta'sirlar birinchi turga kiradi. Bular topshirish yoki kirish ta'sirlari deb ataladi. Odatda ular  $x$  bilan belgilanadi; har qanday avtomatika tizimining ishi vaqt ichida bajarilganidan kirish kattaligining ta'siri vaqt bilan bog'lanadi va odatda  $x(t)$  tarzida belgilanadi.  $x(t)$  ta'sirida avtomatika tizimida turli miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, natijada jarayon ko'rsatkichlari – rostlanadigan miqdorlar – istalgan qiymatni oladi yoki o'zgarish har akteri talab etilgandek bo'ladi.

Rostlanadigan miqdorlar  $u(t)$  bilan belgilanadi va chiqish koordinatlari yoki *chiqish miqdorlari* deb ataladi.

Rostlanuvchi ob'ektga bevosita keladigan ta'sirlar avtomatik rostlash tizimiga beriladigan tashqi ta'sirlarning ikkinchi turiga kiradi. Bu ta'sirlar *tashqi g'alayonlar* deb ataladi va  $F(t)$  bilan belgilanadi.

Turli avtomatika tizimlari uchun g'alayonlar ham turlicha bo'ladi. Masalan, o'zgarmas tok motori uchun motorga keltiriladigan kuchlanish kirish miqdori, motorning aylanish chastotasi chiqish (rostlanadigan) miqdori, uning validagi yuklama esa g'alayon bo'ladi.

G'alayonlar asosiy va ikkinchi darajali bo'ladi. Asosiy g'alayonlarga rostlanuvchi miqdor  $u(t)$  ga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi g'alayonlar kiradi. Agar tashqi g'alayonlarning rostlanuvchi miqdor  $u(t)$  ga ta'siri oz bo'lsa, ular ikkinchi darajali deb ham xisoblanadi. Masalan, o'zgarmas tok bilan qo'zg'atiladigan o'zgarmas tok motori uchun motorning validagi yuklama asosiy g'alayon, motor aylanish chastotasining juda oz o'zgarishiga sabab bo'ladigan g'alayonlar (xususan, qo'zgatish chulg'amining va yakor chulg'amining qarshiliginini, binobarin, toklarni ham o'zgartiruvchi tashqi muxit har oratining o'zgarishi; motorning qo'zgatish chulg'амини ta'minlovchi elektrik tarmoq kuchlanishning o'zgarishi; cho'tkali kontaktlar qarshiliginini o'zgarishi va boshqalar) ikkinchi darajali bo'ladi. Agar tizimda bir chiqish miqdori (koordinata) rostlansa, bunday tizim bir konturli, agar tizimda bir necha miqdor (koordinata) rostlansa, shuningdek, bir chiqish koordinatasining o'zgarishi boshqa koordinataning o'zgarishiga ta'sir etsa, bunday tizim ko'p konturli deb ataladi.

## **1.2 AVTOMATIK SISTEMALAR ELEMENTLARINING TAVSIFI. AVTOMATIK ELEMENTLARINING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.**

### **Avtomatika elementlari.**

Elementlar o'zlarining bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: sezgir elementlar, kuchaytiruvchi elementlar va ijrochi elementlar.

Sezgir elementlar turkumiga datchiklar kiradi. Datchiklar topshiriq beruvchi elementlar sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Taqsimlovchi elementlar sifatida turli o'lhash sxemalari asosida belgilangan qurilmalar ishlataladi. Taqsimlovchi elementdan uzatilayotgan signal ko'pincha kam quvvatga ega bo'lib, u ob'ektga rostlovchi ta'sir o'tkaza olmaydi. Shuning uchun bu signallar kuchaytiruvchi elementlar yordamida kuchaytiriladi.

Ijrochi elementlar boshqarish ob'ektiga bevosita ta'sir o'tkazish uchun xizmat qiladi. Ijrochi elementlar sifatida elektromagnitlar va elektrodevigitillar ayniqlashtiriladi.

Avtomatik elementlari turli fizik tabiatga ega bo'lishi mumkin. Elektrik, mexanik, pnevmatik, hidraulik va h.k. amalda avtomatik boshqarish qurilmalarida turli elektrik elementlardan keng foydalaniladi. Bunday holatlarni sabablari elektrik kattaliklarni masofalarga uzatish, saqlash, qayta ishlab berish va ularni boshqa turdag'i signallarga aylantirishning qulayligidir.

Avtomatik elementlarning kirish kattaliklari - kirish signallari deb ataladi va  $x$  harfi bilan belgilanadi. Elementlarning chiqish kattaliklari - chiqish signallari deb ataladi va  $y$  xarfi bilan belgilanadi.

### **Avtomatika elementlarning tasniflanishi**


**Avtomatika elementi**- deb kirish  $x$  signalini chiqish  $y$  signaliga aylantirib beradigan eng oddiy avtomatik moslamaga aytildi.

Kirish va chiqish bir nechta bo'lishlari mumkin. Signallarni o'zgartirish *miqdoriy* (sonli), *sifatli* yoki *axborotli* bo'lishli mumkin.

**Miqdoran o'zgartirishda**,  $x$  va  $y$  signallar bir xil o'lchamga ega, ammoye'ksiz qurilmalar (amplituda, chastota, faza va sh.o'. lari) bo'yicha farq qilishadi. Miqdoran o'zgartirigich elementlarga - kuchaytirgichlar, transformatorlar, stabilizatorlar va boshqalar kiradi.

*Sifatni o'zgarishda*,  $x$  va  $y$  signallarni turi o'zgartiriladi va ana shu sababli, ular har xil o'lchamga ega bo'lishadi. Bunday o'zgartirishni datchiklar, dvigatellar, generatorlar va boshqalar bajarishadi.


*Axborotli o'zgartirish*—element kirishlaridagi holat haqidagi qandaydir axborot (ma'lumot), uni chiqishida aks etganida (namoyon bo'lgan) yuzaga keladi. Bunday o'zgartirishni mantiqiy elementlar bajarishadi. Ikkita diod va rezistorda bajarilgan element (1.3-rasm), yoki mantiqiy funksiyani amalga oshiradi. Chiqishda manfiy  $y$  potensial bo'lganida, ya'ni qachonki K1 yoki K2 knopka bosilgan, ya'ni  $x_1$  yoki  $x_2$  kirishlardan birida manfiy potensial paydo bo'lsa, faqat shundagina chiqishda manfiy  $y$  potensial paydo bo'ladi.



1.3-rasm.

$y=f(x)$  funksional bog'lanishni xususiyatiga qarab, uzlusiz va diskret ishlaydigan elementlarni ajratishadi. *Uzlusiz ishlaydigan elementlarda* kirish  $x$  signali uzlusiz o'zgarganda, chiqish  $y$  signali uzlusiz o'zgaradi (1.4 a-rasm). Ayrim elementlar gisteresislik xossasiga, yani  $x$  8 ttartirib-kichraytirganda,  $y$  qiymati bir xil bo'lmaydi. *Diskret (uzlukli) ishlaydigan elementlarda*,  $x$  uzlusiz o'zgarganda, chiqish  $y$  signalini sakrab o'zgarishi kutiladi (1.4,c-rasm). Bunda  $x$  ning ma'lum uzlusiz o'zgarish chegaralarida,  $y$  ni o'zgarmas (yoki deyarli o'zgarmas) qiymati mos keladi. Shunday qilib, bunday elementlarning holatlar to'plami diskret bo'lsa, uni ko'p turg'unli deb atashadi. Ikki turg'un holatga ega elementlar (1.4,d-rasm), eng ko'p tarqalgandir. (1.4,d-rasm)  $y=f(x)$  bog'lanishlik, gisteresis xossasiga ega va u *releli ta'sir* deb ataladi. Bu bog'lanishlikni xususiy holatiga bo'lib, xotiraga ega bog'lanishlik (1.4,e-rasm)

bo'lib, u *releli tavsif* hisoblanadi. Bu holatda, kirish signali olib tashlanganda ( $x=0$ ), element o'zining avvalgi holatini eslab qoladi.



1.4 -rasm. Funksional bog'lanishlar

ABT tuzilmasida (1.1-rasmga qarang) bajaradigan vazifasiga qarab, elementlar *boshlang'ich yoki dastlabki* (*o'lchagich*), *oraliq* (*boshqaruvchi*) hamda *so'nggi* (*ijrochi*) elementlarga bo'linishadi. Avtomatik tizimni kirishida joylashgan ***o'lchagich elementlar***, axborotga dastlabki ishlov beradigan va o'lchovchi qurilmalarni qurishida qo'llaniladigan elementlarning ko'pchiligini tashkil etadi. Bular qatoriga tashqi va ichki ko'rsatkichlar o'zgarishidan ta'sirlanadigan turli datchiklar kiradi.

ABT ning ko'pchilik elementlarini, ***boshqaruvchi elementlar*** tashkil etadi. Ular, *o'lchagich* elementlardan signallar olib, ushbu tizimning ishlash algoritmini amalga oshirishadi. Boshqaruvchi elementlar signallarni kuchaytirishadi va o'zgartirishadi, xotirada saqlashadi, mantiqiy bog'lanishlar va hisoblashlarni bajarib, ijrochi elementlarga tasir o'tkazishadi. Ulardan dasturiy qurilma, boshqaruv buyruqlarini shakllantiradigan va kuchaytirib o'zgartiradigan qurilmalar yaratiladi.

ABT tuzilmasida tashkil etadigan ijrochi elementlar boshqariladigan ob'ektlarga ta'sir o'tkazishadi. Bularga elektr, pnevmatik va gidravlik yuritmalar, turli klapalar, elektromagnit mexanizmlar va boshqalar kiradi.

Bir xil funksiyani bajaradigan avtomatika elementlari turli xil energiya ishlataladigan qilib bajarilgan bo'lishi mumkin. ***Elektr elementlar***—elektr magnitli,

elektr dinamikli, elektronli, yarim o'tkazgichli, magnitli va sh.o'.lar amaliyotda eng ko'p ishlatiladi. Amaliyotda, shuningdek, *gidravlik*, *pnevmatik*, *akustik* (*tovushli*), *optik* va *issiqlik elementlar* ham ishlatiladi.

### **Avtomatika elementlarning xatoliklari va ishonchliligi. Avtomatika elementlarining asosiy xarakteristikalarini.**

Avtomatik elementlarning kirish kattaliklari, kirish sininallari deb ataladi va x harifi bilan belgilanadi. Elementlarning chiqish kattaliklari, chiqish sininallari deb ataladi va N xarifi bilan belgilanadi.

Avtomatik elementlarning kirish va chiqsh sininallari qiymatlari vaqt davomida o'zgarmas bo'lgan rejim statik rejim deyladi.

Avtomatikaning barcha elementlarining asosiy xarakteristikasi ularning static o'zgarishi koyfisientidir..

$$K = \frac{Y_t}{X_t}$$

bu erda:  $Y_t$ ,  $X_t$  – chiqish va kirish sininallarining turg'un rejimidagi qiymati.

Avtomatika elementlari tizimning eng asosiy qismi bo'lib, quyidagi funktsiyalardan birini bajaradi:

- nazorat qilinayotgan yoki rostlanayotgan kattalikni qulay ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (birlamchi o'zgartgich - datchiklar);
- bir energiya ko'rinishidagi signalni boshqa energiya ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (elektromexanik, termoelektrik, pnevmoelektrik, fotoelektrik va xakozo o'zgartgichlari);
- signal tabiatini o'zgartirmasdan uning kattaliklarini o'zgartirish (kuchaytirgichlar);
- signalning ko'rinishini o'zgartirish (analog-raqam, raqam analog o'zgartkichlari).
- signalning formasini o'zgartirish (taqqoslash vositalari),

- mantiqiy operatsiyalarni bajarish (mantiqiy elementlar),
- signallarni taqsimlash (taqsimlagich va kommutatorlar),
- signallarni saqlash (xotira va saqlash elementlari),
- programmali signallarni hosil qilish (programmali elementlar),
- bevosita jarayonga ta'sir qiluvchi vositalar (ijrochi elementlar).

Avtomatika elementlarining funktsiyalari har xil bo'lganiga qaramay, ularning parametrlari umumiylashtiriladi va ularga quyidagilar kiradi:

- statik va dinamik rejimlardagi tavsifnomalari;
- uzatish koeffitsienti (sezgirlik, kuchaytirish va stabilizatsiya koeffitsientlari);
- xatolik (nostabillik);
- sezgirlik chegarasi.

Ko'rinish bo'yicha avtomatika elementlarining statik tavsifnomalari uch guruxga ajratiladi: a) chiziqli, b) uzlusiz nochiziqli, v) nochiziq uzlukli.


Avtomatika elementining ishlash sharoitlari turg'unlashmagan, ya'ni X va U qiymatlari vaqt davomida o'zgarilayotgan payti dinamik rejim deyiladi. Chiqish qiymatining vaqt davomida o'zgarishi esa dinamik tavsifnomasi deyiladi. Avtomatika elementlari ma'lum inertsionlikka ega, ya'ni chiqish signali kirish signaliga nisbatan kechikishi bilan o'zgariladi. Elementlarning bu xususiyatlari avtomatik tizimining dinamik rejimidagi ishini aniqlaydi.

Avtomatika elementining yana bir muhim tavsifnomasi – element (kirish kattaligi o'zgarishiga bog'lik bo'lmasa) chiqish kattaligining o'zgarishidan hosil bo'lgan o'zgartirish xatosidir. Bu xatoga sabab atrof-muhit haroratinining, ta'minlash kuchlanishining o'zgarishi va kabilar bo'lishi mumkin. Element tavsifnomalarining o'zgarishi natijasida paydo bo'ladigan hato nostabillik deb ataladi.

Ba'zi elementlarning chiqish va kirish kattaliklari o'rtasida ko'p qiymatli bog'lanish mavjud. Bunga quruq ishqalanish, gisteresis va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Bunda kattalikning xar bir kirish qiymatiga uning bir necha


chiqish qiymatlari mos keladi. Sezgirlik chegarasining mavjudligi shu hodisa bilan bog'liq.

Kirish kattaligining element chiqishidagi signalini sezilarli darajada o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan qiymati **sezgirlik chegarasi** deyiladi.



1.5-rasm. Sezgirlik chegarasini aniqlash sxemasi: a – —o'likl yo'l mavjud bo'lgandagi element tavsifi; b – releli hususiyat mavjud bo'lgandagi element tavsifi

Avtomatika elementlari mustahkamlik bilan xam xarakterlanadi. Elementlarning sanoat ekspluatatsiyasida o'z parametrlarini yo'l qo'yiladigan chegarada saqlash qobiliyatiga **mustahkamlik** deb ataladi. Mustahkamlik elementni loyihalash vaqtida hisoblanadi va uni ishlab chiqarilgandan so'ng ekspluatatsiya jarayonida sinaladi.



16-rasm. Element xatoligini aniqlovchi sxema.


Elementlar ishlayotgan vaqtida chiqish qiymati y ichki hususiyatlar yoki tashqi omillar sababli talab qilingan qiymatidan og'ishi mumkin, bunda element

tavsifi o'zgarishi sodir bo'ladi( -rasmdagi y' egrilik). Ushbu og'ish absolyut yoki nisbiy xatolik bo'lishi mumkin.

Xar bir elementning umumiy va asosiy tavsifnomasi uning o'zgartirish koeffitsienti, ya'ni element chiqish kattaligining kirish kattaligiga bo'lgan nisbatiga teng. Avtomatik tizimlarning elementlari miqdor va sifat o'zgartirishlarni bajaradi. Miqdor o'zgartirishlar kuchaytirish, stabillash va boshqa koeffitsientlarni nazarda tutadi. Sifat o'zgartirishda bir fizikaviy kattalik ikkinchisiga o'tadi. Bu holda o'zgartirish koeffitsienti **element sezgirligi** deyladi.

**Statik xarakteristika**, bu elementlarning statik rejimidagi chiqish kattaligi  $N$  ning, kirish kattaligi  $X$  ga funksionak bog'liqligidir, yani  $y=f(x)$

Statik xarakteristikalar chiziqli yoki nochiziqli bo'lishi mumkin.




1.7- rasim. avtomatik elementlarning static xarakteristikalarini tasvirlangan.

Chiziqli static xarakteristikasi rasm 1.7- a da tasvirlangan. Rasm 1.7-b statik xarakteristika nochiziqli deyladi. Rasm 1.7- c statik xarakteristika releli detalda. Bazi elementlarda kirish kattaligining kichik qiymatlarida chiqish kattaligi 0 ga teng (rasm 1.7-d). ularda faqat kirish kattaligi  $x \geq |a|$  bo'lгandagina chiqish kattaligi o'zgara boshlaydi. Bu erda kirish kattaligining  $x=a$  qiymat i- sezgirlik chegarasi deyladi.

**Dinamik xarakteristika:** sistemaning bir turg'un holatidan kirish va chiqish kattaliklarining qiymatlari boshqa bo'lgan ikkinchi holatga o'tadi dinamik rejim yoki o'tkinchi jarayon deyladi, ya'ni kirish kattaligi  $x$  va chiqish kattaligi  $y$  lar vaqt davomida o'zgaradi.  $x$  va  $y$  kattaliklarning o'zgarish jarayoni

qaysidir  $t=t_{0z}$  vaqt chegarasidan boshlanadi va inersion va noinersion rejimlarda bajarilishi mumkin. Inersionlik bo'limgandagi  $x$  va  $y$  ning o'zgarish jarayoni 1.8a-rasmida keltirilgan grafik bilan tavsiflanadi.




1.8-rasm.Kirish kattaligini sakrashsimon o'zgarishida elementdagi o'tish jarayoni:

a – inersionlik bo'limganda; b,v – inresionlik mavjud bo'lganda.

Inersionlik mavjud bo'lganda  $y$  ni  $x$  ning o'zgarishiga nisbatan o'zgarishining kechikishi kuzatiladi. Bu holatda 0 dan  $x_0$  gacha kirish kattaligining sakrashsimon o'zgarishida (1.8b-rasm) chiqish kattaligi  $y$  o'rnatilgan qiymat yo'rt ga birdaniga erishmaydi, o'rnatilgan qiymatga erishish vaqt mobaynida o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Bunda o'tish jarayoni aperiodik(tebranishsiz) so'nuvchi (1.8b-rasm) yoki tebranishli so'nuvchi (1.8v-rasm) bo'lishi mumkin.

Avtomatik elementlarning o'tkinchi jarayondagi holati, o'tish (переходная) xarakteristikalari bilan ifodalaniladi. O'tish xarakteristikasi deb, kirish kattaligi sakrab (keskin) o'zgarganda, chiqish kattaligining vaqtiga bog'liqligiga  $y(t)$  aytildi.



1.9- rasm. Avtomatik elementlarining o'tish xarakteristikalari.

O'tish xarakteristikalari inertsiyasiz, inertsiyalik va tebranuvchan bo'lishi mumkin. Avtomatik elementlarning ishonchliyligi deb, ularning ekspluatatsiya jarayonida ishlash qobiliyatini saqlash xususiyati tushuniladi. Ishonchliylikka baxo berishda, "buzilish" ("otkaz") tushunchasi ishlatilinadi.

### Avtomatika elementlarining ishonchlilikligi

Avtomatik elementlarning ishonchliligi deb, ularning ekspluatatsiya jarayonida ishlash qobiliyatini saqlash xususiyati tushuniladi. Ishonchlilikka baho berishda, "buzilish" ("отказ") tushunchasi ishlatilinadi.

Avtomatik elementining "buzilishi" deb, uning ishdan chiqish element funksiyalarini qoniqarsiz bajarishga olib keladigan parametirlarning o'zgarishiga aytildi.

Ishonchlilikni eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, nosozlik (buzilish) jadalligi hisoblanadi:

$$\lambda(t) = \frac{N(t) - N(t + \Delta t)}{N_{o.r.s}(\Delta t)}$$

bu erdag'i  $N(t)$ -vaqtini  $t$  paytida ishga layoqatli elementlarning soni;

$N(t + \Delta t)$  vaqtini  $((t + \Delta t))$  paytida ishga layoqatli elementlarning soni;

$N_{o.r.s}(\Delta t) - \Delta t$  vaqtini ichida ishga layoqatli elementlarlarning o'rtacha soni;

Nosozlik ishlikni jadalligi bo'yicha ishonchlilikni ko'pgina asosiy ko'rsatkichlarini masalan, beshikast (nosozlik etmasdan) ishlash ehtimolligi va nosozlikgacha o'rtacha ishlashlik muddatini hisoblab topish mumkin.

Avtomatika elementlarining sifatini baholashda, ularning tezkor ishlashligi muhim ahamiyatga ega. Bunda ularning vaqt doimiysi, ulanish (ishga tushish) vaqtি, uzhish (ajralish) vaqtি va boshqa ko'rsatkichlari ham ko'rib chiqiladi

### **Avtomatika elementlarning xatoliklari**

Avtomatik elementlari ishining aniqligi xatolik yordamida belgilanadi. Xatoliklar **absalyut, nisbiy va keltirigan** bo'lishi mumkin.

**Elementning absalyut xatoligi**, kirish kattaligidagi ma'lum qiymatidagi, chiqish kattaligidagi real qiymati bilan uning xisoblangan qiymati orasidagi farqi aytildi.

$$\Delta = y_p - y_x$$

**Nisbiy xatolik** absalyut xatolikning chiqish kattaligining xisoblangan qiymatiga nisbatiga aytildi.

$$\delta = \frac{\Delta}{y_x} \quad \text{yoki} \quad \delta = \frac{\Delta}{y_x} * 100\%$$

**Keltirilgan xatolik**, absalyut xatolikning, chiqish kattaligi qiymati o'zgarishi mumkin bo'lган diapazoniga nisbatiga aytildi.

### **Elektr o'lchash sxemalari**

Avtomatika elementlari to'rt xil strukturaviy belgilanish sxemalaridan iborat bo'ladi:


- a) oddiy bir martali (birlamchi) to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirish;
- b) ketma-ketli to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirish;
- v) differensial sxemali;
- g) kompensatsion sxemali.

Oddiy o'lchash o'zgartirgichlari (a) bir dona elementdan tashkil topgan bo'ladi. Ketma-ketli o'zgartirgichlarda esa (b) oldindagi o'zgartirgichning kirish ko'rsatgichi keyindagi o'zgartirgichning chiqishi hisoblanadi. Odatta birlamchi o'zgartirgich sezgirlik elementi (SE), ohirgi (keyingi) o'zgartirgich esa chiqish elementi deb yuritiladi. O'zgartirgichlarning ketma-ketligi ulanish usuli bir


martali o'zgartirishda chiqish signalidan foydalanish qulay bo'lgan sharoitda qo'llaniladi.

Differensial sxemali o'lchash o'zgartirgichlari nazorat qilinayotgan kattalikni uning etalon qiymatlari bilan solishtirish zarurati bo'lganda qo'llaniladi.

Differensial sxema ta'minot manbaiga ega ikkita yonma-yon konturdan iborat, o'lchov asbobi konturlarning umumiyligi tarmog'iga ulanadi va konturlar toklarining farqini sezadi. Differensial sxemalarda parametrik datchiklar(qarshilik o'zgarishi bilan) qanday qo'llanilsa, generatorli datchiklar(EYuK o'zgarishi bilan) ham shunday qo'llanilishi mumkin. Parametrik datchiklar ulangan differensial sxemalar 1.10-rasmida ko'rsatilgan(a – datchik bitta konturga ulangan; b – datchik ikkala konturga ulangan). Ikkala konturni ta'minlovchi EYuK bir xil. Generatorli datchik ulangan differensial sxema 1.11-rasmida ko'rsatilgan. Bu sxemada differensial transformator datchik bo'lib hisoblanadi.




1.10-rasmida Parametrik datchiklar differensial sxemalar




1.11-rasmida  
Generatorli datchik sxema

Kompensatsion sxemali o'zgartirgichlar usuli esa yuqori aniqlik bilan ishlashi, universalligi hamda o'zgartirish koeffitsiyentining tashqi ta'sirlarga deyarli bog'lik emasligi bilan ajralib turadi.

Kompensatsion sxemalar datchiklar yordamida EYuK yoki kuchlanishga o'zgaruvchi noelektrik kattaliklarni o'lchash uchun ishlataladi. Datchik signali kompensatsiyalovchi kuchlanish bilan taqqoslanadi. Kompensatsiyalovchi kuchlanishni toppish qo'lda yoki avtomatik bajariladi. Avtomatik kompensatsiyali asboblar avtomatik potensiometrlar deyiladi. Qo'l bilan muvozanatlashadigan oddiy kompensatsion sxemani ko'rib chiqamiz. O'lchanayotgan EYuK Ex yoki  $U_x$  R resistor qismidan iborat o'zgaruvchan simli resistor  $R_k$  ni olgan  $U_k$  kuchkanish belgisi bo'yicha teng va qarama-qarshi holatda muvozanatlashadi. Bu qarshilik ikkita harakatlanmaydigan chiqish va cho'tka ko'rinishidagi bitta harakatlanuvchi kirishga ega. Rezistorning barcha qarshiligi  $R$  EYuK ga ega  $E$  ta'minlash manbai zanjiriga ulanadi. O'zgaruvchan qarshilik  $R_k$  cho'tkaning  $x$  siljishiga proporsional:  $R_k = (R/L)x$ , bu yerda  $L$  – harakatsiz chiqishlar orasidagi sim o'ramlarning umumiyligi. Mos holda kompensatsiyalovchi kuchlanish  $U_k$   $x$  siljishiga proporsional  $U_k = (IR/L)x$ , bu yerda  $I$  – EyuK  $E$  ta'sirida  $R$  resistor orqali o'tuvchi tok.



1.12-rasm. Qo'l bilan muvozanatlashiriladigan kompensatsion o'lchash sxemasi.



1.13-rasm. Ko'prikni o'lchash davri

### Ko'prikni o'lchash sxemasi.

Ko'prigining sxematik diagrammasi (1.13-rasm)

ABVG yopiq to'rtburchagi bilan og'langan R<sub>1</sub>, R<sub>2</sub>, R<sub>3</sub>, R<sub>4</sub> faol qarshiliklarga ega to'rtta rezistordan iborat. Sxemaga kiritilgan R<sub>1</sub> - R<sub>4</sub> rezistorlar ko'priknинг elkalari yoki novdalari deb ataladi. Elkalar harflar bilan ham belgilanishi mumkin, masalan AB elkasi. ABVG to'rtburchagida ikkita diagonalni ajratish mumkin: AB va BG. Faol qarshilikka ega R<sub>pr</sub> o'lchov moslamasi BG ko'prigining diagonaliga kiritilgan.

Diagonal AB EYUK E va ichki qarshilik RE bilan quvvat manbai o'z ichiga oladi.

Ko'priknинг elkalaringin qarshiligini tanlashingiz mumkin, shunda o'lchash moslamasi yoqilgan B va G nuqtalarining potentsiallari bir xil bo'ladi. Bunday holda, I<sub>pr</sub> (I<sub>pr</sub> = 0) qurilmasida oqim yo'q. I<sub>pr</sub> = 0 ni ta'minlaydigan bunday qarshiliklarni tanlash jarayoni ko'prikn muvozanatlash yoki muvozanatlash deb ataladi. Ko'prikn muvozanat holatini shaklda qabul qilinganlarni hisobga olgan holda, ko'prikn yelkasidagi toklar uchun qayd etilgan Kirxgof qonunlari asosida olish mumkin.

$$I_1 R_1 - I_3 R_3 = 0, \quad I_2 R_2 - I_4 R_4 = 0,$$

Bu erda

$$I_1 R_1 = I_3 R_3, \quad (1.1)$$

$$I_2 R_2 = I_4 R_4. \quad (1.2)$$

va, quyidagini olamiz

$$I_1 R_1 / (I_2 R_2) = I_3 R_3 / (I_4 R_4)$$

Balansli ko'prika qurilma pallasida oqim I<sub>pr</sub> = 0 bo'lsa, unda I<sub>1</sub> = I<sub>2</sub>, I<sub>3</sub> = I<sub>4</sub> teng bo'ladi va (1.3) shaklga ega.

$$R_1 / R_2 = R_3 / R_4 \quad (1.3)$$

yoki

$$R_1 R_4 = R_2 R_3$$

Ko'prik pallasida, noma'lum qarshilik  $R_x$ , uni ko'prik qo'llaridan biriga, masalan,  $R_4$  rezistorining o'rniغا VG tutqichiga kiritish orqali o'lchanishi mumkin. Uchta ma'lum bo'lgan  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  qarshiliklari bilan, noma'lum qarshilik  $R_x = R_2 R_3 / R_1$  ga teng . Ko'prikni muvozanatlash bitta qarshilikni ( $R_2$ ) yoki ikkita qarshilikning nisbatlarini orqali ( $R_3 / R_1$ ) o'zgartirish mumkin. Balansli ko'priklarda o'lhash moslamasi juda sezgir bo'lishi kerak, u kichik oqimlarga javob berishi kerak. Ko'prikning muvozanati o'rnatilishi ushbu qurilmaga ko'ra amalga oshiriladi. Shuning uchun, muvozanatli ko'priklarda, odatda, o'lhash moslamasi sifatida galvanometr ishlatiladi.

### ***I-bob bo'yicha nazorat savollari***

1. Boshqarish sistemalarini elementlarini qanday sinflarga bo'linadi?
2. Elementga ta'rif bering.
3. Elementlarni signallar bilan bajaradigan funktsiyalari qanday?
4. O'zbekiston olimlarining elementlar bazasini rivojlanishiga qo'shgan hissalari qanday?
5. Yangi materiallar asosida yaratilgan elementlar qaysilar?
6. Termoenergetik ko'rsatkichlarga qanday kattaliklar kiradi?
7. O'lhash deganda nimani tushunasiz?
8. Qanday o'lhash turlari mavjud?
9. O'lhash xatoligi nima?
10. Avtomatik elementlar qaysi funktsiyalarni bajaradi?
11. Avtomatika elementlarining statik tavsifnomasi deganda nimani nimani tushunasiz?
12. Avtomatika elementlarini sanang?.
13. Avtomatika elementlarining tavsifi bering?.

14. Avtomatika elementlarining asosiy xarakteriskasi?

15. Statik va dinamik sxemalarini ko'rsating?


## **II.BOB. BOSHQARISH SISTEMALARINING SEZGIR ELEMENTLARI- O'ZGARTIRGICHALAR.**

### **2.1 DATCHIKLAR. ASOSIY TUSHUNCHALAR.**


Xar xil texnologik jarayonlarni avtomatlashirishda ularning ko'rsatkichlari xaqida ma'lumot olish zarur hisoblanadi. Bu maqsadda birlamchi datchiklar (yoki o'zgartirgichlar) keng qo'llaniladi.

Datchik deb – nazorat qilinayotgan, rostalanayotgan kattalikni o'lchash organi uchun qulay shaklga keltiruvchi qurilmaga aytiladi. Datchikning harakteristikasi ko'pincha, chiziqli bo'lishiga harakat qilinadi. Ko'pincha datchiklar noelektrik kattaliklarni elektrik kattaliklarga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Datchiklar kirish mexanik ko'rsatkichlarni (bosim, kuch, sarf kabilar) chiqish elektrik ko'rsatkichlarga (kuchlanish, tok, qarshilik, induktivlik va kabilar) o'zgartirib berish uchun xizmat qiladi. Bunday o'zgartirgichlarning sezgirlik elementi sifatida elastik elementlar (membrana, prujina, balka kabilar) poplavoklar, krilchatkalar va drosselli qurilmalar ishlatalidi.



**Burdon trubkasi**



**Membranali o'zgartirgich**



Elektromexanik birlamchi o'zgartirgichlar (yoki elektrik datchiklar) kirish mexanik ko'rsatkichlarni (bosim, kuch, sarf kabilar) chiqish elektrik ko'rsatkichlarga (kuchlanish, tok, qarshilik, induktivlik va kabilar) o'zgartirib berish uchun xizmat qiladi. Elektromexanik o'zgartirgichlar parametrik va generator o'zgartirgichlarga (yoki datchiklarga) bo'linadi.



O'lchanayotgan parametrni elektr zanjiri kattaliklariga aylantiruvchi datchiklar parametrik, EYUK ga aylantiruvchi datchiklar generatorli datchiklar deb ataladi.

Parametrik datchiklarda chiqish ko'rsatkichini elektr zanjir kattaliklari (qarshilik, induktivlik, o'zaro induktivlik, elektr sig'imi va kabilar) tashkil topadi.

Bunday turdagи datchiklarda elektr toki va kuchlanishi sifatida chiqish signalini

olish uchun ularni maxsus elektr sxemalariga (ko'priklari, differensialli) ulash hamda

allohida energiya manbasiga ega bo'lishi kerak.

Generator datchiklarida bevosita sezgir elementda kirish signali X chiqish signali U o'zgartiriladi. Ushbu o'zgartirish kirish signali energiyasi hisobiga bo'ladi va chiqish signali E.YU.K. ko'rinishida hosil bo'ladi. Generator datchiklari juda oddiy bo'ladi, chunki ular qo'shimcha energiya manbaisiz ulanadi. Aniqlik darajasi bo'yicha datchiklar 0,24; 0,4, 0,6; 1; 1,5; 2,5; 4 aniqlik sinflariga muvofiq bo'lishlari lozim. Ish prinsipi bo'yicha elektrik datchiklar rezistivli, elektromagnitli, sig'imli va taxometrik (generatorli) ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Avtomatika va telemexanika tizimlarida datchiklar boshlang'ich yoki o'lchagich element vazifalarini bajarishadi. Ular yordamida avtomatik tizimlar tashqi axborotni olishadi. Datchiklarning aniq va ishonchli ishi, butun tizim ishini tegishli asosiy ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Datchiklar yuqori ta'sirchanlik (sezgirlik) va aniqlikka, uzoq xizmat muddati va ishda beshikastlikka, kichik o'lcham va og'irlilikka, hamda past narxga ega bo'lishlari kerak.

Datchiklar turidan qat'iy nazar ularga quyidagi asosiy texnik talablar qo'yiladi: aniqlik, sezgirlik, tezkorlilik, ishonchlilik, narxi, o'lchamlari, og'irligi. Shartli ravishda, datchiklarni qabul qiluvchi, oraliq va ijrochi qismlardan iborat deb hisoblash mumkin. Qabul qiluvchi qismi, kirish x miqdorini o'zgarishiga ta'sirlanib, uni qandaydir oraliq miqdorga o'zgartiradi. Bu miqdor, shunga o'xshash fizikaviy miqdorning etalon (namuna) qiymati bilan taqqoslanadi. So'ngra esa, bu datchikni ijrochi qismiga tasir etib, chiqish y signalini shakllantiradi. Kirish x miqdorini fizikaviy tarkibiga qarab-elektr, issiqlik, mexanik, optik, akustik, suyuqlik va gaz datchiklarini ajratishadi. Elektr datchiklar-tok, kuchlanish, quvvat, chastota, magnit oqimni; issiqlik datchiklar-harorat va issiqlik miqdorini; mexanik datchiklar-kuch, bosim, siljish, tezlik,


tezlanish; optik datchiklar–nur kuchi, yoritilishni; akustik datchiklar–tovush kuchi, uni chastotasi, quvvatini; suyuqlik va gaz datchiklari–bosim va tezlikni o'lchashadi. Har bir turdag'i datchiklarni, o'z navbatida, qabul qiluvchi qismining ishslash prinsipi bo'yicha ham tasniflashadi, ya'ni guruhlarga bo'lishadi. Masalan, optik datchiklar, fotoelektrik, toximik, fototermik va fotomexanik guruhlarga bo'lishadi. Datchiklarni boshqacha turi, chiqish u miqdorini fizikaviy tabiatiga qarab ham belgilanadi. Chiqish miqdori–elektr bo'lgan datchiklar, yani qarshilik, induktivlik, sig'im, tok, kuchlanish, faza, chastota datchiklari eng ko'p tarqalgan.

### Datchiklarning turlari

Datchiklar *kirish x signalini son va turi bo'yicha o'zgartirishiga* qarab ham, ayrim guruhlarga ajratiladi. Kirish signalini bevosita o'zgartiradigan datchiklar, kirish *x* signalni bevosita chiqish *y* signaliga o'zgartiradi. Bunday datchiklar qulay, chunki oraliq o'zgartiruvchi qismlarga hojati bo'lmaydi. Oraliq o'zgartiruvchi qismlarga ega datchiklarda, signalni bir necha marta o'zgarishi murakkabliklarga, ma'lum darajada anqlikni yo'qolishiga olib keladi. *x-y* o'zgartirishning ko'rinishi bo'yicha, datchiklar ikki guruhga: uzluksiz va diskret (uzlukli) o'zgartiruvchilarga bo'linishadi. Uzluksiz o'zgaradigan datchiklar o'lchagich bo'lib hisoblanadi. Ularda *x* ning uzluksiz o'zgarishiga, *y* ni uzluksiz o'zgarishi to'g'ri keladi. Ko'pincha, diskret ishlaydigan datchiklar diskret ob'ektlar holatini, ya'ni chekli holatga ega ob'ektlarni nazorat qilishadi. Nazorat qilinadigan ko'pchilik ob'ektlar ikki pozisiyaga ega, yani '*ulangan*' va '*uzilgan*' holatlarga ega bo'lishadi. Ana shu sababli, diskret datchiklar, chiqish miqdorlari *y=0* yoki *y=1* bo'ladigan ikkilik axborot datchiklari hisoblanishadi.

**Bevosita o'zgartiradigan datchiklar.** Bevosita o'zgartirgich datchikka misol bo'lib, tenzodatchik, termo (issiqlik) datchiklar, induktiv datchiklar, sig'im datchiklar, optik datchiklari va x.k. hisoblanadi.


**Oraliq o'zgartirgichga ega datchiklar.** Bu datchiklar bir nechta bevosita o'zgartiradigan va ketma-ket ishlaydigan datchiklardan tashkil etilgan. Bundagi bitta datchikni chiqish kattaligi kelgusi datchikni kirish miqdori bo'lib xizmat qiladi. 2.1a-rasmida tasvirlangan datchik  $\omega$  burchak tezligini kondensator  $S$  sig'imiga aylantirishga xizmat qiladi. Datchikni qabul qiluvchi jism bo'lib markazdan qochma rostlagich hisoblanadi. U burchak tezlikni  $P$  prujinani (oraliq qismi) siqish kuchi bilan taqqoslanadigan markazdan qochma kuchga aylantiradi. Oraliq qismida kuch  $S$  kondensatorni yuqori qoplamasi bilan qoplangan rostlagichni pastki muftasini  $\delta_s$  siljishiga olib keladi. Kondensator datchikni ijrochi qismi hisoblanadi, uni sig'im plastinalar orasidagi  $\delta_c$  masofaga qarab o'zgaradi.



2.1 -rasm. Oraliq o'zgartirgichga ega datchiklarning sxemalari.

2.1b-rasmdagi datchik  $U$  kuchlanishni  $f$  chastotasiga aylantiradi.  $U$  kuchlanish strelkasi  $S$  sig'imni o'zgaruvchan kondensator bilan bog'liq bo'lgan  $V$  voltmetr yordamida o'lchanadi.  $S$  kondensator esa, chiqishdagi  $f$  chastotasi sig'imga bog'liq, topshiriq beruvchi  $G$  generatori konturga ulangan. Shunday qilib, datchikda ushbu o'zgartirishlar bajariladi:  $U \rightarrow V$  voltmetr strelkasini burchak siljishi  $G \rightarrow f$ .

**Diskret o'zgartiradigan datchiklar.** Bu datchiklar ob'ektlarni holatini nazorat qilishadi va temir yo'l avtomatika hamda telemexanika tizimlaridagi kirish axborotlarini manbai hisoblanadi. Yo'l bo'lagini harakatlanuvchi tarkibdan ozodligini nazorat qilishlik uchun *rels zanjiri* (2.2-pacm) ishlataladi. Rels zanjiri qilib izolyasiyalovchi tutashmalar *IT* bilan chegaralangan yo'l bo'lagini bir qismi qabul etiladi. Rels zanjirining bir uchidagi relslarga ta'minot ulansa, boshqa uchiga esa o'tkazgich sifatida ishlataladigan relslardagi tokka ishlaydigan nazoratchi asbob *NA* ulanadi. Odatda *NA* sifatida, elektrnomagnit yoki induksion rele ishlataladi. Agar uchastka bo'sh bo'lsa, *NA* dan katta tok o'tadi (rele yakori tortilgan). Agar uchastka hech bo'lmasa (uni qarshiligi 0,06 Om va *NA* qarshiligidan ancha kichik), *NA* da tok keskin kamayadi (rele yakorni qo'yib yuboradi). Shunday qilib *NA* holatiga qarab yo'l bo'lagini bo'sh yoki bandligi haqida fikr yurgizish mumkin.



2.2-rasm. Relsli zanjirning sxemasi

Yarim o'tkazgichlar texnikasini rivojlanishi va hozirgi avtomatik tizimlarda mikroprosessorlar va kompyuterlarning keng qo'llanishligi tufayli, datchiklar taraqqiyotida yangi g'oya va yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu rivojlanish xususiyatlari, datchiklarni mikroprosessorlar va kompyuterlar bilan birga ishlashligi belgilanmoqda. Ana shu sababli, zamonaviy datchiklarning muhim sifati bo'lib, integral bajarilgani hamda kichik o'lchamlarga egaligi hisoblanadi. Ushbu xususiyatlari tufayli, bitta korpusda bir nechta datchiklarni joylashtirish

va bu bilan bir vaqt ni o'zida bir nechta fizikaviy miqdorlarni o'lchaydigan birikma datchik yaratish imkonii tug'ildi.

### **Parametrik datchiklar**

Datchiklar har qanday avtomatik boshqarish tizimlarning asosini tashkil etuvchisi hisoblanadi. Datchiklar rostlanayotgan parametrlari masofaga uzatish va qayta ishlash uchun qulay shakldagi proportsional signallarga aylantirib berish uchun xizmat qiladi. Ma'lumki eng qulay ko'rinishdagi bu elektr signaldir. Shuning uchun datchiklar aksariyat hollarda turli noelektrik kattaliklarni proportsional elektr kattaliklarga aylantirib beradi. Elektr chiqish signaliga ega bo'lgan datchiklar:

- 1) parametrik
- 2) generatorli


Parametrli datchiklar rostlanayotgan kattalikni o'zgartirishni elektr zanjirining asosiy parametrlari ( $R, L, C$ ) ni birortasini o'zgartirishga aylantirib beradi. Misollar: reostatli, termoqarshilikli, tenzometrik, induktivlik, sig'im, fotoelektrik va x.k.

Generatorli datchiklar rostlanayotgan parametrlar ta'sirida o'zlari proportsional E.Yu.K. lar hosil qiladi. Ular elektr energiyali manbaga ulanadi. Misollar: termoparalar, taxogenerator, p'ezoelektrik datchiklar, fotodiodlar va x.k.

Elektrik datchiklar ishlash prinsepiya ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Bular quyidagilar: kontaktli, potensiometrik, tenzometrik, elektromagnitli, fotoelektrik, ultratovushli va x.k. Shuni ta'kidlash lozimki, bu qator uzlusiz ortib boradi: fan-texnikaning rivojlanishi yangi-yangi fizik xodisalar, materiallar yaratilishiga sabab bo'ladi.

Kontaktli datchiklar parametrik datchiklar turkumiga kiradi, chunki ularning elektr qarshiligi mexanik kirish kattaligi ta'sirida o'zgaradi. Ularning statik xarakteristikasi releli ko'rinishga ega.

Aniqlik darajasi bo'yicha datchiklar 0,24; 0,4, 0,6; 1; 1,5; 2,5; 4 aniqlik sinflariga muvofiq bo'lislari lozim. Ish prinsipi bo'yicha elektrik datchiklar rezistivli, elektromagnitli, sig'imli va taxometrik (generatorli) ko'rinishlarga ega bo'ladi.




2.3-rasm. Elektrik datchiklarning turlanishi

1.1– Jadval

**DATChIKLAR VA ULAR NAZORAT QILADIGAN  
KATTALIKLAR**

Nazorat qilinadigan kattaliklar	<b>DATCHIKLAR TURLARI</b>													
	<b>Mexanik</b>	<b>ELEKTRIK DATCHIKLAR</b>												
		Potensiometrik	Tenzometrik	Induktiv	Termorezitorli	Sig'im	Fotorezistorli	Elektron	Induksion	P'ezoelektrik	Termoelektri	Xoll datchiklari	Fotoelektrik	gidravlik
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1. Siljish	+	+	+	+	-	+	-	+	-	-	-	+	+	+
2. Satx	+	+	-	+										+
3. Tezlik	+	-	-	-	+	+	-	-	+	-	-	-	+	+
4. Tezlanish	+	-	+						+	+	-	-	-	-
5. Kuch	+	+	+	+	-	+	+	+	+	+	-	+	-	-
6. Bosim	+	-	+	+	-	+	-	+	-	+	-	+	-	+
7. Moment	-	+	+	+	-	+	+						+	+
8. Namlık	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-	+	-	-	-
9. Xarorat	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-	+	-	-	-
10. Sarf	-	+	-	+	-	-	+	-	+	-	-	-	-	+
11. Tebranish	-	+	+	+	-	+	-	-	+	+	-	+	-	-

Parametrik datchiklarda chiqish ko'rsatkichini elektr zanjir kattaliklari (qarshilik, induktivlik, o'zaro induktivlik, elektr sig'imi va kabilar) tashkil topadi. Bunday turdag'i datchiklarda elektr toki va kuchlanishi sifatida chiqish signalini olish uchun ularni maxsus elektr sxemalariga (ko'priki, differentsialli) ulash hamda alohida energiya manbasiga ega bo'lishi kerak.



Namlikning qarshilikli datchigi



Haroratning qarshilikli datchigi




Yuqori bosim induktiv datchigi



Sath sig'imli datchigi

### **Patensiometrik datchiklar.**

Patensiometrik datchiklar mexanikaviy siljishlarni elektr kattaliklariga aylantirib berishi uchun xizmat qiladi. Datchikning asosiy qismi reostat bo'lib, uning qarshiligi surgich siljishida o'zgaradi.



2.4 - rasm. Patensiometrik datchikning ulanish sxemasi.

Manbaning kuchlanishi  $U$  reostatning barcha cho'lg'amlari qo'zg'almas uchlari orqali beriladi. Chiqish kattaligi surgichning siljishiga propartsional bo'lib, u reostatning bir qo'zg'almas uchi bilan surgich orqali olinadi. Bunday sxema elekrotexnikada potensiometrik yoki kuchlanishni bo'lismi sxemasi deyiladi.

Agar datchik barcha cho'lg'amlarining qarshiligi  $R$ , chiqish kuchlanishi olinayotgan qismini qarshiligi  $R_{chiq}$  bilan belgilasak, u xolda reostat ikki qarshiligi  $R_{chiq}$  va  $(R - R_{chiq})$  ketma-ket ulangan deb hisoblash mumkin. Reostat cho'lg'amidan o'tayotgan tok kuchi:  $I = \frac{U}{R}$ , bo'lsa u holda manba kuchlanishi quydagicha taqsimlanadi:

$$U = IR_{chiq} + I(R - R_{chiq}).$$

Agar reostat qarshiligi uning uzunligi  $L$  bo'yicha tekis taqsimlansa, hamda surgichni siljitim  $X$  bilan belgilanadi,

$$U_{chiq} = I * R_{chiq} = U_x / L$$

Shunday qilib, datchikning chiqish signali surgichning siljishiga propartsional bo'ladi.


**Termoqarshilikli datchiklar** (termorezistor, qarshilik termometrlari) da har oratni o'zgarishi utkazgich va yarim utkazgichlar qarshiliklarini o'zgarishiga olib keladi. Ular texnikada  $200^{\circ}\text{S}$  dan  $700^{\circ}\text{S}$  gacha bulgan har oratni ulhash uchun ishlataladi. Bunday termometrlar metallar (asosan platina, mis) dan hamda yarim o'tkazgichlardan (marganets, kobalt)dan ham tayyorlanadi. Ularni ishlashi metallar va yarimo'tkazgichlar qarshiligini haroratga bog'likligiga asoslangan. Ma'lumki, harorat ko'tarilganda metallar qarshiligi oshadi, yarimo'tkazgichlarda esa aksincha.

Tenzometrik datchiklar asosan turli mashina va mexanizmlarning qismlarida sodir bo'ladigan mexanik deformatsiyalarni o'lchash uchun ishlataladi. Ular yordamida boshqa mexanik kattaliklarni S bosim, vibratsiya, tezlanish va x.k.lar o'lchanishi mumkin. Tenzometrlarning ishslash prinsipi mexanik

deformatsiyalanish natijasida materiallarning aktiv qarshiligini o'zgarishiga asoslanadi.


Tenzometrlarning materiallari sifatida o'tkazgichlar S sim yoki plyonka ko'rinishida va yarim o'tkazgichlar ishlatalishi mumkin.

Yarim o'tkazgichli Tenzometrlar kremniydan tayyorlanadi. Ular shartli belgi yordamida ko'rsatiladi.



Bu datchiklar yuqori plastinka shaklida bo'ladi, uning 2 ta uchi bo'ladi. Bu datchiklar deformatsiyasi o'lchanishi kerak bo'lgan mashinaning detaliga yopishtirib qo'yiladi. Mashina yoki mexanizm harakatga kelganda, detallarda sodir bo'ladigan deformatsiyalar ta'sirida plastinkalar ham deformatsiyalanib, ularning aktiv qarshiliklari o'zgaradi.

Tenzodatchikning ishlash prinsipi quyidagi grafik yordamida izohlash mumkin.



2.5 - rasm. Yarim o'tkazgich tenzorezistorning xarakteristikasi.

n - "n" tipidagi ayrim o'tkazgich uchun


p - "p" tipidagi ayrim o'tkazgich uchun.

Bu grafikda,  $-\Delta l/l$  tenzodatchik o'lchamlarining nisbiy o'zgarishi,  $\Delta R/R$  tenzodatchik aktiv qarshiligining nisbiy o'zarishi.

Tenzodatchik ( 2.6-rasm) detallar yuzasidagi deformasiyalar va mexanik kuchlanganliklarni o'lhashga ishlataladi. Tenzodatchikni P shaklida yuqori solishtirma qarshilikka va kichik diametrga (0,006-0,020 mm) ega (konstantan) simdan tayyorlashadi. Simni zinch va teng sirtmoq ko'rinishida, ingichka qog'oz

varaqlari orasida joylashtirib, ularni elimlashadi. Sim uchlari mis simlarga payvandlanib, ular yordamida tenzodatchik o'lchagich sxemaga ulanadi. Tenzodatchik detal yuzasiga mahkam yopishtiriladi va u bilan birga deformasiyalanadi. qarshilikning nisbiy o'zgarishi  $\Delta R/R$  deformasiyaga  $\Delta l/l$  va detal yuzasini kuchlanganligiga proporsionaldir, undagi  $k$ -o'zgarmas miqdor.


$$\frac{\Delta R}{R} = k \frac{\Delta l}{l}$$



2.6-rasm. Tenzodatchik

Demak, tenzodatchikda mexanik kattalik (deformasiya), bevosita elektr (qarshilik) miqdorga aylantiriladi.


Konstuksiyasi bo'yicha, *termo (issiqlik) datchiklar* ham soddadir. Ularda harorat kuchlanishga (termoparalarda) yoki qarshilik (termoqarshiliklarda) o'zgarishiga aylantiriladi. Termoqarshiliklar (2.7a-rasm) po'lat, nikel yoki platinali simlardan tayyorlanadi, chunki ularning qarshiliqi haroratga bog'liqdir. Haroratni o'lchash uchun, magnitaviy va dielektrik o'tkazuvchanligi issiqlikka sezgir bo'lgan ferritlar va kondensatorlar ishlataladi. Termosezgir diod va tiristorlarda, kremniy kristallidagi *p-n* o'tishdagi o'tkazuvchanlikni haroratga bog'liqlik xususiyatidan foydalanishadi.



2.7-rasm. Qarshilik datchiklari

*Qarshilik datchiklari* guruhiiga, keng tarqalgan reostatli datchik (2.7b -rasm) kiradi. Ular mexanizmlarning chiziqli siljishini tegishli  $R$  qarshilikni o'zgarishiga aylantiradi.  $D$  surilgichni  $x$  masofaga siljitganda, reostatni  $R$  qarshiligi proporsional ravishda o'zgaradi.

**Sig'im siljish datchiklari.** Bu xil datchiklarda plastinkalar orasidagi masofani o'zgarishi kondensator sig'imini o'zgarishiga olib keladi, ya'ni kondensatorning bitta plastinkasi harakatlanuvchan bo'ladi (2.8-rasm). Kirish miqdori  $\mathbf{R}$  (siljish) ni o'zgarishi natijasida platinkalar orasidagi masoфа o`zgarib, kondensator sig'mi o'zgaradi.



2.8-rasm. Sig'im siljish datchiklari.

Sig'im datchiklarning ishi o'lchanayotgan kattalikni sig'im qarshiligidagi aylantirib berishga asoslangan. Shuning uchun ular parametrik datchiklar guruhiiga kiradi. Bu datchiklarning ishlash prinспini quyidagi ifoda yordamida ifodalash mumkin.


$$C = E * E_0 * S / d$$

Bu erda:  $E$  - kondensator plastiklari orasidagi muhitning dielektrik kirituvchanligi,

$E_0$  – dielektrikning doimiysi ( $E_0 = 8,85 \cdot 10^{-12}$ ),

$S$  - kondensator plastiklar yuzasi,

$d$  – plastiklar orasidagi masofa



2.9 - rasm. Chiziqli siljish sig' im datchigi.



2.10 - rasm. Burchakli siljish sig' im datchigi.

Yuqoridagi ifodaga ko'ra kondensator sig' imini o'zgarishi 3 ta kattalikka bog'liq:  $d$ ,  $S$ .  $E$ .

Rasmlarda chiziqli va burchakli siljish datchiklar ko'rsatilgan. Chiziqli siljish datchiklarda sig' im kondensatori plastinkalar orasidagi masofaning o'zgarishiga bog'liq. Burchakli siljish datchiklarda sig' im kondensatori plastinkalarning o'zaro qoplash yuzasiga bog'liq.

Bu datchikda sig' im suyuqlik sathiga bog'liq, chunki sath balandligi o'zgarsa, kondensator plastinkalari orasidagi muhitning dielektrik kiritiluvchanligi o'zgaradi.


Sig' im datchiklar o'zgaruvchan tok zanjirlarida ishlataladi. O'zgaruvchan tok zanjirida sig' im qarshiligi:

$$X_c \frac{1}{2\pi f c}$$

Bu erda :  $S$  – kondensator sig' imi.

$f$  – o'zgaruvchanlik tok chastotasi.

Sig’im datchiklari yuqori chastotalik (400Gs dan yuqori) o’zgaruvchan tok zanjirlarda qo’llash maqsadiga muvofiq.



2.11 – rasm. Suyuqlik sathi sig’im datchigi.

### **Elektromagnitli datchiklar.**


Elektromagnitli datchiklar mexanik siljishlarini, elektromagnit zanjirning parametrlari o’zgarishini hisobiga elektr kattaliklariga aylantirib berish uchun xizmat qiladi. Elektromagnit datchiklarning parametrlarini o’zgartirish magnit zanjiri elementlarini (o’zak yoki yakor) yoki elektr zanjirlarining elementlarini (cho’lg’am) mexanik siljishi natijasida sodir bo’lishi mumkin. Bunday siljishlar natijasida cho’lg’amning induktivligi yoki o’zaro induktivligi o’zgarishi mumkin. Shuning uchun elektromagnit datchiklar guruhiba kiritish mumkin.

Elektromagnitli datchiklar yordamida mexanik kuchlar, bosim, temperatura, magnit materiallar xususiyatlari, suyuqlik va gazlarning sarfini va x.k. avtomatik o’lchashni amalga oshirish mumkin.

Elektromagnitli datchiklar quyidagi afzalliklarga ega: konstruksiyaning soddaligi va arzonligi, mexanik mustahkamligi, yuqori ishonchlilik, o’zgaruvchan tok tarmog’ida ishlash imkoniyati, katta quvvatni hosil qilish imkoniyati va x.k.

Ularning kamchiliklari: chiqish kattaligining tashqi elektromagnit maydonlarning ta’siri, hamda faqat o’zgaruvchan tok tarmog’ida ishlash mumkinligi.

Eng sodda **induktiv datchik** magnit o'tkazgichi o'zgaruvchan S havo tirkishiga ega bo'lган drosseldan iborat.



2.12 - rasm. Induktiv datchik.

**Induktiv** datchik. Faltak ko'rinishida bo'lib, po'lat o'zak, yakor va ular orasidagi masofadan iborat bo'ladi. Induktiv datchiklarda po'lat o'zakni siljishi g'altak induktiv qarshiligini o'zgarishiga olib keladi (2.12-rasm). Manometrni o'lchov qismi bilan mexaniq bog'langan yakorni siljishi induktiv datchik induktivligining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Indiksion datchiklar ko'proq ko'prik sxemalarda qo'llaniladi. Umumiylaydan iborat ikkita g'altakdan tuzilgan qurilma differensial induktiv datchik deb ataladi, u yuqori sezgirlikka egadir.

Turli jism va muhitlarni haroratini o'lchaydigan datchiklarda buyum yoki materiallarini xususiyatlarini haroratga bog'liqligidan foydalaniladi. Bunga misol qilib o'lchamlari yoki xajmini, issiqlik qarshiligi koeffitsentini, termo EYUK ni, elektr o'tkazuvchanlikni harorat ta'sirida o'zgarishini olish mumkin.

Cho'lg'am o'zgaruvchan tok tormog'iga ulanganda hosil bo'lган magnit oqim  $F$  asosan o'zak va yakor orqali aniqlanadi. Yakor boshqarish ob'ekti bilan mexanik bog'langan holda o'zgarsa, u holda u bilan birga yakor ham o'z holatini o'zgartiradi. Natijada esa havo tirkishi  $\delta$  ning uzunligi ham o'zgaradi. Ma'lumki, cho'lg'amning induktivligi havo tirkishi uzunligiga bog'liq.

$$L = \frac{W^2}{R_m + 2\delta \setminus (\mu_0 * S_m)}$$

$W$  - cho'lg'am o'ramlar soni,

$R_m$  - magnit o'tkazgichning magnit qarshiligi,

$\delta$  - havo tirkishi uzunligi,

$\mu_0$  - havoning magnit kirituvchanligi,

$S_m$  - magnit o'tkazgich havo tirkishining ko'ndalang kesim yuzi.

$$\text{Cho'lg'amning induktiv qarshiligi.} \quad X_L = \omega L = \frac{\omega * W^2}{R_m + 2\delta / (\mu_0 * S_m)}$$


U holda cho'lg'amdan o'tayotgan tok kuchi.

$$I = \frac{W}{Z} = \frac{W}{\sqrt{R^2 + \omega^2} \left[ \frac{W^2}{R_m + 2\delta / (\mu_0 * S_m)} \right]}$$

bu erda  $W$  – tarmoq kuchlanishi,

$R$  -cho'lg'amning aktiv qarshiligi.

Ifodadan ko'riniib turibdiki, bu datchik mexanik siljishlarni tok kuchiga aylantirib berar ekan. Datchikning statik xarakteristikasi  $I=f(x)$  rasmida ko'rsatilgan.



2.13 - rasm. Induktiv datchik statik xarakteristikasi.

Xarakteristikaning AI qismi chiziqli bo'lib, u ishchi qism deb ataladi.


### Transformator datchiklarda

Transformator datchiklarda (2.14, b - rasm) kirish signali plunjер yoki yakorning xarakati bo'lib, chiqish signali esa  $I_1$  -  $I_2$  toklarning geometrik

ayirmasi bo'ladi. Yakorning neytral holatida  $I_1 - I_2$ , demak o'lchov asbobida tok yo'qligini bildiradi. Yakorning holati o'zgarilishi bilan cho'lg'amlarning induktivligi o'zgaradi va  $I_1$ ,  $I_2$  toklarining muvozanatlari o'zgaradi. Natijada o'lchov asbobidan

$\Delta I = I_1 - I_2$  toki oqib o'tadi. Ushbu tokning fazasi yakorning xarakatlanish yo'naliishiga bog'liq bo'ladi.

Transformator datchikning sxemasi 2.14, d - rasmida ko'rsatilgan. Bu yerda kirish kattaligi burchak xarakati  $\alpha$  bo'lib, chiqish kattaligi esa ikkilamchi asbobjagi tok bo'ladi. Yakorning neytral holatida, ya'ni  $\alpha_1 = \alpha_2$  o'rta o'zakda EYUK hosil bo'lmaydi, chunki chetlardagi cho'lg'amlar qarama-qarshi yo'naliishda o'ralgan va ular o'zaro teng. Yakorning xarakatlanishi bilan cho'lg'amlardan birining magnit qarshiligi kamayadi, ikkinchisini esa oshib ketadi. Natijada o'rta cho'lg'ama EYUK hosil bo'lib, ikkilamchi asbobjan tok oqib o'ta boshlaydi.



2.14- rasm. Induktiv va transformator datchiklarining sxemalari va ularning tavsifnomalari

ATT2200 rusumli temperaturani o'lchash uchun xizmat qiladigan intellektual datchikni tanladik (2.15 -rasm). Ushbu datchik yuqori darajali metrologik xarakteristikalarga ega. Jumladan, u parametrlarni yuqori aniqlikda o'lchash, yuqori ishonchlilik, o'z-o'zini diagnostika qilish, tashqi muhit temperaturasini avtomatik tarzda kompensatsiyalash, avariya holatini ma'lum qilish kabi xususiyatlarga ega. SHuningdek, mazkur datchik kompyuter yordamida HART kommutator asosida asbobning asosiy ish parametrlarini sozlash imkoniyatiga ega.

ATT2200 temperatura intellektual datchiki quyidagi metrologik xarakteristikalarga ega:

- o'lhashning yuqori aniqligi; • ko'rsatgichlarining stabilligi; • sozlash tizimining egiluvchanligi; • sensorlarni tanlashning keng diapazona: - 2-lik, 3-lik va 4-lik o'tkazuvchanli (simli) qarshilik termometrlari; - B, E, J, K, N, R, S, T turidagi termoparalar; - millivoltli signallar; - om o'lchamli signal; HART kommunikator yordamida kompyuter orqali jihozlar ishi parametrlarini sozlash imkoniyati va quyidagilarni ta'minlash:
- yuqori ishonchlilik;
- doimiy o'z-o'zini diagnostika qilish;
- tashqi muhit temperurasini avtomatik tarzda kompensatsiya qilish;
- avariya holatini ma'lum qilish;
- xotira qurilmasini yozuvdan himoya qilish funksiyasi;
- dunyo standartlari talablariga mos kelishi.

ATT2200 rusumli intellektual datchik mikroprotsessor bilan jihozlangan va ayrim amallarni bajarish qobiliyatiga ega. SHuningdek, ushbu intellektual datchikning yana bir afzallik tomoni shundaki, u analog signallarni diskret (raqamli) signallarga aylantirib beradi. Bu o'z novbatida kontrollerga qayta ishslash uchun bir qator qulayliklarni yaratadi va analog signallarni diskret signallarga aylantirish uchun qo'shimcha qurilmalarni ishlatishtdan ozod qiladi.



2.15- rasm ATT2200 rusumli temperatura intellektual datchiki

Maxsulot namligini nazorat qish uchun “Samfir” rusumli namlikni o’lchash asbobinidan foydalaniladi.



### **Samfir” rusumli namlikni o’lchash datchiki**

Ushbu datchik quyidagi xususiyatlarga ega;

- datchikning egiluvchanlik kirish yo’li: suyuklikni napor va sathini o’lchash;
- turli kirish yo’llari: 4-20 mA, raqamli signallar;
- bosimni o’lchashning katta diapazoni;
- o’lchashning yuqari aniqligi:  $\pm 0.04\% / 0,075\%$  shkalalar; • ko’rsatishning yuqori stabilligi;
  - temperatura bo’yicha avtomatik korrektirovka;
- turli parametrlarni o’rnatish imkoniyati: nol ,shkala va h.k.;

- o'z-o'zini diagnostika qilish funksiyasi;
- HART protokol bo'yicha raqamli aloqa;
- bajarish: portlashdan himoyalash qobig'i va uchqundan xavfsiz zanjir;
- suyuqkristalli display (5 belgili);
- shkalani sozlashning keng diapazoni (100 : 1);
- avariya holatini xabardor etish.


Avtomatlashtirish jarayonida boshqaruv ob'ektiga o'rnatilgan yana bir qurilma ijrochi mexanizm (IM) bo'lib hisoblanadi. Bunday qurilma sifatida pnevmatik yoki dvigatelli elektr ijrochi mexanizmini qo'llash mumkin. Ushbu mexanizm sozlagichli organning harakatga keltirish prinsipiga asoslanadi (sozlagichli organ sifatida vintel, klapan, shiber, siljitgich, kran va h.k. qatnashishi mumkin).

### **Generatorli datchiklar.**

**Generatorli datchiklar** rostlanayotgan parametrlar ta'sirida o'zlari proportsional E.Yu.K. lar hosil qiladi. Ular elektr energiyali manbaga ulanadi. Misollar: termoparalar, taxogenerator, pezoelektrik datchiklar, fotodiodlar va x.k.



Termojuft



P'ezoelektrik datchik



Magnitoinduksion datchik



Taxogenerator

Generatorli datchiklardan bir necha misollar ko'rib chiqaylik. Ulardan biri induksion datchik. Induksion datchiklar chiziqli yoki burchakli tezliklarni E.Yu.K. larga aylantirib berishi uchun xizmat qiladi. Ularni ishlash prinsipi elektromagnit induksiya qonuniga asoslangan. Induksion datchiklarning chiqish sinali E.Yu.K. bo'lib, uning kattaligi g'altak o'ramlarini kesib o'tayotgan magnit oqimining tezligiga proportsional. Induksion datchiklarni o'zgarmas magnit moydonidan foydalaniladi.

O'zgarmas magnit maydoni 2 usulda: o'zgarmas magnitlar yordamida va o'zgarmas tok o'tayotgan g'altaklarda hosil qilish mumkin

Bunday datchiklarga misol qilib toxageneratorlarni ko'rsatish mumkin. Ular kichik quvvatlari elektr mashinasi bo'lib aylanish tezligini o'lchash uchun ishlatilinadi. Toxgeneratori qo'zg'atish cho'lg'ami va yakordan iborat bo'lib, qo'zg'atish cho'lg'ami magnit maydonini hosil qiladi. Yakor qo'zg'aluvchan qisim bo'lib, u aylantirilganda, uning cho'lg'amlarida aylanish tezligi proportsional E.Yu.K. hosil bo'ladi:


$$E = k * f * n$$

bu erda  $k$  – mashinaning tuzilishiga bog'liq koeyfitsent,

$f$  – magnit oqimi,

$n$  – yakorning aylanish tezligi.

Toxagenerator sezgirligi yuqori ularning chiqish sinali katta quvvatga ega. Ularning kamchiligi chiqish siganali kattaligini yukning qarshiligidagi bog'liqligidadik.



2.16-rasm.Generatorli datchiklar


**Pezolektrik datchiklarning** ishlash prinsipi pezolektrik effektga asoslangan. Bu effekt ba'zi kristallarda (kvas, signet tuzi, titanat beri) kuzatiladi. Ularni ma'lum yo'naliishlarda mexanik kuch bilan siqilsa, uning qirralarida har xil ishorali elektr zarralari hosil bo'ladi. Pezolektrik datchiklar bosimni, vibratsiyalar, tezlanishlar kabi tezkor o'zgaruvchi kattaliklarni o'lchashda ishlatiladi. P'ezoeffekt kvars, turmalin, segnet tuzi, bariy titanat va boshqa moddalar kristallarida kuzatiladi. Bu tipdag'i asboblarda ko'pincha kvars ishlatiladi. Kvarsning p'ezo elektroeffekti  $+500^{\circ} \text{S}$  gacha bo'lgan temperaturaga bog'liq emas, lekin  $+570^{\circ} \text{S}$  dan oshgan temperaturada bu effekt nolga teng bo'lib qoladi.

Pezolektrik datchiklarning hosil qiladigan EYUK bosimiga proporsional bo'lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:  $U = \frac{a_0 F_x}{C}$

bu yerda – S - datchikning umumiyligini sig'imi

$F_x$  - mexanik bosim


$a_0$  - proporsionallik koeffitsiyenti



2.17-rasm. Pezolektrik datchikning sxemasi

Ushbu datchikning sezgirligi:  $K_d = \frac{\Delta U}{\Delta F}$

Ko'rib chiqilgan prinsipda pezolektrik manometrlar ishlaydi:



2.18-rasm. Pezolektrik manometrning sxemasi:

1-bosim membranasi, 2, 5-metall qistirmalar, 3-potensial qistirma,  
4-izolyatsion o'tkazgich, 6-sharik.

P'ezokvars manometrning tuzilish sxemasi 2.18-rasmda keltirilgan.


O'lchanayotgan bosim membrana 1 orqali kvars plastinkalar 7 ga ta'sir qiladi. Bu plastinkalarning metall kistirma 2 ga tegib turgan ichki tomonida bir hil ishorali zaryadlar paydo bo'ladi. Plastinkalarning ichki tomonidagi potensial qistirma 3 bilan ulangan va izolyatsiyalangan o'tkazgich 4 orqali olinadi, plastinkalarning ustki tomonidagi potensial esa korpus, metall qistirmalar 2 va 5, membrana 1 va sharik 6 orqali olinadi. O'lchanayotgan bosimga proporsional bo'lgan potensiallar farq plastinalardan olinib, kuchaytiruvchi lampa setkasiga uzatiladi.

### Fotoelektrik datchiklar

Fotoelektrik datchiklar guruxiga kiruvchi fotodiodlar va ventilli fotoelementlarning ish prinsipi ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan bo'ladi. Ichki fotoelektrik effekt urug'lik oqimi ta'sirida erkin elektronlar o'zining energetik holatini o'zgartirib, moddaning o'zida qolishi xodisasi bilan


xarakterlanadi. Bunda modda ichida ko'cha oladigan erkin zaryadlar hosil bo'ladi. Erkin zaryadlar modda ichida ko'chganda fotoelektr yurituvchi kuchlarni hosil qiladi (ichki fotoeffektli fotoelementlar shu prinsipda qurilgan) yoki elektr o'tkazuvchanlikni o'zgartiradi (fotoqarshiliklar shu prinsipda qurilgan). Ichki fotoeffektli fotoelementlar ko'pincha ventilli fotoelementlar deb ataladi. Selenli fotoelementlar eng ko'p tarqalgan fotoelementlar hisoblanadi.

Selenli fotoelementning tuzilishi va sxemasi 2.19 a-rasmida, uning xarakteristikasi esa 2.19, b-rasmida ko'rsatilgan.



2.19 -rasm

Yupqa oltin qatlami 1, berkituvchi qatlam 2, selenli qatlam 3 va po'lat taglik 4 dan iborat. Selenning oltin bilan chegarasida berkituvchi qatlam hosil bo'ladi; bu qatlam detektorlik xususiyatiga ega bo'lib, yorug'lik oqimi bilan urib chiqarilgan elektronlarning orqaga qaytishiga imkon bermaydi. Yorug'lik oqimi oltin qatlamidan o'tib, ventilli fotoeffekt hosil qiladi, shunda elektronlar yoritilgan qatlamdan yoritilmagan (izolyatsion berkituvchi qatlam bilan ajratilgan) qatlamga o'tadi.




**Fotodiodlar** yarim o'tkazgich asboblar turkumiga kirib, ichki fotoeffekt xodisasiga

asoslanib ishlaydi. Fotodiod ikki rejimda: generator va o'zgartirgich ishlashi mumkin. Fotodiot generator rejimda toshqi elektr manbaga ulanmaydi. Uning p-n o'tish yorug'lik nuri bilan yoritilganda, diodning uchlarida E.Yu.K. hosil bo'ladi. Fotodiod bu rejimda yorug'lik energiyasini bevositav elektr energiyasiga aylantirib beradi. Masalan, fotodioga  $8 \times 10^3$  lyuks yoritilganligi bilan tasir qilinganda uning uchlarida 0,1 V ga yaqin E.Yu.K. hosil bo'ladi.

Fotodiodlar (FD tiplarida) sezgi qatlamning material sirtida, kremniy, germaniy, selen igshlatilishi mumkin.


Fotodiod deb yarim o'tkazgichli fotoelement asbob bo'lib, bitta elektronkovakli o'tishga va ikkita chiqishga egadir. Fotodiodlar ikki xil rejimda ishlashi mumkin: 1) tashqi elektr energiya manbaiiz (fotogenerator rejimida); 2) tashqi elektr energiya manbai yordamida (fotoo'zgartgich rejimida).



2.20- rasm. Diodning tuzilishi

## Optoelektron datchiklar


**Optoelektron datchiklar** deb elektr signalini optik signalga (nur energiyasi) o'zgartiruvchi, bu energiyani indekatorlarga yoki fotoelektrik o'zgartkichlarga uzatuvchi asboblarga aytildi. Ko'p tarqalgan optoelektron asboblardan biri optrondir. Optron nurlanish manbasi va qabul qilgichdan tuzilgan bo'ladi. Bu ikkalasi bir korpusga joylashtirilgan va bir biri bilan optik va elektr bog'liklikka ega bo'ladi. Elektron qurilmalarni optronlar aloqa elementi funksiyasini bajaradi, bunda ma'lumot optik nurlar orqali uzatiladi. Buning hisobiga galvanik bog'lanish bo'lmaydi, va elektron uskunalarga salbiy ta'sir etuvchi qayta bog'lanishlar bo'lmaydi.



2.21-rasm. Optronni tuzilishi.

1-Chiqishlar; 2 - Fotoqabul qilgich; 3-Korpus; 4-Optik muhit; 5-Svetodiod.

Optronlar ma'lumot to'plash va saqlash qurilmalarida, registerlarda va hisoblash texnikasi qurilmalarida qo'llaniladi. Zamonaviy optoelektronlarda nur chiqaruvchi sifatida svetodiodlar, foto qabul qilgich sifatida esa fotorezistorlar, fototiristorlar qo'llaniladi. Qo'llanilgan foto qabul qilgich turiga qarab optronlar - fotorezistorli, fotodiodli, fototranzistorli va fototiristorlilarga bo'linadi.



2.22-rasm. Optronlaming shartli grafik belgilanishi.

- a) rezistorli; b) diodli; v) fototranzistorli g) fototiristorli Fotoelektrik asboblarni belgilash tizimi: Fotoelektron asboblar xarf-sonli kod bilan belgilanadi: - birinchi element xarflar; asbob guruxini bildiradi; fr- fotorezistorlar, fd- fotodiodlar;
- ikkinchi element harflar -asbobni tayyorlangan materialini ko'rsatadi; GO - germaniy, GB - germaniy, legirlangan brom; GZ - germaniy legirlangan oltingugurt bilan; GK - germaniy kremniyli birikma; K-kremniy; KG - kremniy legirlangan geliyli; RG- arsenidli galliy va x.k.
  - uchinchi element -001 dan 999 gacha sonlar ishlab chiqarish nomeri
  - to'rtinchi element - harf, yarim o'tkazgich fotoasboblar podgruppasini belgilaydi; u-Unipolyar fotorezistor, B - bipolyar fotorezistorlar, L - kuchkili fotodiodlar . Svsavl, FDGZ-001K - fotodiod, germaniyli, legirlangan oltingugurtli, ishlab chiqarilgan nomeri 001.

### **Termoelektrik datchiklar (termoparalar)**

Xaroratni o'lchashning termoelektrik usuli termoelektrik termometrning (termoparaning) termoelektrik yurituvchi kuchi (termo e.yu.k.) xaroratiga bog'likligiga asoslangan. Bu asbob  $-2000^{\circ}$  S dan  $2500^{\circ}$  S gacha bo'lgan xaroratlarni o'lchashda texnikaning turli sohalari va ilmiy tekshirish ishlarida keng qo'llaniladi. Termoelektrik termometrlar yordamida xaroratni o'lchash 1821 yilda Zeebek tomonidan kashf etilgan termoelektrik xodisalarga asoslangan. Bu xodisalarning xaroratlarni o'lchashda qo'llanilishi ikki hil metall simdan iborat zanjirda ularning kavsharlangan joyida xaroratlar farqi hisobiga hosil bo'ladigan E.Yu.K. effektidan iborat. T.E.Yu.K. hosil bo'lishining sababi erkin elektronlar zichligi kamroq metallga diffuziyasi bilan izoxlanadi. Shu

paytda ikki xil metallning birikish joyida paydo bo'ladigan elektr maydon diffuziyaga qarshilik ko'rsatadi. Elektronlarning diffuzion o'tish tezligi paydo bo'lgan elektr maydon ta'siridagi ularning qayta o'tish tezligiga teng bo'lganda xarakatli muvozanat holati o'rnatiladi. Bu muvozanatda A va V metallar orasida potensiallar ayirmasi paydo bo'ladi. Elektronlar diffuziyasining intensivligi o'tkazgichlar birikkan joyning xaroratiga ham bog'liq bo'lgani sababli birinchi va ikkinchi ulanmalarda hosil bo'lgan e.yu.k. ham turlicha bo'ladi.

Termoelektrik termometrlarni yaratish uchun ishlatiladigan termoelektrod materiallar bir qator xususiyatlarga ega bo'lishi shart, chunonchi: issiqqa chidamlilik va mexanikaviy mustaxkamlik; kimeviy inertlik; termoelektr bir xillik;

stabillik va termoelektr xarakteristikani tiklash; t.e.yu.k.ning temperaturaga bo'lgan (chiziqli xarakteristikasiga yaqin va bir ishorali) bog'lanishi; yuqori sezgirlik.


Termoparalarning quyidagi turlari mavjud:


1. Platinarodiy - platina termopara (TPP)- neytral va oksidlanadigan muxitda ishonchli ishlaydi, ammo tiklanish atmosferasida, ayniqsa, metall oksidlari termoparaga yaqin joylashgan yerda tez ishdan chiqadi. Metall bug'lari va uglerod (ayniqsa uning oksidi) platinaga zararli ta'sir ko'rsatadi.
2. Platinarodiy (30% - rodiy)- platinarodiy, (6% - rodiy) termopara (TPR-306 tip). Bu termoparalarning asosiy xususiyati  $1800^{\circ}\text{S}$  gacha temperaturani o'lchash va kichik t.e.yu.k. ga ega bo'lishdir.
3. Xromel - alyumel (TXA tip) termopara nodir bo'lмаган metallardan tayyorlangan termoparalar orasida eng turg'uni hisoblanadi. Musbat elektrodxromel (89% Ni; 9,8% Cr; 1% Fe; 0,2% Mn) qotishmadan, manfiy elektrod-almel esa (94% Ni; 2% Al; 2,5% Mn; 1% Si; 0,5% Fe) qotishmadan iborat. TXA termopara  $1300^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lgan temperaturani o'lchash uchun qo'llaniladi.

4. Xromel-kopel termopara (TXK)- turli muxitlarning temperaturasini o'lchash uchun ishlatiladi. Manfiy elektrod - kopel mis va nikel qotishmasidan (59% Cu; 44% Ni) iborat. TXK termopara  $800^{\circ}$  S gacha temperaturani o'lchash uchun ishlatiladi, uning t.e.yu.k. boshqa termoparalarnikiga qaraganda ancha katta.

5. NK - SA qotishmalaridan tayyorlangan (TNS tipidagi) termopara erkin uchining temperaturasiga tuzatish kiritishni talab qilmaydi, chunki  $200^{\circ}$  S gacha temperaturani o'lchaydigan termoparaning t.e.yu.k. amalda nolga teng. Yuqorigitemperatura chegarasi  $1000^{\circ}$  S. Platina gruppasidagi TPP va TPR termoparalari 0,5 yoki 1mm diametrda tayo'rланib, chinni munchoq yoki trubka bilan izolyatsiyalanadi. TXA, TXK va TNS termoparalar 0,7...3,2 mm diametrlik simdantayyorlanib, sopol munchoq bilan izolyatsiya qilinadi.

Mexanikaviy tayziq va o'lchanayotgan muxit ta'siridan saqlash uchun termopara elektrodi himoya armaturasi ichiga olinadi. Yuqorida aytilganidek, termopara bilan temperaturani o'lchash paytida termoparaning erkin uchlaridagi temperaturaning o'zgarishiga qarab tuzatish kiritiladi. Sanoatda avtomatik ravishda tuzatish kiritish uchun elektr ko'priksxemalar qo'llaniladi





2.23-rasm. Termoelektrik datchiklar (termoparalar) sxemalari.

### Transformatorlar ishlash prinsiplari.

Transformatorlar asosan elektr energiyasini elektr stansiiyalardan sanoat korxonalariga uzatib berish sistemalarida kuchlanishni o'zgartirish uchun ishlatiladi. Ma'lumki elektr energiyasi uzoq masofalarga yuqori kuchlanishda ueatiladi, shuning uchun liniyala energnya isroflari ancha kamayadi.

Elektr energiyasi iste'molchilar orasida taqsimlanadigan joylarda pasaytiruvchn transformatorlar o'rnatiladi: ular kuchlanishni talab qilinadigan darajagacha, masalan 6 kv gacha pasaytirib beradi va, nihoyat, elektr energiyasi iste'mol qilinadigan joylarda kuchlanish pasaytiruvchi transformatorlar vositasida yana 127, 220 yoki 380 v gacha kamaytiriladi va bevosita korxonalarining iste'molchilariga hamda turar joy binolariga beriladi. Bu asosiy ishlatilish sohasidan tashqarn, transformatorlar turli xil elektr qurilmalarda (isitish, payvandlash qurilmalari va boshqalar), radio, aloqa, avtomatika qurilmalarida va hokazolarda foydalaniлади.

Transformatorlar ishlatalish joyiga qarab umumiy maqsadlar uchun ishlataladigan kuch transformatorlari bilan maxsus kuch transformtorlariga bo'linadi. Umumiy maqsadlarda ishlataladigan kuch transformatorlaridan elektr energiyasmini uzatish va taqsimlash sistemalarida kuchaytiruvchi yoki pasaytiruvchi transformator sifatida foydalaniladi.

Maxsus transformatorlarga quyidagilar: maxsus maqsadlarda ishlataladigan kuch tramsformatorlari (pech transformatorlari, to'g'rilaqch transformatorlari, payvandlash transformatorlari, radiotransformatorlar), avtotransformatorlar, o'lchov va sinov transformatorlari, chastotani o'zgartirish uchun ishlataladigan transformatorlar va boshqalar kiradi.

Transformatorlar bir fazali va ko'p fazali bo'ladi, ko'p fazali transformatorlar orasida uchfazali transformatorlar eng ko'p ishlataladi. Bundan tashqarn, transformator ikki chulg'amli (har qaysi fazasida ikkita chulg'am bo'ladi) va ko'p chulg'amli (har qaysi fazasida ikkitadan ortiq chulg'am bo'ladi) bo'lishi mumkin.

Sovitilish usuliga qarab transformatorlar moyli (moyga botirilgan) va quruq(havo bilan sovitiladigan) transformatorlarga bo'linadi. Lekin, transformatorlarning tiplari juda turli-tuman bo'lishiga qaramasdan, ishslash prinsipi va ularda sodir bo'ladigan fizikaviy protsesslar asosan bnr xildir. SHunnng uchun transformatorning ishslashini transformagorning asosiy tipi misolida ko'rib chiqish lozim; asosiy tip sifatida ikki chulg'amli kuch transformatori qabul qilingan.


### **Aylanuvchi transformatorlar**

Aylanuvchi transformatorlar – bu mexanik siljish(rotoring α burilish burchagi)ni elektr signali, ya'ni chiqish kuchlanishi U ga o'zgartirib beruvchi eng ko'p tarqalgan elektrik mashina bo'lib, chiqish kuchlanishi rotoring burilish burchagiga funksional ravishda bog'liqdir.

Konstruktiv jihatdan aylanuvchi transformatorlar juda ham turli ko'rinishlarga ega, lekin hozirgi vaqtda eng ko'p tarqalgani ikki qutbli

aylanuvchi transformatorlar bo'lib, ikki fazali kontaktli halqalarga ega asinxron dvigatel singari yasalgan. Bunday aylanuvchi transformatorlarning stator va rotorining paketlari bir-biridan mahkam izolyatsiyalangan elektrotexnik po'lat listlardan tayyorlangan. Stator va rotoring yarimyopiq pazlarida ikki fazali cho'lg'amlar joylashgan, cho'lg'amlarning o'qlari bir-biriga nisbatan  $90^\circ$  ga surilgan (10.1-rasm). Odatda statoring ikkala S va L cho'lg'amlari bir xil o'ramlar soniga ( $W_s = WK$ ) va bir xil aktiv R va reaktiv X qarshiliklarga ega. Rotoring A va B cho'lg'amlari ham bir xil qilinadi ( $WA = WB; RA = RB; XA = XB$ ).

Ko'pchilik aylanuvchi transformatorlarda rotor cho'lg'amlarining uchlari kontaktli halqalarga chiqariladi, bu kontaktli halqalar orqali cho'tkalar ulanadi. Halqa va cho'tkalar kumush qotishmalardan yasalgan. Rotorining burilish burchagi cheklangan holda ishlashga mo'ljallanganba'zi aylanuvchi transformatorlarda halqa va cho'tkalar latundan yasalgan elastik spiralsimon prujinalar bilan almashtiriladi.



2.2 4-rasm. Aylanuvchi transformator.

Aylanuvchi transformatorning o'ziga xos xususiyati shuki, ularda birlamchi(stator) va ikkilamchi(rotor) cho'lg'amlari orasidagi induktivlik rotor  $\alpha$

burchakka burilganda ushbu burchakka bog'liq xolda sinusoidal(yoki kosinusoidal) qonun bo'yicha o'zgaradi, ayrim hollarda α ikkilamchi cho'lg'amlar EYuKsi amplitudasini aynan shu o'zgarish qonunini ta'minlaydi.

Rotor burilishining qaysi burchak funksiyasi chiqish kuchlanishi U bo'lishiga bog'liq holda quyidagi aylanuvchi transformatorlarga bo'linadi: sinusli (SAT) —  $U = U_{max} \sin \alpha$ , bu yerda  $U_{max}$  — maksimal chiqish kuchlanishi. sinusno-kosinusli (SKAT) —  $U_A = U_{max} \sin \alpha; U_B = U_{max} \cos \alpha$ ; chiziqli (ChAT) —  $U = k\alpha$ , bu yerda  $k = \text{const.}$


### Selsinlar

Zamonaviy texnikada bir-biridan juda uzoq masofalarda joylashgan va o'zaro mexanik bog'lanmagan mexanizmlar o'qlarining sinxron aylanish yoki burilishiga juda ko'plab zarurat paydo bo'lmoqda. Bu masala ko'proq sinxron aloqa elektr tizimlari yordamida yechiladi.

Sinxron aloqa hisoblangan bunday elektr aloqa bir-biridan masofada joylashgan ikki yoki bir nechta mexanik bog'lanmagan mexanizm o'qlarini bir vaqtida aylanishini yoki burilishini ta'minlaydi. Texnikada sinxron aloqa tizimlarining ikkita asosiy ko'rinishi ko'p tarqalgan: elektrik val(sinxron aylanish) tizimi va burcha uzatish(sinxron burilish) tizimi.


Sinxron aylanish tizimlari qarshilikning katta momentlariga ega bo'lган bir-biridan masofada joylashgan mexanizm o'qlarini sinxron aylanishini amalga oshirish talab etilgan joylarda qo'llaniladi. Sinxron aylanishlar oddiy elektr mashinalar, ko'proq uch fazali asinxron dvigatellar yordamida amalga oshadi. Bunday holatda dvigatellar rotorlarining cho'lg'amlari bir-biri bilan bog'langan bo'ladi, statorlar cho'lg'amlari uch fazali tok tarmog'idan ta'minlanadi.

Sinxron burilish tizimlari masofadan boshqarish, rostlash yoki nazorat qilish uchun qo'llaniladi. Ko'proq sinxron burilish uncha katta bo'lмаган induksion elektr mashinalari – uch fazali yoki bir fazali selsinlar yordamida amalga oshiriladi.



2.25-rasm.Selsin datchik va selsin qabulovchi.

Sistemada kirish ta'siri topshiriq beruvchi val  $Q_1(t)$  ning burilish burchagi hisoblanadi, chiqish kattaligini esa ish bajaruvchi val  $Q_2(t)$  ning burilish burchagi hisoblanadi.



2.26- rasm. Sistemaning funksional sxemasi.

Topshiriq beruvchi val burilish burchagi bilan ish bajaruvchi val burilish burchagi orasidagi farq burchak har xilligi yoki kuzatuvchi sistema  $Q(t)$  ning xatoligi anqlanadi.

$$Q(t) = Q_1(t) - Q_2(t)$$


O'lchovchi qurilma kirish va chiqish kattaliklari  $Q_1(t)$  va  $Q_2(t)$  ni taqqoslash, har xillik burchagi  $Q(t)$  ni elektrik signal  $U_q$  ga aylantirish uchun hizmat qiladi. Signal kuchaytiruvchi o'zgartiruvchi qurilma Kirishi beriladi, bu erda uni kuchaytirish va ijro etuvchi qurilmaga ta'sir qilish uchun qulay bo'lgan formaga aylantiriladi. Kuchaytiruvchi sistemalarda o'lchovchi qurilma sifatida transformator rejimidagi selsin, potensiometr, aylantiruvchi transformatorlar va boshqa elementlar qo'llaniladi. Kuchaytiruvchi o'zgartiruvchi qurilmalar sifatida magnit, elektron, yarimo'tkazgich, elektromashinali, releli va boshqa qurilmalar qo'llaniladi.

Ish bajaruvchi qurilma sifatida doimiy va o'zgaruvchan tok dvigateli, induksion muftalar va boshqalar qo'llaniladi.

Har bir element yoki umuman sistema uchun kirish kattaligi  $X_{kir}$  va chiqish kattaligi  $X_{chiq}$  orasidagi bog'liqlik xarkterli hisoblanadi.

Bu bog'liqlik dinamika tenglamasi bilan ifodalanishi mumkin, qaror topgan rejimda esa doimiy ta'sirlarda statik tenglama bilan ifodalanadi

Ijro etuvchi doimiy tok dvigateli bo'lgan kuzatuvchi sistemaning prinsipial sxemasi:



2.27-rasm. Selsin-datchig va selsin-qabulovchi.

O'lchash qurilmasi sifatida hamma maketlarda transformator rejimida ishlovchi selsinlar ishlatilgan. Selsinli o'lchash sxemasi selsin-datchigi SD va selsin-qabul qilgich SP dan tashkil topgan. Selsin-datchikning bir fazali

cho'lg'ami tok manbaiga ulangan. Selsin datchikning va selsin-qabul qilgichning uch fazali cho'lg'ami o'zaro bir-biri bilan ulanadi. Selsin qabul qilgichning bir fazali cho'lg'ami kuchaytirgichning birinchi kaskadi kirish transformatoriga ulanadi. Selsin-qabul qiluvchi rotori reduktor orqali mexanik ravishda ijro etuvchi dvigatel vali bilan ulanadi. Selsin-qabul qiluvchining bir fazali cho'lg'amidagi kuchlanish  $U_0$  burchak  $Q$  ning o'zgarishiga bog'liq holda o'zgaradi.

$$U_Q = U_m * \sin Q * \sin W_n t,$$

bu erda  $Q = Q_1 - Q_2$ ;  $U_m$  – sinxronizatsiyaning maksimal kuchlanishi,  $W_n$  – tok manbai chastotasi. Burchak har xilligining kichik qiymatlari ( $Q=10^\circ$ ) da o'lchovchi sxema chiqishidagi kuchlanish kattaligi  $Q$  ga proporsional ravishda o'zgaradi deb qabul qilish mumkin, ya'ni

$$U_Q = K_Q * Q$$

bu erda  $K_Q$  – selsin sxemasini o'zgartirish koeffitsienti, u  $U_Q = f(Q)$  o'lchanuvchi sxema boshlang'ich uchastkasida statik xarakteristikasidan aniqlanadi.

Kuchaytiruvchi-o'zgartiruvchi qurilmalar bir necha ijro etishga ega. Bir xil maketlarda dastlabki kaskad sifatida elektronli fazasezuvchan kuchaytirgich to'g'rilaqich qo'llanilgan, quvvat kuchaytirgichi sifatida elektromashinali kuchaytirgich qo'llanilgan, uning chiqishiga DPT boshqarish yakor cho'lg'amiga ulangan. Boshqa maketda dastlabki kaskad sifatida va quvvatni kuchaytiruvchi kaskad sifatida bitta o'zgaruvchan tok kuchaytirgichi qo'llanilgan. Uning chiqishiga asinxron dvigateli boshqaruvchi cho'lg'am ulangan. Elemenlar va umuman sistemaning statik xarakteristikasini olish uchun stendlarda o'lchovchi apparatura mavjud. O'lchovchi qurilma, kuchaytiruvchi-o'zgartiruvchi qurilma va dvigatelning statik xarakteristikalar olish uchun ochiq sistemaning sxemasi yig'iladi. Selsin-datchikning rotorini burab, selsin-qabul qilgichning chiqishidagi kuchlanishni noldan mumkin bo'lgan maksimal qiymatgacha o'zgartirish mumkin, shuningdek eltuvchi chastota kuchlanishning fazasini  $180^\circ$  gacha o'zgrirish mumkin. Xarakteristikani olishdan oldin ochiq

sistema sxemasi shunday holda simmetriyalashishi kerakki, selsin qabul qilgichning minimal kuchlanishida, kuchaytirgich chiqishida kuchlanish bo’lmasligi kerak.

O’lchovchi qurilmaning statik xarakteristikasi selsin-qabul qilgichning bir fazali cho’lg’amidagi kuchlanish  $U_Q$  bilan burchak har xilligi  $Q$  orasidagi bog’liqlik bilan ifodalanidi va burchak har xilligi  $Q$   $0^\circ$  dan to  $180^\circ$  gacha o’zgarganda o’lchovchi sxema chiqishidagi yuklamani hisobga olgan holda olinadi. Selsin sxemaning kelishilgan holati deb shunday holat olinadiki, bunda selsin qabul qiluvchisining bir fazali cho’lg’amidagi kuchlanish  $U_Q$  qoldiq kompensatsiyalanmaydigan kuchlanish hisobiga mumkin bo’lgan minimal qiymatga ega bo’ladi. Bir vaqtning o’zida  $U_u=f(U_Q)$  bog’liqlik ham olinadi.

Burchak har xilligi  $Q$  selsin-datchigi rotorini selsin-qabul qiluvchi rotor harakatsiz bo’lganda burish yo’li bilan beriladi va bevosita selsin-datchik validagi shkala bo’yicha o’lchanadi.

Ijro etuvchi dvigatel tezligi  $\Omega$  rostlovchi xarakteristika tenglamasidan aniqlanadi. O’lchovchi qurilma va kuchaytirgichning statik xaracteristikalarini olish uchun chiqish kattaligi kirish kattaligiga proporsional ravishda o’zgaradigan taxminiy diapazonni aniqlash lozim.

Xatolikni topish uchun selsin-datchigi (SD) va selsin qabul qiluvchi (SQQ) vallarida strelkalar o’rnatilgan, ular graduslarda belgilangan xarakatlamaydigan disklar atrofida buriladi.

## ***II-bob bo'yicha nazorat savollari***

1. Datchik deb nimaga aytildi ?
2. Datchikning asosiy vazifasini tushuntiring ?
3. Datchiknik tavsifnomalari qanday olinadi
4. Datchikning asosiy turlari nechta ?
5. Ko‘mirli datchikni ishlashini tushuntiring
6. Patensiometrik datchikni ishlashini tushuntiring

7. Sig‘imli datchikni ishlashini tushuntiring
8. Generatorli o’zgartgichlar haqida umumiylumot bering?
9. Termoelektrik o’zgartgichlarishlatilish soxasi?
10. Induksion o’zgartgichlarishlash prinsipi?
11. Fotoelektrik o’zgartgichlar tuzilishi?
12. Aylanuvchi transformatorlar qanday qurilma?
13. Selsin datchik va selsin premniklarni ishlash rejimlarini tushuntiring.
14. Datchiklarni elementar o’zgartirgichlar sifatida ulanish sxemalari qanday?

### **III-BOB. BOSHQARISH SISTEMALARI KUCHAYTIRGICHLARI.**

#### **3.1. Kuchytirgichlarni sinflanishi,tavsiflari. Kuchytirgichlarda teskari aloqalar.**

Avtomatik qurilmalardan ko’pincha datchiklardan keladigan signallar quvvati rostlanuvchi miqdorlarni ko’rsatilgan darajada ushlab turish uchun qo’llaniladigan rostlovchi qurilmalar boshqarish uchun yetarli bo’lmaydi. Bunday hollarda kuchsiz signallarni kuchaytirish uchun kuchytirgichlardan foydalilanadi.

**Kuchaytirgich**–deb, kirish signali uni kurinishi va fizik tabiatini o’zgartirmagan holda, kuchaytirish uchun qo’llaniladigan qurilmaga aytildi. Quvvat bo'yicha signalni kuchaytirish tashqi manbaa energiyasi evaziga boshqariladi

Avtomatik boshqarish sistemalari, radiotexnika, radiolokasiya va boshqa sistemalarda kichik quvvatlari signallarni kuchaytirish uchun kuchytirgichlardan foydalilanadi. Kichik quvvatlari o’zgaruvchan signalning parametrlarini buzmasdan doimiy kuchlanish manbaining quvvati hisobiga kuchaytirib beruvchi qurilma kuchaytirgich deb ataladi.


Kuchaytirgich qurilmasi kuchaytiruvchi element, tranzistor, rezistor, kondensator, chiqish zanjiridagi doimiy kuchlanish manbai, hamda iste`molchidan iborat. Bitta kuchaytiruvchi elementi bo`lgan zanjir kaskad deb ataladi. Kuchaytiruvchi element sifatida qanday element ishlatalishiga qarab kuchaytirgichlar elektron, magnitli va boshqa xillarga bo`linadi. Ish rejimiga ko`ra ular chiziqli va nochiziqli kuchaytirgichlarga bo`linadi. Chiziqli ish rejimida ishlovchi kuchaytirgichlar kirish signalini uning shaklini o`zgartirmasdan kuchaytirib beradi. Chiziqli bo`lmagan ish rejimida ishlovchi kuchaytirgichlarda esa kirish signali ma`lum qiymatga erishganidan so`ng chiqishdagi signal o`zgarmaydi.

Chiziqli rejimda ishlaydigan kuchaytirgichlarning asosiy harakteristikasi amplituda chastota harakteristikasi ( $AChX$ ) dir. Ushbu harakteristika kuchlanish bo`yicha kuchaytirish koeffisientining moduli chastotaga qanday bog`liqligini ko`rsatadi.  $AChX$  siga ko`ra chiziqli kuchaytirgichlar tovush chastotalar kuchaytirgichi ( $TChK$ ), quyi chastotalar kuchaytirgichi, ( $QChK$ ), yuqori chastotalar kuchaytirgichi ( $YuChK$ ). Sekin o`zgaruvchan signal kuchaytirgichi yoki o`zgarmas tok kuchaytirgichi ( $O'TK$ ) va boshqalarga bo`linadi. Avtomatik qurilmada turli kuchaytirgichlar qo'llaniladi: elektrik (*Magnitli, elektron, yarimo'tkazgichli, elektr mashinali*) va noelektik (*gidravlik, pnevmatik, mexaniq*) va boshqalar. Kuchaytirgichlar ishini asosiy ko`rsatkichlariga quyidagilar kiradi: kuchaytirish koeffitsenti, sezgirlik va foydali ish koeffitsenti. Kuchaytirgichlarni quvvat bo`yicha *kuchaytirish koeffitsenti* – deb uni chiqish quvvati miqdori ( $R_{chik}$ ) ni, kirish kuvvati mikdori ( $R_{kir}$ ) ga nisbatiga aytildi. Kuchaytirgichlarni tok va kuchlanishlar miqdorlari bo`yicha kuchaytirish koeffitsentlari:

$$K_p = \frac{P_{\kappaup}}{P_{\kappauk}}; \quad K_I = \frac{I_{\kappauk}}{I_{\kappaup}}; \quad K_U = \frac{U_{\kappauk}}{U_{\kappaup}}$$

Sezgirlik kuchaytirgichlarni kichik signallarni qabul qilib ularni kuchaytirish qobiliyatidir. Foydali ish koeffitsenti – kuchaytirgichni chiqish signali quvvatini manbaa quvvatiga nisbatidir.


$$\eta = \frac{P_{uu}}{P_{\text{манбада}}}$$



3.1-rasm. Avtomatik boshqarish tizimi elementlarining funksional sxemalari: a – passiv element(E); b – aktiv element (kuchaytirgich); v – teskari aloqali element(TA). Kuchaytirgichlarga quyiladigan talablar: kuchaytirilgan signal quvvati yuqori, inersionligi kam, sezgirligi yuqori va statik tavsifi tugri chiziqli bo’lishi kerak. Quyida elektrik signal kuchaytirgichlarning bir necha turi keltirilgan.

### Magnit signal kuchaytirgichlar

**Magnit signal kuchaytirgichlarni** ishlashi ishchi chulg’am induktivliginingo’zakni o’zgarmas tok orqali magnitlashga bog’liqligiga asoslangan. Quyida 3.2.rasmda soddalashtirilgan magnit kuchaytirgichsxemasi berilgan. U uchsterjenli po’lat o’zakdan, boshqarish chulg’ami  $W_b$  ham da ishchi chulg’ami  $W_{ish}$ dan iborat.



3.2.-rasm. (a) Magnit kuchaytirgich sxemasi va (b) yuklama tokini boshqarish tokiga bog’liqligi

3.2. (b)-rasmida yuklamadagi tok kuchi ( $I_{yuk}$ )ni boshqaruvcho`lg`amidagi toki ( $I_b$ )ga bog`liqligi aksettirilgan. Boshqaruv cho`lg`amidagi tok  $I_b$ ni o`zgarishi yuklamadan tok  $I_{yuk}$ ni o`zgarishiga olib keladi. Tok  $I_b$ ni ortib borishi esa magnitlovchi maydonni kuchaytiradi, magnit o`tkazuvchanlik va induktivlik esa kamayadi. Natijada yuklama zanjiridato`la qarshilik kamayib tok  $I_{yuk}$ ni ortishiga sabab bo`ladi. Boshqarish chulg`ami o`zgarmas tok manbaasiga ulanadi va u o`zakni magnitlash uchun kerak. Ishchi chulg`amlar va yuklama o`zgaruvchi tok tarmogiga ketma-ket qilib ulanadi. Uzgaruvchan tok kuchlanishi va aktivqarshilik R o`zgarmaganda yuklamadagi tok zanjirini induktivqarshiligi  $X_L$

ga bog`liq bo`ladi, ya`ni

$$I_{\text{io}} = \frac{U}{\sqrt{R^2 + X_L^2}}$$

Induktiv qarshilik esa o`zgaruvchan tok burchak chastotasi ( $\omega$ ) ham da chulg`am induktivligi  $L$ ga boglik, ya`ni  $X=\omega L$ .


Induktivlikni quyidagi formuladan topish mumkin:

$L=4\pi I 10^{-7} W^2 S/L \cdot \mu$ ; bunda  $W$ -chulg`amlar soni:  $S$ -o`zak kesim yuzasi,  $m^2$   $L$ -po`lat o`zakni o`rtacha uzunligi,  $m$ ;  $\mu$ -magnit o`tkazuvchanlik. Bu formuladan ko`rinib turibdiki, induktivlik magnit o`tkazuvchanlikka to`gri proportsional ekan. 3.1. b)-rasmida yuklamadagi tok kuchi ( $I_{yuk}$ ) ni boshqaruv cho`lgamidagi tok ( $I_b$ ) ga boglikligi aks ettirilgan. Boshqaruv chulg`amidagi tok  $I_b$ ni o`zgarishi yuklamadan tok  $I_{yuk}$  ni o`zgarishiga olib keladi. Tok  $I_b$ ni ortib borishi esa magnitlovchi maydonni kuchaytiradi, magnit o`tkazuvchanlik va induktivlik esa kamayadi. Natijada yuklama zanjiridagi to`la qarshilik kamayib tok  $I_{yuk}$  ni ortishiga sabab bo`ladi. Magnitli kuchaytirgichlarni afzalligi ularni sodda tuzilishiga ega ekanlidir.

### 3.2. Yarim o`tkazgichli kuchaytirgichlar

*Yarim o`tkazgichli kuchaytirgichlary* yarim o`tkazgichli triodlardan, ya`ni tranzistorlardan tuziladi. Tranzistorli kuchaytirgichsxemasi umumiyelektrod belgilari bo`yicha, ya`ni bir vaqtida kirish va chiqish elektrodlari xisoblanganligi


bo'yicha turlanadilar. Yarim o'tkazgichli kuchaytirgichlarelektron kuchaytirgichlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lganligi tufayli ular ko'p holatlarda elektron kuchaytirgichlarni siqib chiqaradi. Tranzistorli kuchaytirgichlar ixcham, engil, mustaxkam, ishlash muddati uzoq ham da o`zenergiyasarfiga ega bo'lganligi tufayli ular xozirgi kunda ko'pqo'llanilmoxda. Tranzistorlarni ishlashi ikki turli yarim o'tkazgichlardan tuzilgan yarim o'tkazgichli asboblarni signal kuchaytirish xossasiga asoslangan. 3.3-rasmda tranzistorli kuchaytirgichlarni ulanishlar sxemasi ko'rsatilgan.



3.3 –rasm. Tranzistorli kuchaytirgichni ulanish sxemasi

Tokni bir xil qiymatida kollektor zanjiridagi kuchlanish va quvvat kollektor qarshiligi necha marta bo'lsa shuncha marta ko'p bo'ladi. Tranzistorli kuchaytirgichlarni kamchiligi ularni parametrlari va ish qobiliyatini tashqi muxit har oratiga bogliqligidir.

**Yarimo 'tkazgichli kuchaytirgichlar** elektron kuchaytirgichlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lganligi tufayli ular ko'p holatlarda elektron kuchaytirgichlarni siqib chiqaradi. Tranzistorli kuchaytirgich sxemasi umumiylar belgilari bo'yicha, ya'ni bir vaqtida kirish va chiqish elektrodlari hisoblanganligi bo'yicha turlanadilar. 3.4-rasmda umumiylar bazali (a), umumiylar emitterli (b) va umumiylar kolektorli (c) tranzistorli kuchaytirgichlar berilgan.



3.4-rasm Yarimo'tkazgichli kuchaytirgichlar


Umumiy bazali kuchaytirgichlar kuchlanishni, umumiy kollektorli kuchaytirgichlar tokni, umumiy emitterli kuchaytirgichlar esa quvvatni kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Tranzistorli kuchaytirgichlarni kamchiligi ularni parametrlarini va ish qobilyatini tashqi muxit xaroratiga bog'liqligidir. Tranzistorli kuchaytirgichlarni kamchiligi ularni parametrlarini va ish qobilyatini tashqi muhit haroratiga bog'liqligidir.

**Quyi chastotali kuchaytirgich.** Hozirgi vaqtida eng keng tarqalgan kuchaytirgichlarda kuchaytiruvchi element sifatida ikki qutbli yoki bir qutbli tranzistorlar ishlatiladi. Kuchaytirish quyidagicha amalga oshiriladi. Boshqariladigan element (tranzistor) ning kirish zanjiriga kirish signalining kuchlanishi ( $U_{KIR}$ ) beriladi. Bu kuchlanish ta'sirida kirish zanjirida kirish toki hosil bo'ladi. Bu kichik kirish toki chiqish zanjirdagi tokda o'zgaruvchan tashkil etuvchini, hamda boshqariladigan elementning chiqish zanjirida kirish zanjiridagi kuchlanishdan ancha katta bo'lgan o'zgaruvchan kuchlanishi hosil qiladi. Boshqariladigan elementning kirish zanjiridagi tokning chiqish zanjiridagi tokka ta'siri qancha katta bo'lsa, kuchaytirish xususiyati shuncha kuchlirok bo'ladi. Bundan tashqari, chiqish tokining chiqish kuchlanishiga ta'siri qancha katta bo'lsa (ya`ni  $R_I$  katta), kuchaytirish shuncha kuchliroq bo'ladi.

3.5-rasmda umumiy emitterli (UE) kuchaytirish kaskadining sxemasi, hamda kirish va chiqish harakteristikalari ko'rsatilgan. Kuchaytirish kaskadlari


UE, UB, UK sxemalar bo'yicha yig'iladi. Umumiy kollektorli (UK) sxema tok va quvvat bo'yicha kuchaytirish imkoniyatiga ega, bunda  $R_u < 1$ .

Sxema asosli, kaskadning yuqori chiqish qarshiligidni kichik qarshilikli iste'molchi bilan moslash uchun ishlataladi va emitterli takrorlagich deb ataladi. Umumiy bazali (UB) sxema bo'yicha yig'ilgan kaskadning kirish qarshiligi kichik bo'lib, kuchlanish va quvvat bo'yicha kuchaytirish imkoniyatiga ega. Bunda  $K_i < 1$ . Chiqishdagi kuchlanishning qiymati katta bo'lishi talab etilganda, mazkur kaskaddan foydalilaniladi.




PowerSIP

PSOP



a)



3.5– rasm. Umumiy emitterli (UE) kuchaytirish kaskadining sxemasi

Ko'pincha, umumiy emitterli (UE) sxema bo'yicha yig'ilgan kaskadlar ishlataladi (3.5 a- rasm). Bunday kaskad tokni ham, kuchlanishni ham kuchaytirish imkoniyatiga ega. Kuchaytirish kaskadining asosiy zanjiri tranzistor (VT), qarshilik  $R_K$  va manba  $E_K$  dan iborat. Qolgan elementlar yordamchi sifatida ishlataladi.  $C_1$  kondensator kirish signalining o'zgarmas tashkil etuvchisini o'tkazmaydi va bazaning tinch holatidagi  $U_{bd}$  kuchlanishning  $R_G$  qarshilikka bog'liq emasligini ta'minlaydn. Kondensator  $S_2$  iste`molchi zanjiriga chiqish kuchlanishining doimiy tashkil etuvchisini o'tkazmay o'zgaruvchan tashkil etuvchisinigina o'tkazish uchun xizmat qiladi.  $R_1$  va  $R_2$  rezistorlar kuchlanish bo'lgich vazifasini o'tab, kaskadning boshlang'ich holatini ta'minlab beradi.

Kollektorning dastlabki toki ( $I_{KD}$ ) bazaning dastlabkn toki  $I_{bd}$ , bilan aniqlanadi. Rezistor  $R_i$  tok  $I_{bd}$  ning o'tish zanjirini hosil qiladi va rezistor  $R_2$  bilan birgalikda manba kuchlanishining musbat qutbi bilan baza orasidagi kuchlannsh  $U_{bd}$  ni yuzaga keltiradi.

Rezistor  $R_E$  manfiy teskari bog'lanish elementi bo'lib, dastlabki rejimning temperatura o'zgarishiga bog'liq bo'lmasligini ta'minlaydi. Kaskadning kuchaytirish koeffisienti kamayib ketmasligi uchun qarshilik  $R_E$  ga parallel` qilib kondensatrr  $S_E$  ulanadi. Kondensator  $S_E$  rezistor  $R_E$  ni o'zgaruvchan tok bo'yicha shuntlaydi.

Sinusoidal o'zgaruvchi kuchlanish ( $U_{kir}=U_{kir,max} \sin \omega t$ ) kondensator S orqali baza - emitter sohasiga beriladi. Bu kuchlanish ta'sirida, boshlang'ich

baza toki  $I_{bd}$  atrofida o'zgaruvchan baza toki hosil bo'ladi.  $I_{bd}$  ning qiymati o'zgarmas manba kuchlanishi  $E_K$  va qarshilik  $R_1$  ga bog'liq bo'lib, bir necha mikroamperni tashkil qiladi. Berilayotgan signalning o'zgarish qonuniga bo'ysunadigan baza toki iste`molchi ( $I_{bd}$ ) dan o'tayotgan kollektor tokining ham shu qonun bo'yicha o'zgarishiga olib keladi. Kollektor toki bir necha milliamperga teng. Kollektor tokining o'zgaruvchan tashkil etuvchisi iste`molchida amplituda jihatdan kuchaytirilgan kuchlanish pasayuvi  $U_{ChIQ}$  ni hosil qiladi. Kirish kuchlanishi bir necha millivol`tni tashkil etsa, chiqishdagi kuchlanish bir necha vol`tga tengdir. Kaskadning ishini grafik usulda tahlil qilish mumkin. Tranzistorning chiqish harakteristikasida AV nagruzka chizig'ini o'tkazamiz (3.6,b- rasm). Bu chiziq  $U_{KE}=E_K$ ,  $I_K=0$  va  $U_{KE}=0$ ,  $I_K=E_I/R_I$  koordinatali A va V nuqtalardan o'tadi. AV chiziq  $I_{Kmax}$ ,  $U_{Kmax}$  va  $R_K=U_{Kmax}/I_{Kmax}$  bilan chegaralangan sohaning chap tomonida joylashishi kerak. AV chiziq chiqish harakteristikasini kesib o'tadigan qismda ish uchastkasini tanlaymiz. Ish uchastkasida signal eng kam buzilishlar bilan kuchaytirilishi kerak. Nagruzka chizig'ining S va D nuqtalar bilan chegaralangan qismi bu shartga javob beradi. Ish nuqtasi O, shu uchastkaning o'rtasida joylashadi. DO kesmaning abssissalar o'qidagi proeksiyasi kollektor kuchlanishi o'zgaruvchan tashkil etuvchisining amplitudasini bildiradn. SO kesmaning ordinatalar o'qidagi proeksiyasi kollektor tokining amplitudasini bildiradi. Boshlang'ich kollektor toki ( $I_{KO}$ ) va kuchlanishi ( $U_{KEO}$ ) O nuqtaning proeksiyalari bilan aniqlanadi. Shuningdek, O nuqta boshlang'ich tok  $I_{bO}$  va kirish harakteristikasidagi O ish nuqtasini aniqlab beradi. Chiqish harakteristikasidagi S va D nuqtalarga kirish harakteristikasidagi S' va D' nuqtalar mos keladi. Bu nuqtalar kirish signalining buzilmasdan kuchaytiriladigan chegarasini aniqlab beradi.

### Kaskadning chiqish kuchlanishi

$$u_{ChIK}=i_K R_I$$

### Kaskadning kirish kuchlanishi

$$U_{KIR}=i_b R_{KIR}$$

bu erda  $R_{KIR}$  - tranzistorning kirish qarshiligi.

Tok  $i_l \leftarrow i_b$  qarshilik  $R_l \leftarrow R_{kir}$  bo'lgani uchun sxemanng chiqishidagi kuchlanish kirish kuchlanishidan ancha kattadir. Kuchaytirgichning kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koefisient  $K_u$  quyidagicha aniqlanadi:

$$K_u = \frac{U_{chiqmax}}{U_{kirmmax}}$$

yoki garmonik signallar uchun

$$K_u = \frac{U_{chiq}}{U_{kir}}$$

Kaskadning tok bo'yicha kuchaytirish koefisienti:

$$K_i = \frac{I_{chiq}}{I_{kir}}$$

bu erda  $I_{Chiq}$  - kaskadning chiqish tomonidagi tokning qiymati;  $I_{KIR}$  - kaskadning kirish tomonidagi tokning qiymati. Kuchaytirgichning quvvat bo'yicha kuchaytirish koefisienti:

$$K_P = \frac{P_{chiq}}{P_{kir}}$$

bu erda  $R_{Chiq}$  - iste`molchiga beriladigan quvvat;  $R_{KIR}$  – kuchaytirgichning kirish tomonidagi quvvat.

Kuchaytirish texnikasida bu koefisientlar logarifmik qiymat desibellda (amerikalik injener Bell sharafiga qo'yilgan) o'lchanadi.

$$K_u(dB) = 20 \lg K_u \quad yoki \quad K_u = 10 \frac{K_u(\Delta B)}{2}$$

$$K_i(dB) = 20 \lg K_i \quad yoki \quad K_i = 10 \frac{K_i(\Delta B)}{2}$$

$$K_P(dB) = 20 \lg K_P \quad yoki \quad K_P = 10 \frac{K_P(\Delta B)}{2}$$

Odamning eshitish sezgirligi signalning 1dB o'zgarishini ajrata olgani uchun ham shu o'lchov birligi kiritilgan. Har bir kuchaytirgich kuchaytirish koefisientlaridan tashqari quyidagi parametrlarga ham egadir.

Kuchaytirgichning chiqish quvvati (iste`molchiga signalni buzmasdan beriladigai eng katta quvvat):

$$P_{chiq} = \frac{U^2_{chiqmax}}{R_i}$$

Kuchaytirgichning foydali ish koeffisienti

$$\eta = \frac{P_{chiq}}{P_{um}}$$

bu erda  $P_{UM}$  - kuchaytirgichning hamma manbalardan iste`mol qiladigan quvvati. Kuchaytirgichning dinamik diapazoni kirish kuchlanishing eng kichik va eng katta qiymatlarining nisbatiga teng bo'lib, dB da o'lchanadi:

$$D = 20 \lg \frac{U_{kirmmax}}{U_{kirmmin}}$$

Chastotaviy buzilishlar koeffisienti  $M(f)$  o'rta chastotalardagi kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koeffisienti  $K_{uo}$  ning ixtiyoriy chastotadagi kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koeffisientiga nisbatidir:

$$M(f) = \frac{K_{uo}}{K_{uf}}$$

Chiziqli bo'limgan buzilishlar koeffisienti  $\gamma$  yuqori chastotalar garmonikasi o'rta kvadratik yig'indisining chiqish kuchlanishing birinchi garmonikasiga nisbatidir:

$$\gamma = \frac{\sqrt{U^2_{m_2chiq} + U^2_{m_3chiq} + \dots + U^2_{m_nchiq}}}{U_{m_0chiq}}$$

Sifatlari kuchaytirgichlar uchun  $\gamma < 4\%$ , telefon aloqasi uchun  $\gamma < 15\%$ .


**Operatsion kuchaytirgich** barcha kuchaytirgichlar kabi kirish signali quvvatini kuchaytirish uchunishlatiladi. —Operatsionl so'zi kuchaytirgichni turli matematik operatsiyalar bajarish uchun ishlatalishi (qo'shish, ayrsih, ko'paytiriash, logorifmlash va hokazolar) bildiradi.


**Integral mikrosxema** ko'rinishidagi tuzilgan kuchaytirgich **operatsion kuchaytirgich** deb ataladi.

**Integral operatsion kuchaytirgichlar.** Universal hisoblanib, ular matematik operatsiyalarni bajarish bilan birga signallarni generatsiya qiladi, kuchaytiradi va o'zgartiradi.

Operatsion kuchaytirgichlarda kirish sifatida differensial kuchaytirish kaskadi qo'llanilib, u kuchaytirgich chiqish potensialini bir maromda bo'lishini ta'minlaydi, qolaversa ikkita kirish borligi evaziga uni imkoniyatlarini oshiradi. Kirish signali chiqish signali bilan bir fazada yotadimi yo'qmi, unga qarab kirishlar **invertirlovchi** va **noinvertirlovchi** bo'ladi (3.6-rasm).


Operatsion kuchaytirgichlarni ta'minlash uchun har hil qutbli va manbalardan foydalaniladi, ular tinch holatda nolga teng potensial olish imkonini beradi  $+E_{n1} - E_{n2}$  va manbalardan foydalaniladi, ular tinch holatda nolga teng potensial olish imkonini beradi.






3.6-rasm. operasion kuchaytirgich

**10 k Ohm**






3.7-rasm. invertirlovchi kuchaytirgich

Uchta kirishga ega bo’lgan zanjirga ulangan operasion kuchaytirgich kuchlanishlarini jamlash ajgebraik operasiyasini bajaradi, shuning uchun ham u summator deb ataladi.

**Doimiy tok kuchaytirgichlari (DTK)** – vaqt bo'yicha juda sekin o'zgaradigan signallarni kuchaytirish uchun mo'ljallangan kuchaytirgichlardir. Bunday kuchaytirgichni yuklama, signal manbasi va kaskadlar orasidagi aloqa bevosita bo'lishi zarur, ya'ni kuchaytirgich kaskadlarining moslashtirish elementlari sifatida reaktiv elementlar(transformatorlar va kondensatorlar) qo'llanilmasligi mumkin, bu  $f=0$  bo'lganda  $K_u=0$  bo'lgan amplituda-chastota xarakteristikani ta'minlaydi.

Kuchaytirgich sxemasida qo'shni kaskadlar tranzistorlarining kollektor va bazalari bevosita ulangan. Kuchaytirgichning kirish zanjiriga kirish signali manbasi bilan kirish kompensatsiyalovchi kuchlanish  $E_{komp}$  manbai ketma-ket ulangan.

## Kuchlanish kuchaytirgichi.




3.8-rasm. Kuchlanish kuchaytirgichida transiztorning ishlatalishi: (a) oddiy sxema, (b) aralash sxema.

Elektron sxemalarda signallar doimiy yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Bunday qurilmalar, masalan mikrofon o'zgaruvchan kuchlanish hosil qiladi, hosil bo'lgan kuchalnish kuchaytirilish zarur. Ba'zi signal manbalari, masalan fototranzistor va ba'zi detektorlar tok manbalari bo'lishi mumkin, bundan tashqari kuchlanishga ham o'zgartiradi.

### Quvvat kuchaytirgichi

Garmonik signallarning quyi chastotali quvvat kuchaytirgichlari istalgan tizimning zaruriy elementi bo'lib hisoblanadi. Bunday kuchaytirgichlarning asosiy parametrlaridan biri quvvat bo'yicha kuchaytirish koeffitsientidir. Koeffitsient yuklama qarshiligidagi va kirish qarshiligidagi bog'liq, shuningdek ta'minot kuchlanishi o'zgarishiga ham bog'liq. Chastota ishchi diapazoni – kuchaytirish koeffitsienti o'zgatmas qoladigan kuchaytirish chastotalar yo'lagi(oralig'i). Quyi chastotali kuchaytirgichlar uchun qanoatlatiruvchi sifatdagi ishchi diapazon 16Gs dan 20Gs gacha.




3.9-rasm . Transformator quvvat kuchaytirgichi.

Transformatorsiz quvvat kuchaytirgichi 3.9-rasmida ko'rsatilgan. Bunday kuchaytirgichlar uchun yuklamadagi quvvat  $P_{yu}=10Vt$ , yuklama qarshiligi  $R_{yu}=8\Omega m$ , chastota polosasi(yo'lagi, oralig'i) quyi chegarasi  $f_q=250Gs$  dan yuqori chegarasi  $f_{yu}=10\ 000\ Gs$  gacha, garmonikalar koeffisienti  $K_g=10\%$

### 3.3. Pnevmatik va gidravlik signal kuchaytirgichlar

Pnevmatik va gidravlik signal kuchaytirgichlar chiqish quvvatini (signalini) kuchaytirish uchun ishlataladi. Ularni ishlashi suyuqliklarni qisilmasligiga asoslangan. Gidravlik kuchaytirgichlar turli tuzilishga va turlarga ega. To'siqli qopqoqli va prujinali gidravlik kuchaytirgichlar ko'p tarqalgan. Pnevmatik va gidravlik kuchaytirgichlarning ishlashi, qurilmalarda prujinaning zo'riqishini, to'siq va qopqoqlarning holatini o'zgartirishining boshqarilishini nazorat qilish orqali bajariladi. Kuchaytirgich ishini stabillash yoki kuchaytirishni oshirish uchun ularda teskari boglanish qo'llaniladi. Teskari boglanish orqali kuchaytirish chiqishdagi signaling bir qismi uning kirishiga beriladi. Quyidagi 3.6.-rasmda kuchaytirgichning funksional sxemasi keltirilgan.



3. 10-rasm.Kuchaytirgichning funksional sxemasi.

$\beta$  – tes kari boglanish koeffitsenti.

Kuchaytirgich kirishiga beriladigan chiqish signaliningqismi  $X_{tb} = \beta U$ . Teskari boglanish ‘+’ yoki ‘-’ bo’ladi. +  $\rightarrow X + X_{tb} = X + \beta U \rightarrow X - X_{tb} = X - \beta U$ . + bo’lganda kuchaytirish koeffitsenti ko’payadi. - bo’lganda kuchaytirish koeffitsenti kamayadi. Ko’pincha, kuchaytirgichning barqaror ishlashini ta`minlash uchun teskari bog’lanishdan foydalaniladi. Chiqish zanjiridagi signal ma`lum qismining kirish zanjiriga uzatilishi **teskari bog’lanish** deb ataladi. Teskari bog’lanish manfiy va musbat bo’lishi mumkin. Musbat teskari bog’lanish generator kaskadlarida qo’llanadi. Kuchaytirish kaskadlarida manfiy teskari bog’lanishdan foydalaniladi (musbat teskari bog’lanish kuchaytirgichlar uchun zararlidir). Teskari bog’lanish kuchlanishi chiqish kuchlanishining ma`lum qismini tashkil qiladi va teskari bog’lanish koeffisienti ( $\beta$ ) bilan har akterlanadi. Teskari bog’lanishli kuchaytirgichlarda:

$$K = \frac{u_{chiq}}{u_{sign}} \quad u_{sign} = u_{kir} - u_{tb} = u_{kir} - \beta u_{ChIq} = u_{kir}(1 - \beta K).$$


Demak,

$$K_{tb} = \frac{K u_{kir}}{u_{sign}} = \frac{K u_{kir}}{u_{kir}(1 - \beta K)} = \frac{K}{1 - \beta K}$$

Teskari bog’lanish manfiy bo’lganida  $\beta < 0$  bo’ladi va  $K_{tb} = \frac{K}{1 + \beta K}$ , ya`ni kuchaytirish koeffisienti kamayadi. Lekin kuchaytirgichning chastota va faza buzilishlari kamayadi.  $R_E$  qarshiligi teskari bog’lanish zanjiri bo’lib chiqish zanjiridagi kuchlanishni qisman kirish zanjiriga uzatadi. Shuning hisobiga boshlang’ich ish nuqtasining parametrlari stabillashadi. Pnevmatik va gidravlik signal kuchaytirgichlar tuzilishi va ishlash prinsipi jihatidan bir xil bo’lib, chiqish quvvati katta bo’lgani uchun ular ijrochi elementlarga bevosita ta’sir qila oladi va ko’pincha ijrochi elementlar bilan bir korpusda tayyorланади. Pnevmatik signal kuchaytirgichining prinsipial sxemasi 3.12a-rasmida ko’rsatilgan. YUqori bosimli havo ( $R_1$ ) bosim tushirgich-drossel 1 dan o’tib, kamera 2 da pastroq bosim Rga aylanadi. To’siq 3 ga ta’sir qiluvchi

signal (kirishsignal)  $X_k$  bo'lmasa naycha 4 ochiq bo'ladi, bosim R atmosferaga chiqib ketadi. Shunda kamera ichidagi bosim atmosfera bosimiga teng bo'lib qolishi ham mumkin.Kirish signali  $X_k$  ning to'siq 3 ga ta'siri natijasida to'siq naychani berkita boshlaydi, shunda havo bosim boshqarish kanali 5 orqali ijrochi mexanizm kamerasi 6 ga o'tadi va undagi porshen 7 dagi prujina 8 ning kuchni engib, porshen shtogini  $F_{ch}$  kuch bilan suradi.SHtokni suruvchi kuch  $F_{ch}$  to'siq 3 ni suruvchi kuch  $X_k$  ga nisbatan kuchaygan va ancha katta bo'ladi. Ba'zi bir shu tipdagи kuchaytirgichlarni quvvat bo'yicha kuchaytirish koeffisienti  $10^5$ - $10^7$  gacha etadi.

Pnevmatik kuchaytirgichlar gazning kuch oqimlari bilan boshqarish uchun ishlatiladi. Bunda boshqarish signaling kichik quvvati chiqish signalingining katta quvvatiga o'zgaradi.Pnevmatik kuchaytirgichning ijro mexanizmi quyidagi rasmda ko'rsatilgan. Membrana yopuvchi elementni pastga siljitadi, gazni atmosferaga chiqish yo'lini yopadi va kuchaytirgichni chiqish liniyasiga o'tish yo'lini ochadi. Qachonki gazning atmosferaga chiqishi to'liq yopilganda chiqish bosimi ta'minlash bosimiga teng bo'lib qoladi. Boshqarish bosimi yo'qolganda yopuvchi element ta'minlash liniyasidan kuchaytirgichning chiqish liniyasiga o'tish yo'lini qayta yopib, yuqori ko'tarilgan holatga o'tadi. Bu holatda chiqish bosimi atmosfera bosimiga teng bo'ladi. Boshqarish bosimining kuchi statik holatda prujina kuchi bilan kompensatsiyalanadi.




3.11-rasm. Pnevmatik kuchaytirgich sxemasi.



bu yerda 1- korpus, 2 – membrane, 3 – yopuvchi element, 4 – prujina

Gidravlik signal kuchaytirgichning prinsipial sxemasi 3.12b-rasmda ko'rsatilgan. Bunda bosimli oqim trubkasi 3 kuchaytirgichli asosiy qismi hisoblanadi. U o'q 5 ga o'rnatiladi. Datchikdan keladigan (kuchaytirgichga kiruvchi) signal  $X_k$  trubkadagi nuqta ikkiga ta'sir qiladi. Signal  $X_k$  bo'limgan paytlarda (trubkaning neytral holatini saqlash uchun) uning pastki qismiga posangi 1 o'rnatiladi. Agar datchikdan keladigan kuchaytirgichga kiruvchi signal  $X_k$  oqim trubkasini o'ng tamonga sursa, suyuqlik oqimi porshenning o'ng tamoniga kattaroq  $R_2$  bosim bilan ta'sir qiladi, ya'ni  $R_2 > R$  bo'ladi, porshen chap tamonga suriladi. Aksincha, datchikdan keladigan signal  $X_k$  ta'sirida oqim trubkasi chap tamonga surilsa,  $R_1 > R_2$  bo'ladi va suyuqlik oqim porshenni o'ng tamonga suradi.

Agar oqim trubkasining bir chetki holatidan ikkinchi chetki holatiga (1-2 mm) surish uchun datchikdan keladigan signalning kuchi  $10^{-1}$  N miqdorida bo'lsa, porshen shtokidan olinadigan kuchning miqdori  $10^3 N$  gacha etadi. Bu tipdag'i kuchaytirgichlarning kuchaytirish koeffisienti  $10^4$  ga teng. So'nggi vaqtarda havo va suyuqlikli kuchaytirgichlar kaskadi keng qo'llanilmoqda. Birinchi kuchaytirgichlar kaskadi pnevmokuchaytirgich bo'lsa, ikkinchi kaskad gidrokuchaytirgichdan iborat bo'lishi mumkin.



a)




6)

3.12.a,b-rasm. Pnevmatik va hidravlik signal kuchaytirgichlari.

## Elektr mashinali kuchaytirgichlar.

**Elektr mashinali kuchaytirgichlar** maxsus o'zgarmas tok mashinasi bo'lib, quvvatini kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Kollektorda asosiy shetkalar 1-1dan tashqari qo'shimcha 2-2 qisqa tutashtirilgan shetkalar joylashtirilgan va ular asosiy shetkalarga nisbatan 900 burchakka burilgan bo'ladi (3.13-rasm).




3.13 – rasm. Elektr mashinali kuchaytirgich sxemasi.

Mashinada  $F_1$  magnit oqimi qo'zgatish (QCh) va (BCh) boshqarish cho'lg'ami orqali hosil qilinadi. Yakor aylanganda oqim  $F_1$  uni cho'lg'amida EYuK induksiyalaydi. Natijada yakor zanjirda qisqa tutashgan shetkalar orqali tok oqadi. Bu tok fazoda qo'zg'almas magnit oqimini hosil qiladi va bu oqim ta'sirida yakor cho'lg'amida miqdor jihatdan katta bo'lgan ikkinchi EYuK induksiyalanadi. Bu EYuK kuchaytirgichni chiqish kuchlanishini hosil qiladi. Mashinadagi yakor 24 reaksiyasini so'ndirish uchun esa kompensiya cho'lg'ami (KCh) dan foydalaniladi. Qo'zgatish yoki boshqarish cho'lg'amlaridagi tokni ozgina o'zgarishi ham qisqa tutashgan cho'lg'amdan o'tadigan katta tokni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada oqim o'zgarib chiqishdagi tok va kuchlanish ortib ketadi. Shunday qilib, bunday kuchaytirgichlarda kuchaytirish ikki pog'onada o'tadi: qo'zg'atish va boshqarish cho'lg'ami yakorni qisqa tutushgan zanjiri va qisqa tutashgan zanjir tashqi zanjir. Umumiy kuchaytirish koeffisenti

birinchi va ikkinchi pog'ona kuchaytirish koeffisentlari ko'paytmasiga teng. Bu xil kuchaytirgichlarni kuchaytirish koeffisenti 1000 va undan ortiq bo'ladi.

Avtomatika qurilmalari (sevroyuritmalar) ning ijro etuvchi elementlari rostlash yoki boshqarish organlariga kuch ta'sirini berish uchun mo'ljallangan. Ijro etuvchi elementlar oddiy amallar (ochish – yopish)ini bajargani kabi murakkabroq – ko'p pog'onali yoki proporsional ko'chish amallarini ham bajarishi mumkin. Ijro elementlarining asosiy ko'rsatkichlari - quvvat, tezlik va chiqishda kuchaytirishni oshirish bo'yicha kuchaytirish koeffisienti, shuningdek, chiziqli va burchak ko'chishi kattaliklari hisoblanadi. CHiqish zvenosining harakat turiga ko'ra ijro mexanizmlari ilgarilanma – qaytma va aylanma harakat qiluvchilarga farqlanadi. Birinchisi bir tomonqa, ikki tomonqa harakatlanuvchi yuritmali va ko'p aylanishli gidromotorlarga bo'linadi.

Gidravlik va pnevmatik ijro mexanizmlari harakatlanish prinsipi (tamoyili) va konstrukiv rasmiylashtirilishi bo'yicha jiddiy (muhim) farqga ega emas. Biroq ishslash muhiti (suyuq va gaz holatdagi)ning turli xossalari sababli alohida qismlar bir qancha konstruktiv o'ziga xosliklarga ega. Ishslash muhitidan kelib chiqib yuritmalarining detallari (korpus, porshnen, shtok, diafragma va boshqalar) uchun material tanlanadi, shuningdek, zinch harakatlanuvchi detallar konstruktiv rasmiylashtiriladi. Ish muhit sifatida moy xizmat qiluvchi gidravlik ijro mexanizmlarida zichlashtirishga birikuvchi detallarga (plunjер va silindr) maxsus sillqlash ishlovlarini berish bilan erishiladi, kichik qovushqoklik havo muhitida ishlovchi pnevmatik ijro mexanizmlarida esa rezinali xalqlalar yoki manjetalar ishlatiladi (biroq oxirgisi gidravlik yuritmalarida ham ishlatilishi mumkin).



3.14.-rasm. Ijro mexanizmlari.

*a* – porshenli ikki tomonlama harakat; *b* – porshenli bir tomonlama harakat; *v* – membranalı; *g* – membranalı yuritmaning statik tavsifi.

Ikki tomonlama haraktlanuvchi porshenli ijro mexanizmlari 3.14.-rasm, *a* da ko’rsatilgan. u erda silindr ikki tomonga haraktlanuvchi porshenning harakati porshenga berilgan ishchi suyuqlik bosimining natijaviy kuchlari ostida amalga, oshiriladi. Porshen o’ng tomonga ko’chishishi uchun

$$p_1 F_1^3 N + N_T + p_2 F_2$$

bo’lishi lozim, bu erda,  $R_1$  va  $R_2$  silindr bo’shlig’idagi ishchi suyuqlikning bosimi;  $G’1$  va  $G’2$  porshenning silind bo’shlig’iga mos keluvchi yuzalari;  $N$  va  $N_{ishq}$  h tok 3 ga berilgan tashqi yuklanish va mexanizmdagi ishqalanish kuchlari. Porshenga rezinali va terili manjet qo’llanilganda ikki tomonlama haraktlanuvchi ijro mexanizmlari uchun,

$$NT = NM + NC = p (Dhp mT + d_0 l_0 k_0)$$

bu erda, D – silindirning diametri; h – manjetaning balandligi; p – ishchi bo’shliqdagi bosim;  $\mu_{ishq}$  – ishqalanish koeffisienti (U simon shevronli va chashkali manjetlar uchun; rezinadan bo’lsa  $\mu_{ishq} = 0,01$  va teridan bo’lsa  $\mu_{ishq} = 0,075$ ); dsh – shtokning diametri; Ls – salnikli tiqmaning uzunligi; kishq – tiqmaning birlik yuzaga to’g’ri keluvchi ishqalinish koeffisienti  $K_{ishq} = (1 \div 1,5)105 Pa$ . Bir tomonga harakatlanuvchi ijro mexanizmlari ikki tomonga harakatlanuvchilardan prujinalar 4 ning borligi bilan farq qiladi (3.14.-rasm,b). Bu mexanizmlarda

$$p_1 F_1^3 N + NT + Nn$$

bo’lganda porshen o’ng tomonga harakatlana boshlaydi, bu erda,  
N20.Prujinaning siqilish kuchlanishi.

Membranali ijro mexanizmlari (3.14-rasm, v) shtokning ishchi ko’chishi kata bo’limganda qo’llaniladi. Gidravlik va pnevmatik yuritmalarda asosan qattiq markaz 2 li membrana 1 lar ishlataladi. Membranalarning elastik qismining kengligi odatda 0,1 D ga, ish yo’lining kattaligi  $-(0,15 \div 0,20)$  D ga teng qilib qabul qilinadi.Membraning samarali maydonining rasm o’rtacha qiymati quyidagi formula bo’yicha hisoblanadi:

$$F D_2 D d_2 YO = p$$

*bu erda, D va d – mos ravishda membranining tiqini va qattiq markazning diametrlari.*

### **III-bob bo’yicha nazorat savollari**

1. Signal kuchaytirgich elementlar tugrisida umumiylar ma`lumotlarni keltiring.
2. Magnitli kuchaytirgichlarning tuzilishi, ish prinsipini tushuntiring.
3. Musbat teskari alokali magnitli kuchaytirgichni tushuntiring.
4. Operasion kuchaytirgichlarning sxemasini chizing va ish prinsipini tushuntiring.

Elektr kontaktlarining ulanishi?

5. Kontaktlarning ish rejimlari?
6. Kontaktlarning konstruksiyasi va materiallari?
7. Kuchaytirgich deb nimaga aytildi?
8. Kuchaytirgichni asosiy tavsifini yoriting?
9. Magnit signal kuchaytirgichni izoxlang?
10. Magnit signal kuchaytirgich afzalligi nimada?
11. Elektron kuchaytirgichni tushintiring?
12. Yarimo‘tkazgichli kuchaytirgichni tushuntiring?
13. Elektr mashinali kuchaytirgich nima?
14. Tok, kuchlanish, quvvat kuchaytirgichlari ishslash printsipini tushuntiring ?
15. Ko‘p kaskadli kuchaytirgichlar qanday kuchaytirgichlar ?
16. Magnitli bir va ikki takhti kuchaytirgichlar qanday ishlaydi ?
17. Elektromashinali kuchaytirgichlar qanday kuchaytirgichlar?
18. Kuchaytirgichni kuchaytirish koeffisienti nima ?
19. Kuchaytirgich turlarini ayting ?
20. Gidravlik kuchaytirish printsipi ?

#### **IV- BOB. BOSHQARISH SISTEMALARINI RELE, KOMUTASIYA ELEMENTLARI.**

##### **4.1. Komutasiya to’g’risida tushuncha**

Kommutsasiya elementlari elektr zanjirlari ulash, uzish yoki almashtirib ulash uchun xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan operatsiya (amallarni) bajarish kommutasiya deyiladi. Kommutsasiya elementari qo’lda boshqariladigan yoki avtomatik boshqariladingan bo’lishi mumkin.

Qo’lda boshqariladigan elementlar ularning boshqarish organlariga bevosita mexanik ta’sir ettirilganda ishlaydi. Avtomatik kommutasiya elementlari esa ularning yuritmalariga elektro magnit kuchlar ta’sir etkazilganda

ishlaydi. Ularning asosiy elementi elektro magnit bo'lib, kirish kattaligi tok kuchi yoki kuchlanish bo'ladi.

### **Kommutsiya elementlari:**

- 1) katta quvvatli zanjirlar.
- 2) boshqarish zanjirlarida qo'llanadi.

Kommutsiya elementlari, albatta quyidagi qismlarga: qo'zg'almas kontaktlar, qo'zg'aluvchan kontaktlar va boshqarish qurilmasi.

Kommutsiya elementlari yo'l qo'yiladigan tok kuchi, kuchlanishga ko'ra tanlanadi.

Kommutsiya va elektromexanik elementlarda, elektr zanjirlarini qo'lda yoki avtomatik uzib - ulashda asosiy vazifani kontakt tizimi bajaradi. Har qanday kommutasiya qurilmasining ishonchlilagini uning kontakt tizimining holati belgilaydi. Bu tizim qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas kontaktlardan tashkil topgan.

### **Elektr kontaktlari.**

Elektr kontakt – bu elektr toki o'tkazish maqsadida, o'tkazgichlarni o'zaro tutashtirilishi tushuniladi.


Bu kontaktlar o'zaro tutashgan yoki tutashmagan holatda bo'lishi mumkin.

Bu kontaktlar holatiga ko'ra **ulovchi yoki uzuvchi deb ataladi**.

Kontaktlar tutashganda ular o'rtaсидаги elektr qarshilik minimal bo'ladi. Bu qarshilik kontaktli o'tish qarshiligi deyiladi.

Kontaktlar tutashmagan holatda ular orasidagi qarshilik cheksiz katta qiymatga ega bo'ladi. Bu qarshilik kontaktli o'tish qarshiligi deyiladi.

Kontakt yuzalarining shakliga ko'ra, nuqtaviy, (a) chiziqli (b) va yuzali (c) bo'lishi mumkin.




4.1 – rasm. Yo’l va oxirgi uzgichlar.

Yo’l va oxirgi uzgichlar shunday kommutasiya elementiki, ular ishchi mashinalar bilan kinematik bog’langan. Ular ishchi mashinalarning qo’zg’aluvgan qismlari harakatlanganda ishlaydi. Yo’l uzgichlar ma’lum oraliq holatlarda oxirgi uzgichlar esa, eng chekka nuqtalarda (oxirida, boshida) ishlaydi. Ular turli mashina mexanizmning avtomatlashtirilgan elektr yuritma sxemalarida keng ishlatiladi


### **Tumblerlar va boshqa knopkalar.**

Kommutsiya qurilmalari sxemalarda boshlang’ich holatda ko’rsatiladi. Ular yordamida elektr yuritmalarini harakat yo’lini alohida qismlarida, hamda mexanizmlarning chekka holatida avtomatik boshqarishni amalga oshiriladi. Ular: a) knopkali, b) richagli, c) shpindeli, d) aylanuvchan bo’ladi.




4.2 – rasm. Boshqarish knopkasi konstruksiyasi.

1 – qo’zg’lamas kontakt ,2 – korpus,3 – shtok , 4, 5 – gaykalar ,6 – qo’zg’aluvchan kontakt, 7 – siqish vinti



4.3 – rasm. Paketli uzgich. 1 – dasta, 2 – o’q, 3 – paketlar, 4 – qo’zg’almas kontakt, 5 – qo’zg’aluvchan kontakt, 6 – qo’zg’almas kontakt uchlari.




4.4 – rasm. Ikki pozitsiyali tumblerlar.

1 – tok o’tkazuvchi rolik, 2 – juft qo’zg’almas kontakt, 3—richag, 4— prujina

## 4.2. Relelar haqida umumiy tushuncha

**1 . Umumiy tushunchalar.** Rele – avtomatik sistemalarda boshqarish, ximoya, nazorat, signalizatsiya, rostlash va boshqa disret operatsiyalarni bajarish uchun ko’p qo’llaniladigan qurilma. Relega kiruvchi signal uzuluksiz ravishda o’zgarib ma’lum qiymatga ega bo’lganda unda sakrashsimon harakteristikali chiqish signali hosil bo’ladi. Kirish signali qiymati kamayib ma’lum miqdorga etganda esa chiqish signali sakrashsimon har akterda yo’qoladi va oldingi holatga qaytadi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Rele harakteristikasi.

Releli harakatlanadigan element yoki rele deb releli chiqish tavsifiga (4.5-rasm) ega elementni aytishadi. Uni xususiyati bo’lib, kirish  $x$  kattaligi uzluksiz o’zgarishida chiqish  $y$  miqdori sakrash-simon o’zgarishi hisoblanadi. Releni boshqa chiqish kattaligi silliq uzluksiz o’zgaradigan (kuchaytirgich, dvigatellar, transformatorlar va boshqalar) elementlardan farq qilishligi xuddi ana shu holatdir. Releni yana diskret element deb ham atashadi, chunki uni holati sakrash bilan, diskret o’zgaradi.

Rele ikkita holatga ega. ‘Uzilgan’ holatga  $y=y_{uz}$  qiymat, ‘Ulangan’ holatga  $y=y_{ul}$  qiymat to’g’ri keladi. Agar  $x=0$  bo’lsa, unda rele toksizlantirilgan va  $y=y_{uz}$  ( $a$ -nuqta)  $x$  qiymatini orttirish bilan, chiqish  $y$  kattaligi ma’lum chegaragacha o’zgarmaydi. Agarda  $x=x_{ul}$  etsa, rele ishlaydi va uning  $y$  kattaligi sakrab o’zgaradi va  $y_{ul}$  ( $b$ -nuqta) qiymatga erishadi.  $x$  ni yanada orttirsak ham uning qiymati o’zgarmaydi. Agarda  $x$  kattaligini kamaytirilsa hamda  $x=x_{uz}$

qiymatga (*d*-nuqtaga) etganida teskari sakrash bo'ladi, rele toksizlanadi va  $y=y_{uz}$  (*d*-nuqtadan *f*-nuqtaga sakraydi).

Shunday qilib rele  $x_{uz} < x_{ul}$  bo'lgani sababli gisteresis xususiyatiga ega ikkilik (ikki holatli) element hisoblanadi. Ba'zi holatlarda amaliy elementlarni releli tavsifi keltirilgandan farq qiladi, chunonchi bo'laklar,  $x$  va  $y$  o'qlariga qat'iy parallel emas yoki qat'iy to'g'ri chiziq emaslar.

Rele yordamida nisbatan kuchsiz kirish elektr signallari orqali chiqishda katta quvvatlarni boshqarish, elektr zanjirlarini uzib ulash, nazorat qilinayotgan parametrlar berilgan qiymatidan chetga chiqishini aniqlash mumkin. Relega ta'sir qiladigan fizik miqdor turiga qarab u quyidagilarga bo'linadi:

**elektrik** – ular tok, kuchlanish, quvvat, qarshilik, chastotasi, faza siljishi ta'sirida ishlaydi.

**mexanik** – bosim, vakuum, satx, chiziqli va burchak siljishlari, zo'riqish, tezlik, tezlanish, suyuq lik va gazlar sarfi, oqim tezligi ta'sirida ishlaydi;

**issiqlik** – har orati o'zgarishi ta'sirida ishlaydi;

**optik** – yoritilganlik va yorug'lik oqimini spektral tarkibi ta'sirida ishlaydi;

**akustik** – tovush bosimi va tovush tulqinlari chastotasi ta'sirida ishlaydi;

**magnit** – magnit maydoni kuchlanganligi, magnit induktsiyasi va magnit oqimi ta'sirida ishlaydi;

Rele quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi:

- 1.Ishga tushish quvvati
- 2 Boshqarish quvvati
- 3.Kaytish quvvati
- 4.Releni ishga tushishi vaqtி
5. Ulash imkoniyatlari (releni juft kontaktlar soni bilan aniqlanadi).
- 6.O'lchamlari massasi, ishonli ishlashi ham releni parametri hisoblanadi.

### **Relelearning asosiy khrsatkichlari**

1. Ishga tushish ko'rsatkichi - relelar ishga tushish paytidagi kirish kattaligining eng kichik qiymati -  $\mathbf{X}_{i.t.}$

2. Qo'yib yuborish ko'rsatkichi-relening oldingi holatiga qaytishi uchun zarur bo'lgan kirish kattaligining eng katta qiymati -  $\mathbf{X_k} \cdot \mathbf{Y_u}$ .
3. Qaytish koeffitsienti- $\mathbf{K_k} = \mathbf{X_k} \cdot \mathbf{Y_u} / \mathbf{X_{i.t}}$  nisbati.
4. Ishchi parametri - rele uzoq vaqt ishlashi uchun zarur bo'lgan kirish kattaligining qiymati (nominal) rejimidagi -  $X_{ish}$ .

Relelarning yana bir muxim parametrlaridan biri - ularning ishga tushish va qo'yib yuborish vaqtлari. Cho'lg'amga kuchlanish berilganda u shu vaqtning o'zida ishga tushmasdan, balki bir oz vaqtdan keyin ishga tushadi. Ushbu  $T_{i.t}$  vaqt ishga tushish vaqtি deb ataladi. Kuchlanish cho'lg'amidan ajratilganda ham qo'yib yuborish ma'lum bir vakt ichida amalga oshadi - Tk 10. Bu vakt kuyib yuborish vakti deyiladi. Ushbu inertsionlik cho'lg'amning katta induktivlik bilan tushuntiriladi. Grafikdagi 0 nuktasi cho'lg'amni manbaga ulanishiga tugri keladi.  $T$  siljish vakti mobaynida relening harakatlanuvchi qismlari tinch xolatda bo'ladi.

Tok esa  $I_{it}$  toki kiymatigacha usadi.  $T=T$  vaqt mobaynida relening harakatlanuvchi qismlari bir turg'un holatdan ikkinchi turg'un holatga o'tishadi. SHundan keyin tok o'zining nominal ko'rsatkichi –  $I_n$  gacha oshadi.

Kuchlanish ajratilishi bilan relening toki  $T$  gacha kamayadi. Bu vaqtda yakorъ o'zining eski holatiga qaytadi. Demak relening ajralishi  $T$  vaqt mobaynida amalga oshadi. Ishga tushish vaqtiga qarab relelar tez harakatlanuvchi ( $T=50-150$  ms), o'rta harakatlanuvchi ( $T=1-50$  ms) va sekin harakatlanuvchi ( $T=0,15-1$  s). Agar  $T=1$  sek bo'lsa, bunday rele vaqt relesi deyiladi.


### **Rele kontaktlarining ekspluatatsion kattaliklari**

Relelarning puxtaligi va kontaktlarining kommutatsion xususiyatlari asosan kontaktlarga bog'lik.

Relelarning kontaktlari quyidagi ekspluatatsion ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ruxsat etilgan chegaraviy tok –  $I_{r.e}$ . Bu ko'rsatkich kontaktlar qizib o'zining fiziko-mexanikaviy xususiyatlarini yo'qotmaydigan harorat bilan

aniqlanadi. Ruxsat etilgan chegaraviy tokni oshirish uchun kontaktlarning qarshiligini kamaytirilib, ularning sovitish yuzasini oshirish kerak. Ruxsat etilgan chegaraviy kuchlanish - **Ur.e.** Kontaktlar o'rtasidagi izolyatsiyani va kontaktlararo masofada teshib o'tish kuchlanishi bilan aniqlanadi. Ruxsat etilgan chegaraviy quvvat – **R<sub>r.e.</sub>** Bu ko'rsatkich kontaktlar ajralish jarayonida turg'un yoyni (dugani) hosil qilmaydigan zanjirning quvvati bilan aniqlanadi.

Kontaktlarning ish rejimini engillashtirish maqsadida kontaktlarga (4.6 - rasm, a, v) yoki cho'lg'amga (4.6 - rasm, v, g, d) shunt sifatida qo'shimcha elementlar ulash maqsadga muvofiqdir. CHo'lg'amning induktivligi hisobiga yig'ilgan magnit energiyasi kontaktlararo masofada sarflanmasdan, rezistor va kondensator yoki cho'lg'amning o'zida sarflanadi. Rezistor qarshiligi cho'lg'amning aktiv qarshiligidan 5-10 barobar katta bo'lishi kerak. Kondensatorning sig'imi esa  $S = 0,5 - 2,0 \text{ mkg}$ .



4.6- rasm. Rele kontaktlari ishini engillashtiruvchi sxemalar


Elektr releleri elektromagnit, elektron, fotorele, elektron, vaqt relesi kabi turlarga bo'linadi. Avtomatik tizimlarda keng tarqalgan relelar bilan tanishib chiqamiz.

### 4.3. Elektr magnitli relelar.

Elektrik relelar ichida eng ko'p tarqalgani o'zgaruvchan va o'zgarmas tok elektr magnit relelaridir. O'zgarmas tokli elektr magnit relesi (4.7-rasm) elektr magnit va kontakt tizimidan iborat. Magnit  $F$  oqimi hosil qilishlikka cho'lg'am

6 xizmat qiladi va o'zakda 1 joylashgan bo'ladi. Magnit oqim uchun yo'lni (magnit o'tkazgichni) o'zak 1, yarmo (egar) 2, yakor (langar) 4 va havo tirkishi 5 hosil qilishadi. Yarmoda kontakt tizimi 3 va yakor o'rnatiladi. Yakor, magnit o'tkazgichni harakatlanuvchi qismi hisoblanadi va kontaktlarga mexanik ta'sir ko'rsatish uchun xizmat qiladi.


Elektr magnit rele konstruksiyasini (4.7-rasm) ikki qismga: qabul qiluvchi (o'zlashtiruvchi) va ijrochiga ajratish mumkin. O'zlashtiruvchi qism kirish  $x$  kattaligiga reaksiya (javob) beradi. Unga cho'lg'amdagagi tok qiymatiga reaksiya beradigan—cho'lg'am, o'zak, yarmo va yakor, ya'ni elektr magnit kiradi. Ijrochi qismga—tashqi zanjirga ta'sir ko'rsatadigan tizim kiradi.



4.7-rasm. Elektr magnitli rele

Tashqi zanjirlarni (yuklamalar  $Ryu1$  va  $Ryu2$ ) almashlab ulaydigan kontakt tizimi, uchta qayishqoq prujinalar va ularda mustahkamlangan kontaktlardan iborat. Umumiyligi kontaktni prujinasi yakor bilan mexanik ulangan. Pastki kontakt orqa (ortdagisi)  $O$  kontakt deb ataladi. Agar rele toksiz bo'lsa, u tutashgan bo'ladi. Orqa kontakt orqali  $Ryu1$  yuklama ulangan bo'lishligi lozim (masalan, stansiyaga kirish svetoforini qizil lampasi). Yuqori kontakt ro'para (frontal)  $P$  kontakt deb ataladi. Agar toksizlantirilgan bo'lsa, u ajratilgan bo'ladi. Ro'para kontakt orqali  $Ryu2$  yuklama ulanadi, u esa normal holatda uzilgan (ajratilgan) bo'lishi lozim (masalan, stansiyadagi svetoforni yashil lampasi). Ushbu releni ishlash prinsipi—bu yakorga ega elektr magnitni

ishlash prinsipidir.  $S$  kalitni tutashtirganda cho'lg'amni chiqarmalariga ta'minot manbai ulanadi. Cho'lg'amdan tok oqadi va magnit  $F$  oqim hosil bo'ladi. Buning natijasida yakor o'zakka tortiladi va o'zi bilan  $Y$  umumiy prujinani yuqoriga siljitadi. Orqa kontakt ajraladi va ro'para kontakt tutashadi,  $R_{yu1}$  yuklama uziladi,  $R_{yu2}$  esa ulanadi.  $S$  kalitni ajratilishi va ta'minot manbaidan rele cho'lg'amini uzilishi bilan tarang  $P$  va  $Y$  prujinalarni ta'siri kuchayadi, yakor dastlabki (qo'yib yuborilgan) holatiga qaytadi; ro'para kontakt ajraladi va orqa kontakt tutashadi.  $R_{yu2}$  yuklama uziladi,  $R_{yu1}$  yuklama esa ulanadi. Ro'para kontaktga nisbatan ushbu elementni kirish-chiqish tavsifini qo'ramiz. Kirish  $x$  miqdori bo'lib rele cho'lg'amidagi  $I_{yu}$  tok hisoblanadi. Agar rele toksizlantirilgan  $I_{yu}=0$  bo'lsa, rele yakori qo'yib yuborilgan. Shu sababli  $P$  kontakt ajratilgan va yuklamadagi tok nolga teng (4.8, a-rasmdagi  $a$ -nuqta).



4.8-rasm. Kontaktli relening releli tavsiflari

Reledagi tok orttirilganda hamda tortish toki  $I_{tt}$  deb ataladigan qiymatiga etganida, rele yakori tortiladi,  $P$  kontakt tutashadi va  $I_{yu2}$  tok sakrab ( $b$ -nuqta) ko'payadi. Rele cho'lg'amidagi tokni keyingi ortishi yuklama tokiga ta'sir etmaydi, chunki tok  $R_{yu2}$  yuklama qarshiligi bilan belgilanadi.  $I_{yu}$  tok kamaytirilganda va qo'yib yuborishi  $I_{qyu}$  toki deb ataladigan qiymatiga etganida, rele yakorini qo'yib yuboradi,  $P$  kontakt ajraladi va yuklamadagi tok nolga teng ( $c$ -nuqta) bo'ladi. Shunday qilib releni ideal tavsifini oldik, unda  $y_{uz}=0$ . Orqa kontaktga nisbatan rele tavsifi 4.8,b-rasmda ko'rsatilgan.


Relelarni tanlash va o'rganishni yengillashtirish uchun turli xususiyatlari yoki ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlarga ajratiladi (tasniflashadi). Xususan, ularni kirish x kattaligini fizikaviy tabiatini va qabul qiluvchi (o'zlashtiruvchi) qismini ishlash prinsipi bo'yicha relelarning tasnifini ko'rib chiqamiz. Ishlatiladigan relelarga elektr, mexanik, issiqlik, pnevmatik, gidravlik, akustik va optik relelarni ko'rsatish mumkin. Eng oddiy konstruksiya va yuqori ishonchli ishlashlik berilgani sababli elektr relelar ko'p tarqalgandir.

Mexanik relelarda kirish x kattaligi sifatida: tezlik, tezlanish, fazodagi siljish yoki deformasiya ishlatiladi. Markazdan qochirma rele (4.9, a-rasm) valni aylanish chastotasiga javob qaytaradi. Aylanish chastotasi ortganda markazdan qochirma kuchlar ta'siridan yukchalar Yu uzoqlashadi va harakatchi mufta  $HM$  o'ngga siljiydi, bu esa  $K$  kontaktni tutashishiga olib keladi.

Issiqlik yoki termorele, atrof muhitni harorati ta'siridan yoki cho'lg'amdan oqadigan tokning qizdirishidan ishlaydi. Bimetalli (ikki xil metalli) termoreleni (4.9, b-rasm) vaqt relesi sifatida yoki elektr zanjir iste'molchilarni tok bo'yicha o'ta yuklanishdan himoya qilishlikka ishlatiladi. Rele, ikkita yassi bimetalli plastinadan (taxtacha) iborat bo'lib, bir uchini harakatsiz qilib mustahkamlashadi, ikkinchi uchini kontakt bilan bog'lashadi. Bimetalli plastina, issiqlikdan turli chiziqli kengayishi koeffisentiga ega, o'zaro yopishtirilgan ikkita qatlam metallardan yaratilgan. Cho'lg'amdan o'tayotgan tok bilan qizdirilganda, ikki qatlam turlicha kengayishadi va natijada plastina issiqlikdan kichikroq kengayish koeffisentiga ega metall tomonga egiladi. Egilish natijasida kontakt tutashadi (yoki ajraladi).

Pnevmatik (4.9,c-rasm) va gidravlik rele siqilgan havo yoki suyuqlik ta'siridan ishlaydi. Ularni kompressorli qurilma bor joyda ishlatishlik qulay. Pnevmatik relega, havo magistrali 5 dan siqilgan havo silindr 4 ga kelganida kontakt tizimi bilan bog'langan shtok 1, porshen 3 ni siljitadi va kontaktlar tutashadi. Havo magistralida bosim kamayganida, prujina 2 ta'siridan porshen o'ngga siljiydi va kontaktlar ajraladi.


Avtomatika, telemexanika va aloqa qurilmalarida asosan elektr relelar ishlataladi.



4.9-rasm. Mexanik, issiqlik, pnevmatik rele.

#### 4.4. Elektrik relelarning asosiy parametrlari


Avtomatika, telemexanika va aloqa qurilmalarida asosan elektr relelar ishlataladi. O'zlashtiruvchi qismini ishlash prinsipi bo'yicha, elektr relelar: elektr magnit, magnit elektrik, elektr 31 dinamik, induksion, elektron, yarim o'tkazgichli, magnitaviy va boshqalarga bo'linishadi. Elektr magnit relelar eng ko'p tarqalgandir. Magnit elektrik relening (4.9,a-rasm) ishlashligi, magnit maydonida joylashtirilgan doimiy 2 magnitni tokka ega 1 o'tkazgich (ramka) ga ta'sir etadigan kuchidan foydalanishga asoslangan. Elektr dinamik releda (4.9,b-rasm), harakatlanuvchi cho'lg'am 3, cho'lg'am 1 va magnit o'tkazgich 2 dan iborat bo'lgan elektromagnitni magnit maydonida joylashtiriladi.



4.10-rasm. Magnit elektrik va elektr dinamik relelar

Elektr magnit relelar yakori ishlashiga qarab yakori ko'chishi burchakli (aylanma yakor, (4.6-rasmga qarang) va yakori ko'chishi chiziqli (solenoid turdag'i rele, 4.10-rasm) bo'lisi mumkin. Kam quvvat iste'mol qilishi sababli aylanma yakorli relelar ko'proq tarqalgan. Bu relelarda cho'lg'amdagi tok o'chganligida yakorni boshlang'ich holatga qaytarish uchun uchta uslub qo'llaniladi: kontakt prujinalarning tarangligi kuchi ta'siridan (4.10-rasm), yakorning o'zini massasi ta'siridan (4.10,a-rasm) va maxsus qaytaruvchi prujinaning ta'siridan (4.9,b-rasm). Bularidan eng ishonchli uslub bo'lib yakorni o'z massasi ta'siridan dastlabki holatga qaytarish hisoblanadi, chunki og'irlik kuchlari hech yo'qolmaydi, qaytaruvchi prujinalar esa, uzoq muddatli ish davrida o'zlari taranglik xususiyatlarini yo'qotishlari mumkin.

O'zgarmas tok elektromagnit relelari neytral, qutblangan va qo'rama (kombinasion) bo'lismi. Neytral (betaraf) releni ishlashligi rele g'altagi chiqarmalariga ta'minlovchi batereya qutblarini ulanish tartibiga bog'liq bo'lmaydi. Uni neytral yakori g'altakdagi tok yo'naliishiga bog'liq bo'limgan ravishda o'zagiga tortiladi.



4.11-rasm. Buraladigan yakorli rele: 1-g'altak; 2-yarmo; 3-o'zak; 4-yakor


Neytral relelar guruhiiga NMSh, REL, NSh, NR, KDR, RKN, RPN, RES kiradi. Qutblangan releni ishlashligi g'altak chiqarmalariga ulanadigan ta'minot

qutbiga bog'liq bo'ladi. g'altakdag'i tokni yo'nali shiga qarab qutblangan releni (PMPSh, IMSh, PL) yakori ikkita holatdan bittasiga ulanadi. Qo'rama rele (KMSh, KSh) neytral va qutblangan yakorlarga egadir.

#### 4.5. Kontaktli va kontaktsiz relelar.

##### Rele


Rele — avtomatik sistemalarda boshkarish, himoya, kontrol, signalizatsiya, rostlash va boshka diskret operatsiyalarni bajarish uchun juda ko'p qo'llaniladigan apparatdir.



4.12- rasm. Aylanuvchi klapanli quvur:

1 — aylanuvchn klapan; 2 — klapan dastasi.

Relega kiruvchi signal uzluksiz ravishda o'zgarib ma'lum qiymatga ega bo'lgandagina unda sakrashsimon xarakteristikali chiqish signali hosil bo'ladi. SHundan so'ng kiruvchi signal qiymatining o'zgarishi, oshishi davomida chiquvchi signal o'zgarmaydi. Kiruvchi signal qiymati kamayib ma'lum miqdorga etganda esa chiqish signali sakrashsimon xarakterda uziladi va oldingi holatga qaytadi.



4.13-rasm. Elektromekanik rele:

a - prinsipial sxemasi; b - statik xarakteristikasi;

Ishga tushish signali;  $X_{ish}$  - relening ishga tushish signali;  $X_q$  - relening qaytish signali

$X_k$  - rele chulg'amiga kiruvchi signal;  $X_{ch}$  - rele kontaktlari orqali chikuvchi signal.

Rele xususiyatlari bilan elektromexanik relening ulanish sxemasi va xarakteristikasi orqali tanishish mumkin (4.13- rasm)

Rele cho'lg'amiga kiruvchi tok  $I_k$  (signal  $x_k$ ) potensiometr surilgichini pastdan qarab yuqoriga surish yo'li sekin ko'paytirib borilganda tok kattatktlari orqali chiquvchi signalligi  $I_{ish}$  ga yoki signal  $X_{ish}$  ga etganda rele ishga tushadi, ya'ni uning kontakti orqali o'tadigan sakrashsimon xarakterga ega bo'lgan chiqish signali  $I_{ch}$  yoki  $X_{ch}$  hosil bo'ladi, ya'ni rele ishga tushadi. SHu sababli relega kiruvchi signalning bu qiymati ishga tushish signali  $X_{ish1}$  deb ataladi. Endi potensiometr surilgichini pastga (orqaga) surib kirish signali kattaligini kamaytira boshlasak I yoki X bo'lganda chiqish cignalni keskin kamayadi, ya'ni rele o'z kontaktlarini bo'shatib yuboradi, chiqish signali yo'qoladi. Relega kiruvchi signalning bu qiymati qaytish signali  $X_k$  deb ataladi.

Rele o'zining quyidagi asosiy parametrlari bilan xarakterlanadi:

1) ishga tushirish quvvati; bu quvvat relening ishonchli ishlashi, ya'ni kontaktlarining barqaror ulanib turishi uchun zarur bo'lgan tashqaridan ta'sir qiladigan signalning minimal quvvatiga teng bo'ladi;

2) boshkarish quvvati; u relega ta'sir qilayotgan signalning shunday minimal quvvatidirki, bunda rele kontaktlari uzilmay turadi;

3) qaytish koeffitsienti:


$$K_k = \frac{X_k}{X_{uw}} \quad (1)$$

4) relening ishga tushish vaqt - relega boshqarish signali berilgandan to undan signal chiqqunga qadar o'tadigan vaqt.

Rele ishga tushish vaqt ( $t_{ish}$ ) ga qarab tez ishlovchi, normal, kechikishli va vaqt relelariga bo'linadi. Masalan, relening ishga tushish vaqt  $I_{ish} < 0,05$  s bo'lsa, tez ishlovchi rele deyiladi.

$t_{ish} = 0,05 \dots 0,15$  s bo'lsa, normal rele va  $t_{ish} > 0,15$  s bo'lsa, sekinlatilgan rele deyiladi. Ishga tushish vaqt 1 s bo'lib, bu vaqtni yana ma'lum oraliqlarda o'zgartirish mumkin bo'lgan rele vaqt relesi deyiladi;


5) ulash imkoniyatlari relening kontakt juftlari soni bilan aniqlanadi.



4.14-rasm. O'zgarmas tok relesi:

a — aylanuvchi yakorli rele; b — yakorsiz rele (gerkon); a — relening prinsipial sxemasi: g — releniig dinamik xarakteristikalari; 1 — elektromagnit g'altagi; 2 — qo'zgalmas po'lat o'zak; 3 — ko'zgaluvchi po'lat o'zak (yakor); 4 — normal xolatdagi ochiq kontakt; 5 — normal holatdagi yopiq kontakt; 6 — shisha kolbacha. 6) o'lchamlari, massasi va ishonchli ishlashi xam relening asosiy parametrlari hisoblanadi.

Elektr relelar, ijrochi qismini ishlash prinsipi bo'yicha, kontaktli va kontaktsiz bo'lishadi. Kontaktli relelar, zanjirlarni mexanik tutashtirish (4.15,a-rasm) yoki ajratish bilan, Ryu yuklamaga ta'sir etishadi. Kontaktsiz relelarda, bunday ta'sir, zanjirni mexanik ajratmasdan turib, zanjirning biror parametrini (qarshiligi, induktivligi, sig'imi) keskin o'zgartirish orqali, erishiladi.



4.15-rasm. Yuklamani kommutasiya qilish sxemalari

Yuklama boshqarishligini, qandaydir element qarshiligini keskin o'zgartirish orqali amalga oshirish mumkin (4.15,b-rasm). Bunday element bo'lib, masalan, kalitlik rejimida ishlaydigan tranzistor hisoblanishligi mumkin.

Kontaktli kommutasiya uslubini ustunligi bo'lib, yuklamani to'liq galvanik ajratilishi  $I_{uz} = 0$  hisoblanadi, chunki kontaktsiz uslubda esa, bunga erishib bo'lmaydi, ya'ni  $I_{uz} \neq 0$ . Ammo kontaktli kommutasiya uslubi, kontaktsiz uslubga nisbatan past ishonchlikka ega. Iste'mol qiladigan toki turi bo'yicha, relelar o'zgarmas va o'zgaruvchan tokli relelari bo'lishlari mumkin. Ishlatiladigan relelarni eng ko'pi o'zgarmas tok relelaridir. Buning sababi, ularning konstruksiyasini soddaligi va o'zgarmas tok relelarini to'g'irlagich orqali o'zgaruvchan tok zanjirlarida ham ishlatish mumkinligidir.

Kontaktsiz releli ishlaydigan elementlarning kontaktli reledan farqi shundan iboratki, ular tashqi mexanik kontaktlarni tutashishi va ajralishi bilan emas, balki zanjirning biror ko'satkichi-qarshiligi, induktivligi yoki sig'imi o'zgarishi bilan ta'sir ko'rsatishadi (4.15-rasmga qarang).

Kontaktsiz rele, unda harakatlanadigan qismi-yakori va kontakt tizimi hamda ularning yejilishi bo'lмаганлиги, uchqun va yoy ta'siridan jadalli buziladigan kontaktlari yo'qligi sababli, ko'proq ishonchlikka ega. Inersiyali harakatchan qismlarini yo'qligi va ularning ishlashi fazodagi holatiga bog'liq bo'lmasligi, kontaktsiz relelarning yuqori tezkorligini ta'minlaydi. Kontaktsiz relelarning kichik tashqi o'lchamligi, ularning muhim ustunligidir. Ayniqsa bu, mikroelektron asboblardan yasalgan relelarga tegishlidir. Kontaktsiz relelarning, kontaktligiga nisbatan kamchiliklari—bu ularning tashqi elektromagnit

ta'sirlariga, shovqinlarga yuqori sezgirligi, radiasiya ta'siriga moyilligi, elektr ta'minot sifatiga bog'liqligidir. Bu esa, ekranlar, filtrlar va boshqa himoya tadbirlari ko'rishni talab etadi. Kontaktsiz elementlar uchun qiyin aniqlanadigan nosozlik-bu adashish yoki to'xtab qolish (ya'ni qisqa vaqtga ish qobiliyatini yo'qotish) xususiyatni borligidir. Bu ma'noda kontaktli rele kam talabchan, dag'alroq elementdir, u sozlashni talab etmaydi va tashqi xalaqitlarga moyil emas. Ana shu sabablarga ko'ra, buzilish (nosozlik) jadalligi  $\lambda = 10_{-12} \div 10_{-14}$  1/soatga teng.

I- sinf ishonchlikka ega kontaktsiz releni yaratish, kontaktli releta nisbatan ancha murakkab masaladir. Chunki kontaktli relelarda bu maqsadga etarli sodda konstruksiyalarni tanlash tadbirlari bilan erishiladi. Kontaktli relelarning yana bir muhim ustunligi, bu ularning holatini ko'z bilan ko'rish mumkinligidir. Bu ularning ishlashini nazorat qilish va buzilishini oson tuzatishga imkon beradi. Kontaktsiz relelar, kontaktlilar beradigan, yuklamani elektr manbadan to'liq galvanik ajratilishini ta'minlay olmaydi. Natijada, uzilgan yuklama zanjiridan qandaydir salt yurish toki oqishi mumkin.


### **Elektron, fotoelektron relelar.**

Hozirgi paytda avtomatik sistemalarda elektron relelar ko'plab qo'llanishga ega. Elektron rele kuchaytirgich va elektromagnit relesi yig'indisidan iborat bo'ladi. Kuchaytirgich lampali yoki tranzistorli bo'lishi mumkin. Signal kuchaytirilishi sababli relening sezuvchanligi ancha oshadi, ya'ni uning ishlash quvvati kamayadi va  $10^{-8} \div 10^{-12}$  Vt ga teng bo'lishi mumkin. Elektron kuchaytirgich inersiyasiz bo'lganligi uchun, elektron relening ishga tushish vaqtini elektr magnit relesining ishga tushish vaqtini bilan aniqlanadi. 4.16,a-rasmida elektron relening prinsipial sxemasi keltirilgan. Bu erda kuchaytirgich sifatida tranzistor T ishlatilgan.

Kuchaytirgich kirishida kuchlanish  $U_k$  yuk, ( $U_k=0$ ) bo'lsa, uning baza zanjirida tok  $I_b$  nolga teng bo'ladi, tranzistor T yopiq va rele uzilgan bo'ladi. Kirishga  $U_k$  kuchlanishi berilganda, baza zanjirida tok  $I_b$  hosil bo'ladi.


Tranzistor T ochiladi, va rele R cho'lg'amidan kollektor toki o'tadi. Bunda rele ishlab, uning normal ochiq kontakti R1 yopiladi, normal yopiq kontakti R<sub>2</sub> esa ochiladi.

Fotoelektron rele. Fotoelektron relelarda kuchaytirgich (T) kollektoriga ulangan elektr magnit relesi (R) kontaktlarining yopilishi yoki ochilishi fotoelement (fotodiod, fototranzistor, foterezistor) yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi o'zgarganda sodir bo'ladi. 4.16, b-rasmida tranzistorli fotorelening oddiy sxemalaridan biri keltirilgan. Bu erda sezgich element sifatida foterezistor FR ishlatilgan. Foterezistor yuzasiga yorug'lik oqimi tushmaganda, uning qarshiligi juda katta bo'ladi va rele zanjiridagi tok uning ishga tushishi uchun etarli bo'lmaydi. Yorug'lik oqimi oshganda foterezistor qarshiligi R kamayadi, tranzistor bazasiga berilayotgan tok qiymati oshadi, natijada, kollektor toki xam oshadi va rele R ishga tushadi (ulanadi).



4.16-rasm. Elektron rele.

## Elektron vaqt relesi.



4.17-rasm. Elektron vaqt relesi (EVR) ishlash prinsipi.

Elektron vaqt relesi (EVR) ishlash prinsipi Kondensatorni zaryadni uzoq vaqt davomida saqlashiga asoslangan.

EVR ni asosiy qismlari:

- Kondensator C<sub>1</sub>
- Razryadlanish zanjiri (RZ) R<sub>2</sub>, R<sub>1</sub>
- Elektron kalit (EK) R<sub>3</sub>, R<sub>4</sub>, T<sub>1</sub>, T<sub>2</sub>, Q<sub>1</sub>


EVR ni S<sub>1</sub> (pusk knopkasi) bosiladi, bunda S<sub>1</sub> kontaktlari orqali C<sub>1</sub> ni zaryadlaydi va qisqa vaqt ichida C<sub>1</sub> dagi kuchlanish E<sub>1</sub> kuchlanishiga teng bo'ladi (grafigdagi A nuqta). S<sub>1</sub> qo'yib yuboriladi va C<sub>1</sub> dagi tok EK R<sub>3</sub> qarshiligi orqali T<sub>1</sub>, T<sub>2</sub> tranzistorlariga beriladi va tranzistorlar ochiladi, natijada Q<sub>1</sub> rele ishga tushadi va kontaktlari bilan D<sub>1</sub> svetodiodni manbaaga ulaydi (D<sub>1</sub> ni yonishi EVR ishga tushganligini bildiradi). Shu bilan birga C<sub>1</sub> dagi tok RZ ni R<sub>1</sub>, R<sub>2</sub> qarshiliklari orqali razryadlana boshlaydi va C<sub>1</sub> dagi kuchlanish o'zgaruvchan qarshilik R<sub>1</sub> ni qiymatiga (vaqt bo'yicha) proporsional ravishga pasaya boshlaydi, (ya'ni R<sub>1</sub> qiymati qancha kichik bo'lsa C<sub>1</sub> razryadlanish vaqt shuncha tez bo'ladi va aksincha). C<sub>1</sub> dagi kuchlanish ma'lum bir qiymatida (grafigdagi P nuqta) Q<sub>1</sub> rele o'z kontaktlarini qo'yib yuboradi va D<sub>1</sub> ni manbadan uzadi (D<sub>1</sub> ni o'chishi EVR ishda to'xtaganini bildiradi).

## Qutblangan rele, vaqt, issiqlik relelari

**Vaqt relesi** texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish uchun qo'llaniladigan eng zarur elementlardan xisoblanadi. Bu relelar shuningdek, komanda opparatlari va dasturli qurilmalari texnologik jarayon davomida operatsiyalarni boshlash va tÿxtatishni, ularni ma'lum vaqt, ya'ni optimal sikl oraligida o'zaro boglangan xolda o'tishini ta'minlaydi. Elektromexanik vaqt relelarini taylorlashda sinxron dvigatellar xamda soat mexanizmlaridan foydalaniadi.

Avtomatik boshqarish tizimlarida signallarni vaqt bo'yicha kechiktirish uchun elektromagnit (10 s. gacha kechiktirish), pnevmatik (0,4 dan 180 s. gacha), motorli (bir necha sekunddan 26 min.gacha) va elektron (2 s. dan 600 s. gacha) vaqt releleri qo'llaniladi.

Vaqt relesi texnologik protsesslarni avtomatlashtirish uchun qo'llanadigan eng zarur elementlardan hisoblanadi. Bu relelar, shuningdek komanda apparatlari va programma qurilmalari texnologik protsess davomida operatsiyalarni boshqarish va to'xtatishni, ularning ma'lum vaqt — optimal sikl oralirida o'zaro bog'langan holda o'tishini ta'minlaydi.




4.18-rasm. Vaqt relesi (EV - 238 tipidagi).

Vaqt relelarining turlari juda ko'p, ishslash prinsiplari xam turlicha, signal kechiktirish vakti 0,5 s dan boshlab bir necha soatlar — sutkalarni tashkil qilishi ham mumkin. Biz elektromexanik vaqt relesi EV-238 bilan tanishamiz.

Elektromexanik vaqt relelarini tayyorlashda soat mexanizmlaridan foydalaniladi. Soat mexanizmini yuritish uchun esa prujinaning tortish kuchi o'mida elektromagnitning tortish kuchidan foydalaniladi. 4.13-rasmda elektrnomagnitli vaqt relesining prinsipial sxemalari ifodalangan.

Vaqt relesi kontaktlari (1, 2 va 3) soat mexanizmi (SM) ning shkalasi bo'yicha oldindan berilgan kechikish vaqtiga surib qo'yiladi. Bu chiqish signali  $X_{ch}$  ning kechikish vakti hisoblanadi. Relega kiruvchi signal  $X_k$  boshqarish kontakti  $K_b$  orqali beriladi. Kontakt  $K_b$  ulanganda elektromagnit E chulg'amidan tok o'tib, po'lat o'zakda magnit maydon hosil bo'ladi, uning kuchi  $F_{em}$  richaglar orqali soat mexanizmini yurgizib yuboradi. Soat mexanizmining o'qiga o'rnatilgan richag 4 aylanib kelib, berilgan kechikish vaqt davri ichida egiluvchi po'lat taxtacha 3 ni bosib to'xtaydi. Natijada 3—2 kontakt juftlari uzilib, 3—1 kontakt juftlari ulanadi va releda chikuvchi signal  $X_{ch}$  hosil bo'ladi. Bu signal o'z navbatida boshqarish zanjiridagi bironta ijrochi element (IE) ga yoki oraliq relega kiruvchi signal bo'lib ta'sir qiladi. Bu tipdag'i relelar chiquvchi signalni 0,5 dan 10 s gacha kechiktiradi.


**Elektron vaqt relesi** oddiy relesi bo'lib uni kirish zanjiriga parallel qilib aktiv qarshilik R xamda sigim S ulangan. Kontakt K ulanganda kondensator S manfiy kuchlanishga zaryadlanib, lampa yopiq xolda bo'ladi va anod zanjirida tok bo'lmaydi. Mobodo bu kontakt ajratilsa, kondensator qarshilik R orqali razryadla-nadi va setkani manfiy potentsiali kamayib anod zanjiridagi tok ortib boradi va elektromagnit releni ishga tushishiga olib keladi. quyida (4.19-rasm) shu releni sxemasi keltirilgan. Natijada kontakt ulangandan boshlab to elektrnomagnit rele ishga tushganga kadar ma'lum vaqt y'tadi. Odatda vaqt aktiv qarshilikni o'zgarishi orqali sozlanadi. Rele o'zgaruvchan qarshiligi dastagidagi strelka shkalada vaqt sekundlarda ko'rsatiladi.



4.19- rasm. Elektron vakt relesi sxemasi.

Masalan kondensator sigimi  $6 \text{ M}\mu\text{F}$  va qarshilik  $2 \Omega$  bo'lganda RS konturini vaqt doimiysi  $RC = 2 \cdot 10^5 \cdot 6 \cdot 10^{-6} - 12 \text{ c}$ , ishga tushish vaqt esa  $t = 4\tau = 48 \text{ c}$  bo'ladi.

4.19-rasmda yarimo'tkazgichli tranzistor asosida yig'ilgan sodda elektron vaqt relesi keltirilgan.



4.20-rasm. Tranzistorli elektron vaqt relesi sxemasi.

Boshlangich xolatda tranzistor VT yopiq, chunki uni bazasida musbat potentsial mavjud. Datchikdan signal berilishi bilanoq UK1 tutashuvchi boshqarish kontakti ulanadi, UK2 ajraluvchi kongtakt esa ochiladi. Zanjir bo'yicha kondeksator zaryadlanishi amalga oshadi: tok manbai plyusi – S – R2 – UK1 – manbaa minusi. Kondensatorni zaryadlanishi davomida VT tranzistor bazasidagi manfiy poteentsial xam oshib boradi. Uni ma'lum qiymatida tranzistor ochiladi, emitter – kollektor orqali tok o'tib R rele ulanadi, natijada S kondensator darxol razryadlanadi va VT tranzistor yopiladi. Shu tariqa R rele uziladi.

**Qutblangan releda neytral reledan** farqli o’laroq yakorning xarakatlanish yo’nalishi boshqaruv cho’lg’amidagi tok yo’nalishiga, ya’ni ta’midot manbai qutblarining ishorasiga bog’lik bo’ladi. Qutblangan rele (4.21 b-rasm) ikkita boshqaruv cho’lg’ami 1 va 2, po’lat o’zak 3, chap va o’ng tomonida xaraktlanuvchi kontaktlar o’rnatilgan yakor 5, qo’zg’almas kontaktlar 4, doimiy magnit 6 dan tashkil topgan. Boshqaruv cho’lg’amlari po’lat o’zakda ishchi magnit oqimi F ni, doimiy magnit esa, yakor orqali tutashuvchi va bir-biriga teng bo’lgan ikkita F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> potoklarga bo’linuvchi, qutblovchi potok F<sub>0</sub> ni xosil qiladilar.


O’zakning chap qismida F va F<sub>1</sub> potoklar qarama-qarshi tomonga yo’nalganliklari uchun o’zaro ayiriladilar, o’ng qismida esa F va F<sub>2</sub> lar bir tomonga yo’nalganliklari uchun ular qo’shiladilar. SHuning uchun o’zakning o’ng tomonida xosil bo’lgan tortish kuchi, chap tomondagiga nisbatan katta bo’ladi va yakor o’ng qutbga qarab xarakatlanadi. Ta’midot manbai ishorasi o’zgartiril-ganda, boshqaruv zanjiridagi tok yo’nalishi va unga qarab potok F yo’nalishi xam o’zgaradi. Endi chap qutbda F va F<sub>1</sub> potoklar qo’shiladi, o’ng qutbda esa ayiriladi va yakor chap qutbga o’tadi. Boshqaruv cho’lg’amida tok bo’limganda, yakor o’rta xolatni egallaydi, chunki bu xolda, F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> potoklari bir-biriga qarama-qarshi tomonga yo’nalgan bo’ladilar. Qutblangan relelar katta sezgir-lik va tezlik bilan ishlash qobiliyatiga ega.

**O’zgaruvchan elektr tokli relelari** o’zgarmas tok neytral elektr magnit relelaridan konstruktiv jixatdan shu bilan farq qiladiki, ularda uyurma toklar ta’sirida qizib ketishlarni kamaytirish maqsadida o’zaklar yaxlit qilib yasalmaydi, balki bir-biridan izolyasiyalangan elektrotexnik po’lat plastinkalardan yig’iladi. O’zgaruvchan magnit potoki ta’sirida sodir bo’ladigan yakor silkinishi va kontaktlarning uchqunlanishini yo’k qilish uchun, o’zgaruvchan tok relesi bosh cho’lg’amdan tashqari yana, qo’shimcha qisqa tutashtirilgan cho’lg’amga xam ega bo’ladi. Bosh cho’lg’am xosil qilgan magnit potoki qiska tutashuv cho’lg’amida EYUK xosil qiladi va undan tok o’tadi. Bu

tok, bosh cho'lg'am xosil qilgan potokdan faza bo'yicha orqada qolgan potok xosil qiladi. Bosh magnit potoki nolga teng bo'lganda, qiska tutashuv cho'lg'ami potoki xech qachon nolga teng bo'lmaydi va yakor o'zakka maxkam tortilganicha turadi, ya`ni silkinmaydi.

Elektr magnit relelarining tortish va mexanik tavsiflari mavjud. Relening tortish tavsifi deb, elektr magnit tortish kuchi  $F_3$  bilan yakor va o'zak oralig'idagi masofa 5 o'rtaсидаги bog'lanishга, ya`ni  $F_3=f(6)$  ga aytildi (4.22v-rasm). Elektr magnit tortish kuchini taxminan quyidagi tenglamadan topish mumkin:

$$F_3 = \frac{(IW)^2 \mu_0}{2} \cdot \frac{S}{\delta^2},$$



4.22- rasm. Elektr magnit relel.

bu erda: - xavo oralig'idagi magnitlovchi kuch;

- xavo oralig'inining

- xavaoning magnit kirituvchanligi g/m

$S$  – xavo oralig'inining ko'ndalang kesmi m<sup>2</sup>

Yuqoridagi tenglamadan ko'rinish turibdiki, xavo oralig'i 5 qiymati oshib borishi bilan, elektromagnit tortish kuchi o'zining minimal ( $F_{3min}$ ) qiymatigacha kamayadi. Relening mexanik tavsifi deb, mexanik kuch (yakor xarakatlanganda unga prujina tomonidan ko'rsatiladigan qarshilik kuchi)  $R_m$  bilan xavo oralig'i  $S$  o'rtaсидаги bog'lanishга, ya`ni  $F_M=f(6)$  ga aytildi.

## Himoya apparatlari.

Himoya apparatlari elektr zanjiri va unda ishlab turgan avtomatik sistema elementlari — mashina va mexanizmlarni ularda ro'y berishi mumkin bo'lgan zararli va xavfli rejimlardan saqlash uchun qo'llanadi. Elektr zanjirda uchraydigan qisqa tutashish, elektr yuritmalarining 'o'ta yuklanish' va tarmoq kuchlanishining nolga tushib qolishi kabi xodisalar zararli va xavfli rejimlardir. Bunday rejimlar sodir bo'lmasligi va o'z vaqtida bartaraf etilishini ta'minlaydigan himoya apparatlari sifatida eruvchan simli saqlagichlar, o'zgich avtomatlar, tok va issiklik relelarini, bloklash himoya sxemalarini ko'rsatish mumkin.

Ervchan saqlagich (ES) avtomatik boshqarish sistemasini elektr tarmori zanjiri va undagi elementlarni zanjirdagi qisqa tutashish oqibatida xosil bo'ladigan behad katta tok ta'siridan saklab qoladi. Qiska tutashish va bu holda elektr zanjirida xosil bo'ladigan behad katta tokning zararini quyidagi misoldan ko'rish mumkin. Faraz qilaylik, sexdagи elektr pechi tarmokda ulangan bo'lsin . Agar  $R_H = 42 \text{ OM}$  — elektr qizdirgichning qarshiligi;  $R_t = 2 \text{ OM}$  tarmoq zanjirining aktiv qarshiligi bo'lsa, normal rejimda tarmoq zanjiridan qizdirgichga o'tadigan tok kattaligi

$$I_H = \frac{U}{R_t + R_H} = \frac{380}{2 + 42} + 8.7A$$

bo'ladi (tarmoq zanjirining reaktiv qarshiligi hisobga olinmaydi). Qizdirgich zanjirining 'a' nuqtasida qisqa tutashish yuz berganda  $R \approx 0$ , tarmoq zanjiridan

o'tadigan tok esa  $I = \frac{380}{2 + 0} \approx 190A$  ga teng bo'ladi. Bu tok bir daqiqa ichida hamma tarmoq zanjirlarini kuydirib yuborishi, bunda tarmoq kuchlanishi juda xam kamayib nolga yaqinlashib qolishi natijasida sexdagи hamma elektr dvigatellar, butun sex ishdan to'xtab qolishi, sexga yoki zavodga katta iqtisodiy zarar etkazishi mumkin. Agar elektr qizdirgich zanjirida himoya apparati (ES) bo'lsa, bunday moddiy zararga yo'l qo'yilmaydi. Bu apparatdagi asosiy


kamchiliklar shuki, uning erib uzilgan simi yangi sim bilan almashtirib turiladi, apparat elektr zanjirini va undagi elementlarni fakat qisqa tutashish tokidan himoya qiladi. Mashina va mexanizmlarda bo'lishi mumkin bo'lgan o'ta yuklanish tokidan himoya qila olmaydi. Avtomatik boshqarish sistemalarining elektr zanjiri va undagi elementlarning ish davridagi yuklanishi berilgan nominal yuklanish mikdoridan xam ortsa, bu elementlar o'ta yuklangan bo'ladi. Agar qisqa tutashish toki element yoki tarmoqning nominal tokidan bir necha o'n marta katta bo'lsa, o'ta yuklanish toki elementning nominal tokidan 20 - 50% gacha ortiq bo'ladi. O'ta yuklanish tokining zarari shundaki u elektr yuritmalarda stator va rotor chulg'amlarida yoki zanjir qismlarida qo'shimcha issiqlik ajralishini juda tezlashtirib yuboradi, natijada yuritmaning chulg'amlari va elektr zanjirining izolyasiyalari qurib emirila boshlaydi va tez ishdan chiqadi, b u esa katta avariyalarga sabab bo'lishi mumkin.

Maksimal tok relesi. Elektr yuritmalar va elektrotexnik qurilmalarni boshkarish sistemalarini ularda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qisqa tutashish va o'ta yuklanish tokidan saqlash uchun amalda elektromagnitli maksimal tok relesi va issiqlik relesidan foydalaniladi.

4.23- rasmda maksimal tok relesi tuzilishining sxemasi keltirilgan. Unda karama- qarshi yo'nalgan ikki kuch - prujina 4 bilan elektromagnitning tortish kuchi taqqoslanadi. Prujina kuchining mivdori 8 shkalada oldindan berilgan bo'ladi. Elektromagnit chulg'ami zanjiridagi real tok kattaligi elektromagnit maydon kuchini belgilaydi.


Agar maydon kuchi  $F_{em}$  zanjirda sodir bo'lgan qisqa tutashish yoki o'ta yuklanish sababli prujinaning kuchi  $F_{pr}$  dan oshib ketsa, qo'zgaluvchi po'lat o'zak 3 o'z vali atrofida aylanib, o'ziga mexanik bog'langan Qo'zhaluvchi kontakt 5 ni so'rib, chiquvchi kontaktlar 6 ni ulaydi. Bu chiquvchi signal  $X_{ch}$  boshkarish sistemasidagi elementlarni himoya qilish va-zifasini bajaradi.

Issiqlik relesi. Issiklik relesi elektrotexnik qurilma va elektr dvigatellarni o'ta yuklanish singari zararli rejimlardan saqlash uchun xizmat qiladi. 4.24-rasmda issiqlik relesi tuzilishining sxemasi ko'rsatilgan.




4.23-rasm. Maksimal tok relesi:

1— qo'zg'almas po'lat o'zak; 2— elektromagnit chulg'ami; 3— qo'zg'aluvchi po'lat o'zak; 4— prujina; 5— suriluvchi kontaktlar; 6— qo'zg'almas kontaktlar; 7— berilgan tok mikdorini shkalada o'rnatuvchi strelka; v— prujina kuchiga muvofiq belgilangan tok mikdorlariking shkalasi.



4.24- rasm. Issiqlik relesi:

1 — qizdiruvchi element; 2 — bimetall plastinka; 3 — richag sistemasi; 4 — kontaktlar jufti; 5 va 6 — prujinalar; 7 — rele kontaktlarini kayta ulovchi knopka.



4.25- rasm. Avtomatik uzgich:

a — avtomatning ulanish sxemasi;  
6—avtomatniig prinsipial (1 fazali) sxemasi.

Bu rele asosan asinxron dvigatellarni o'ta yuklanishdan saqlash uchun qo'llanadi. Buning uchun dvigatelning ikki fazasiga ikkita issiklik relesi ulanadi. Relelarga kiruvchi signal dvigatelning faza toklari If xisoblanadi. Asinxron dvigatelning o'ta yuklanishi natijasida relening qizdirgichi 1 dan o'tgan tok I<sub>f</sub>


qizdirgichda issiklik ajralishini oshirib yuboradi. Issiklik ta'sirida bimetall plastinka yukori tomonga karab egiladi va richag 3 ni bo'shatib yuboradi. Natijada kontakt juftlari 4 uzilib, reledan chiquvchi signal xosil bo'ladi. Bu signalni dvigatelning boshqarish zanjiriga ta'siri natijasida dvigatel ishlashdan to'xtaydi.


Bimetall plastinka ikki turli metalldan yasalgan va bir-biriga parallel yopishtirilgan ikki plastinkadan iborat bo'lib, ularning issiklikdan kengayish koeffitsientlari har xil, ustki metallning cho'zilish (kengayish) koeffi-sienti pastkisinikidan bir necha marta kichikligi sababli bimetall plastinka issiqlik ta'sirida yuqoriga karab egiladi.

### Tiristor

Tiristorning tashqi ko'rinishi 4.26-rasm, a da ko'rsatilgan. U anod 1, boshkaruvchi elektrod 2, katod 3 dan iboratdir. Tiristor kuchli elektr zanjiridagi tokni kontaktsiz boshqarish (uzib-ulash) uchun xizmat qiladigan asbob bo'lib, r—p—r—p tipli kremniy yarim o'tkazgichlardan tuzilgan. Unda uchta  $\check{Y}_1$ ,  $\check{Y}_2$  va  $\check{Y}_3$  o'tish šatlamlari mavjud (4.26-rasm, b).

Tiristorning anodi R nagruzka karshiligi orkali manbaning musbat qutbiga, katodi esa manfiy qutbiga ulanadi. SHunda o'tish qatlamlari  $\check{Y}_1$  va  $\check{Y}_3$  tiristorning anod kuchlanishi  $U_a$  ning yo'nalishiga mos ravishda kutblanib (r—p) o'rtadagi katlam  $\check{Y}_2$   $U_a$  ga nisbatan qarama-karshi qutblarga (p—r) ega bo'ladi (1-rasm, b).





4.26-rasm. Tiristor. a — tiristorning tashqi ko’rinishi; b — tuzilishi; v — volt-amper xarakteristikalarini; g — faza-impulslari boshqarish grafiklari; 1 — anod kuchlanishi; 2 — bo’zqaruvchi impulslar; 3 — nagruzka kuchlanishi; d — ulanish sxemasi.

Qatlam  $\dot{Y}_2$  ning qarshiligi juda katta (100 kOm) bo’lishi sababli tiristordan anod toki  $I_a$  o’tmaydi, tiristor yopiq bo’ladi.

Tiristorni ochish uchun manba kuchlanishini yoki anod kuchlanishini orttirib  $\dot{Y}_2$  qatlam qarshiligini engish kerak. Bunday kuchlanish tiristorning ochilish kuchlanishi  $U_{och}$  yoki kritik kuchlanish deb ataladi, miqdor jihatidan ochilish kuchlanishi 1000 voltdan xam yukori bo’ladi.

Tiristor ochilishi bilan uning ichki qarshiligi keskin kamayadi. Anod kuchlanishi  $U_a$  tiristorning voltamper xarakteristikasidagi nukta I dan nukta 5 ga sakrab o’tadi, anod toki  $I_a$  keskin oshadi. Bu tok kattaligi endi  $\dot{Y}_2$  o’tish qatlaming ichki qarshiligi bilan emas, balki tashqi qarshilik  $R$  bo’yicha

aniqlanadi  $I_a = \frac{U}{R}$ , chunki o'tish qatlami  $\check{Y}_2$  dagi kuchlanish tushuvi kichik — 0,5 - 1 V bo'ladi. Qarshilik R ni kamaytirish (anod toki yoki zanjirning yuklanishini oshirish) yo'li bilan anod tokini 400 A dan xam oshirish mumkin (1- rasm, v).

Tiristorning o'tkazgichga aylanishini ( $\check{Y}_2$  katlamdagi elektronlar va teshiklarning xarakat tezligi ortib ketishi) qatlam  $\check{Y}_2$  ning teshilish xodisasi asosida tushuntirish mumkin.

Tashqi zanjir qarshiligi ortsa, tiristorning anod toki kamayadi.

Volt-amper xarakteristikaning nuqtasi 5 ga kelganda anod kuchlanishi sakrab xarakteristikaning kiritik nuktasi 1 ga o'tadi. Bu xodisa o'tish qatlami  $\check{Y}_2$  ning karshiligi tiklanganini ko'rsatadi. Endi anod tokini yana xam kamaytirish uchun tiristorga qo'yilgan manba kuchlanishini kamaytirish kerak.  $U_a = 0$  bo'lganda,  $I_a = 0$  bo'lishini xarakteristikadan ko'rish mumkin. Bunday rejimda o'tish katلامи  $\check{Y}_2$  ni  $U_a$  ga nisbatan qarshiligi yana tiklanadi. Tiklanish vaqtiga 10—30 mкc dan oshmaydi.

Anod kuchlanishi manfiy —  $U_a$  yo'nalishda oshirilsa, bunga qatlam  $\check{Y}_2$  qarshilik ko'rsatmaydi, chunki qatlam qutblanishi ( $r_2-p_1$ ) tashqi anod kuchlanishining yo'nalishiga moc bo'ladi. Bunday xolatda  $U_a$  kuchlanishiga o'tish qatlamlari  $\check{y}_1$  va  $\check{y}_3$  qarshilik ko'rsatadi, ularning qutblanishlari ( $p_1-r_1$ ) va ( $p_2-r_2$ ) anod kuchlanishi  $U_a$  ga teskari yo'nalgan bo'ladi. Anod kuchlanishi  $U_a=1000$  voltga etganda tiristor teskari tomonga ochiladi, anod toki  $I_a$  keskin oshib ketadi.

Tiristorda teshilish sodir bo'ladi va u ishdan chiqadi. Endi anod kuchlanishi  $U_a = 0$  bo'lganda tiristor o'tish qatlamlarining qarshiligi qayta tiklanmaydi.

Kuchli elektr zanjiridagi tokni tiristorning anod kuchlanishini o'zgartirish yo'li bilan boshqarish katta texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. SHu sababli amalda elektr zanjiridagi tokni boshqarish uchun tiristorning  $\check{y}_2$  o'tish qatlamiga alohida manba  $U_b$  dan boshkaruvchi musbat kuchlanish (tok  $I_b$ ) beriladi.

Boshqaruvchi tok  $I_b$  odatda  $r_2 - p_1$  o'tishga ta'sir qiladi (1- rasm, b).

Boshqaruvchi tok  $1b$  bilan  $r_2 - p_g$  o'tishga berilgan zaryadlar  $\tilde{Y}_2$  qatlamdagi atomlar ionizatsiyasini oshiradi. Natijada qatlam  $\tilde{Y}_2$  da qo'shimcha zaryadlar (ionlar) vujudga keladi. Bu zaryadli ionlar anod kuchlanishi  $U_a$  ga moc yo'nalishda kutblangan bo'lganligi sababli (1- rasm, b) tiristorning ochilish kuchlanishini kamaytiradi.

Boshqarish toki  $I_b$  ning o'zgarishi — oshishi ( $1b = 0 — 30$  mA) tiristorning ochilish kuchlanishini volt-amper xarakteridagi 1, 2, Z, 4 nuqtalarga muvofiq kamaytiradi.

Tiristor faqat ikki holatda — ochiq yoki yopiq xolatlarda 60'lisi mumkin. Ochiq holatda tiristor tokni o'tkazadi, yopiq xolatda esa tokni o'tkazmaydi.

Tiristor o'zgaruvchan tok zanjiriga ulanganda o'zidan faqat musbat yarim to'lqinni to'la o'tkazadi. Buning uchun boshqaruvchi musbat tok impulsining chastotasi anod kuchlanishi chastotasi bilan teng, anod yarim to'lqini bilan bir vaqtda tiristorning  $p_1 - r_2$  o'tishiga ta'sir qilishi va uni ochishi kerak bo'ladi. Agar boshqaruvchi impuls chastotasi anod kuchlanishi chastotasiga teng, lekin uni ta'sir qilish fazasi anod musbat yarim to'lqiniga nisbatan  $\alpha$  burchakka kechikadigan bo'lsa, tiristor o'zidan anod yarim to'lqinini to'la o'tkazmaydi, balki bir qismini, tiristor ochilgandan keyingi kismini o'tkazadi (1-rasm, g, 3-grafik). SHunda zanjirdagi kuchlanish oldingi  $\alpha = 0$  bo'lgandagi to'la to'lqin miqdoriga nisbatan kam bo'ladi. Tiristorni bunday boshqarish usuli faza-impulslari boshqarish deb ataladi. 1- rasm, g da tiristorni faza-impulslari boshqarish prinsipini ko'rsatuvchi grafiklar ko'rsatilgan. Undagi burchak  $\alpha$  rostlash burchagi deb ataladi. Bu burchak kanchalik katta bo'lsa, tiristor shunchalik kichik vaqt oralig'ida ochiq bo'ladi. SHunga muvofiq elektr zanjiridagi tok ham kichik bo'ladi.

Xozirgi vaqtda tiristorlar boshqariluvchi to'g'rilaqich, kontaktsiz kommutatsion apparat, chastota o'zgartkich va invertorlarning asosiy elementlari sifatida texnologik protsesslarni avtomatlashtirishda keng

qo'llanmoqda, xususan texnologik mashinalarning elektr yuritmalarini (o'zgarmas va o'zgaruvchan tok dvigatellari) tezligini rostlash uchun asosiy texnik vosita bo'lib qolmoqda.

#### **IV-bob bo'yicha nazorat savollari**

1. Relelarni klassifikatsiyasi
2. Relening asosiy vazivasi ?
3. Rele deb nimaga aytildi ?
4. Elektromagnit relening ishslash prinsipini tushuntiring ?
5. Rele nima vazifani bajaradi?
6. Rele turlarini sanag va tushintiring?
7. Rele parametrlarini tushuntiring?
8. Elektromagnit releni tushuntiring?
9. Elektron releni tushuntiring?
10. Fotoreleni tushuntiring?
11. Tranzistorli fotoreleni tushuntiring?
12. Vaqt relesini izoxlang?
13. Elektron vakt relesini tushuntiring?
14. Qutblangan releni tuzilishi qanday?
15. Vaqt relesini tuzilishi va ishlatilishini tushuntiring
16. Issiqlik relesini tuzilishi va ishlatilishini tushuntiring

### **V-BOB. BOSHQARISH SISTEMALARINING RAQAMLI ELEMENTLARI**


#### **5.1. Mantiqiy elementlarning funksiyalari**

Mantiqiy elementlar mantiqiy ifodalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, barcha arifmetik va mantiqiy amallarni ular asosidagi qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Quyidagi rasmlarda hisoblash mashinalarida qo'llaniladigan asosiy mantiqiy elementlar va ularning ishslash prinsiplari keltirilgan.


### ‘VA’ - mantiqiy ko’paytirish, ‘konyunksiya’ elementi

X va Y kirishlarga bir vaqtda “1” signali berilsa (ya’ni ulagichlar bir vaqtdulansa), Z chiqishda “1” signali hosil bo’ladi (ya’ni lampa yorishadi). Kirishlardan birortasiga yoki bir vaqtda ikkalasiga ‘0’ signali berilsa (ya’ni ulagichlardan biri yoki bir vaqtda ikkalasi ulanmagan holda bo’lsa), chiqishda ‘0’ signali hosil bo’ladi (ya’ni lampa o’chgan holda bo’ladi).

Схематик белгиланиши



Ишлаш принципи




Мантиқий кўпайтириш

X	Y	Z
0	0	0
0	1	0
1	0	0
1	1	1


‘VA’ elementi mantiqiy funksiya sifatida  $Z = X \& Y$ , ham da  $Z = X * Y$  yoki  $Z = X \wedge Y$  ko’rinishlardan birortasilf tasvirlanashi mumkin.

### ‘YOKI’ - mantiqiy qo’shish, ‘dizyunksiya’ elementi

Схематик белгиланиши



Ишлаш принципи



Мантиқий қўшиш


X	Y	Z
0	0	0
0	1	1
1	0	1
1	1	1

X va Y kirishlarga bir vaqtda “0” signali berilsa (ya’ni ulagichlar bir vaqtda ulanmagan holda bo’lsa), Z chiqishda “0” signali hosil bo’ladi (ya’ni lampa o’chiq holda bo’ladi). Kirishlardan birortasiga yoki bir vaqtda ikkalasiga ‘1’ signali berilsa (ya’ni ulagichlardan biri yoki bir vaqtda ikkalasi ulansa), chiqishda ‘1’ signali hosil bo’ladi (ya’ni lampa yorishadi).

‘YOKI’ elementi mantiqiy funksiya sifatida  $Z = X + Y$  ham da  $Z = X \vee Y$  kurinishlarda tasvirlanadi

### ‘INKOR’ - mantiqiy inkor qilish (‘EMAS’) elementi

Схематик белгиланиши



Мантиқий инкор


X	Y
0	1
1	0

‘INKOR’ elementining chiqishidagi son uning kirishidagi songa nisbatan teskari kodga ega bo’ladi.

‘INKOR’ elementi mantiqiy funksiya sifatida  $Y = \bar{X}$  ko’rinishda tasvirlanadi.

### ‘VA – INKOR’ - mantiqiy ko’paytirishning inkori elementi

Схематик белгиланиши



Мантиқий функцияси

$$Z = \overline{X \& Y}, \quad Z = \overline{X * Y}$$

Ишлаш жадвали


X	Y	Z
0	0	1
0	1	1
1	0	1
1	1	0

X va Y kirishlarga bir vaqtida ‘1’ signali berilsa, Z chiqishda ‘0’ signali hosil bo’ladi. Kirishlardan birortasiga yoki bir vaqtida ikkalasiga ‘0’ signali berilsa, chiqishda ‘1’ signali hosil bo’ladi.

### ‘YOKI - INKOR’ - mantiqiy qo’shishning inkori elementi

X va Y kirishlar bir vaqtida ‘0’ signali berilsa, Z chiqishda ‘1’ signali hosil bo’ladi. Kirishlardan birortasiga yoki bir vaqtida ikkalasiga ‘1’ signali berilsa, chiqishda ‘0’ signali hosil bo’ladi.

Схематик белгиланиши



Мантиқий функцияси

$$Z = \overline{X \vee Y},$$

Ишлаш жадвали

X	Y	Z
0	0	1
0	1	0
1	0	0
1	1	0

## 5.2. Raqamli avtomatika. Avtomatikaning funksional elementlari. Raqamli elementlarni asosiy komponentlari, qo'llanilishi va qo'yiladigan talablari

Raqamli xisoblash texnikasining asosiy qurilmalaridan biri – **summator**dir. Bir razryadli ikkilik sonlarni qo'shish uchun qo'llaniladigan ‘YArim summator’ sxemasini loyixalash jarayonini ko'rib chiqamiz:


### **V-bob bo'yicha nazorat savollari**

1. Mantiqiy element qanday ish bajaradi?
2. Kontaktsiz mantiqiy element nima?
3. Integral mikrosxema deb nimaga aytildi?
4. Ko'p emitterli mikrosxema qanday ishlaydi?
5. 'VA-YOKI-YO'Q' mantiq funktsiyasi qanday?
6. Integral mikrosxema asosidagi mantiqiy qurilma nima?
7. Mantiqiy funktsiyaning tarkibi nimadan iborat bo'ladi?
8. Multipleksor va demultipleksorlarni ishlash prinsipini tushuntiring?
9. SHifrator va deshifratorni kanday farqi bor?
10. Registrlar va sanash qurilmalarini ishlash prinsipini tushuntirib bering?
11. Xotira elementlari – triggerlarni ishlash prinsiplerini tushuntirib bering?
12. Raqamli avtomatikaning asosiy komponentlarini tushuntirib bering?

## **VI-BOB. BOSHQARISH SISTEMALARINING IJRO QILUVCHI QURILMALARI.**

### **6.1. Ijro qiluvchi doimiy tok dvigatellarini ishlash prinsiplari.**

Ijro mexanizmlari haqida tushuncha va ularning turkumlanishi.

Avtomatik rostlash tizimining ijro mexanizmi deb rostlovchi organi uzatilayotgan signalga muvofiq harakatga keltiruvchi moslamaga aytildi. Rostlovchi organni vazifasini drossellar, to'sqichlar, klapanlar, shiberlar bajaradi.

Ijro mexanizmlarining asosiy ko'rsatkichlari: chiqish validagi aylanish momentining nominal qiymati yoki chiquvchi shtokdagi ta'sir etuvchi kuch; aylantiruvchi moment yoki kuchlarning maksimal qiymati; nosezgirlik maydoni; inertsionlik vaqtini ko'rsatuvchi vaqt doimiysi; ijro mexanizmlarini chiqish valining aylanish vaqtini yoki uning shtokining surilish vaqtini. Ijro mexanizmini ishdan to'xtagandan so'ng turg'unlashgan rejim vaqtida ishlab turganda chiqish organining surilishi yugurish holati deb ataladi. Bu holat rostlash sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

## ELEKTRIK IJRO MEXANIZMLARI

### ELEKTRODVIGATELLI

Bir aylanishli

Ko'p aylanishli

Qadamli

Doimiy aylanishli

### ELEKTROMAGNITLI

Solenoidli

Uzoq muddatli  
tok o'tkazuvchan

Qisqa muddatli  
tok 'otkazuvchan

Elektromagnitli mufta

Ijro mexanizmlarining asosiy ko'rsatkichlari – ularning statik va dinamik tavsifnomalari hisoblanadi. Dinamik xususiyatlarga ko'ra ijro mexanizmlari integrallovchi zvenolar guruhiga kiradi:  $W(p) = 1/T_{im} r$ , bu erda  $T_{im}$  – maksimal chiqish signali vaqtida IM chiqish organining to'liq surilish vaqt. Ijro mexanizmlarini quyidagi asosiy belgilariga ko'ra sinflarga ajratish mumkin: foydalanilgan energiya turiga ko'ra, chiquvchi organning harakat xarakteriga ko'ra; foydalanilgan yuritma turiga ko'ra hamda chiquvchi organning

harakatlanish tezligiga ko'ra. Foydalanilgan energiya turiga ko'ra IM lar elektrik, pnevmatik, gidravlik turlariga ajratiladi. Foydalanilgan elektr yuritma ko'rinishiga qarab IM lar elektr yuritmali, elektromagnitli, porshenli va membranalni bo'lishi mumkin. Chiquvchi organning harakatlanish tezligiga ko'ra IM lar doimiy tezlikka ega bo'lgan hamda chiquvchi organning surilish tezligi chiquvchi signalga proportsional bo'lgan IM larga ajratiladi. Qishloq va

suv xo'jaligi ishlab chiqarishida elektrik IM lar keng tarqalgan. Ularni 2 ta asosiy guruxga ajratish mumkin: elektr dvigatelli va elektromagnitli.

Birinchi guruxga elektr yuritmali IM lar kiradi. Elektr yuritmali IM lar odatda. Elektr yuritma, reduktor va tormozdan tashkil topadi (oxirgisi bo'lmasligi ham mumkin). Boshqaruv signali bir vaqtning o'zida yuritma va tormozga beriladi, mexanizm to'xtay boshlaydi va yuritma chiquvchi organni harakatga keltiradi. Signal yo'qolganda yuritma ishdan to'xtaydi, tormoz mexanizmni to'xtatadi.

Ikkinci guruxga solenoidli IM larni kiritish mumkin. Ular turli xil rostlovchi klapanlar, vintellar, zolotniklar va boshqa elementlarni boshqarish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu guruxga elektromagnitli muftalarni kiritish mumkin. Solenoidli mexanizmlar odatda faqat ikki pozitsiyali rostlash tizimlarida qo'llaniladi. Elektr yuritmali IM lar odatda elektr yuritma, reduktor va tormozdan tashkil topadi (oxirgisi bo'lmasligi ham mumkin). Boshqaruv signali bir vaqtning o'zida yuritma va tormozga beriladi, mexanizm to'xtay boshlaydi va yuritma chiquvchi organni harakatga keltiradi. Signal yo'qolganda yuritma ishdan to'xtaydi, tormoz mexanizmni to'xtatadi.

### **Elektrodvigatelli ijro mexanizmlari.**

Turli rostlovchi organlarni surilishini ta'minlash uchun klapanlar, drossel qopqoqlar, so'rg'ichlar kranlarda elektr yuritmali IM lar qo'llaniladi. Ular elektrik va elektron rostlagichlar bilan komplekt holda ishlataladi. Bu IM larda uch fazali va ikki fazali asinxron elektr yuritmalar qo'llaniladi. Elektrodvigatelli IM lar o'z avbatida bir aylanishli (MEO tipli), ko'p aylanishli (MEM tipli), to'g'ri harakatlanuvchan (MEP tipli) ko'rinishlarda bo'ladi. Misol sifatida PR-1M tipdagi IM bilan tanishamiz. Ushbu mexanizm bir fazali reversiv elektrodvigateli, reduktor, chekka kalitlar tizimi va reaxorddan iborat. PR-1M IM  $0^\circ$  va  $180^\circ$  oraliqdagi har qanday holatda valning burilishini to'xtatish imkoniyatiga ega. Buning uchun reoxorda ko'rinishidagi 180-190 Om qarshilikka ega bo'lgan teskari aloqa printsipida ishlaydigan qarshilik


cho'lg'ami va u bo'ylab harakatlanadigan, hamda valga qotirilgan jildirgichdan iborat.

### **Takomillashtirilgan elektrik ijro mexanizmlari.**

Takomillashtioilgan elektrik ijro mexnizmlari ko'p aylanishli quvurli armaturani distantsion boshqaruvi uchun qo'llanadi. Bu ijro mexanizmlari M,A,B,V,G,D rusumli elektr yuritmalari nomini olgan bo'lib, ular gidromelirrativ tizimlarining avtomatlashtirilgan nasos stantsiyalarida qo'llaniladi. Ular bir-biridan maksimal aylanish momenti, reduktorining tuzilishi, gabarit ulanish o'lchamlari va ba'zi konstruktiv elementlari bilan farqlanadi.

Elektr yuritmalarining barcha konstruktiv elementlari maksimal darajada unifiktsiyalangan, yuritma validagi ruxsat etilgan momentni chegaralovchi maxsus qurilmalari va boshqaruv sxemalariga ega elektr yuritmalarini ekspluatatsiya sharoitlariga ko'ra normal holatda ishlashi uchun jadvalda ularni tiplariga ko'ra texnik ma'lumotlar keltirilgan. Elektr yuritmalarining normal holatidagi joylashtirilishi vertikal holat hisoblanadi (yuritma vali vertikal joylashtiriladi). B,V,G,D tipli elektr yuritmalarining ish printsipi va tuzilishini ko'rib chiqamiz. Elektr yuritmaning kenematik sxemasi 6.1-rasmda keltirilgan. Elektr yuritma quyidagi asosiy elementlar va qismlardan tashkil topgan: chervyakli tsilindrik reduktor, qo'l tumbleri qismi, elektr motori, va o'chirgichlar qutilari. Yo'l va moment o'chirgichlari qutilari korpusga mahkamlanadi. Korpusga podshipniklardagi 46-chervyakli 45 shlikli val montaj qilingan. SHirikli valda aylantiruvchi momentni chegaralovchi mufta joylashgan. 6-maxovikli qo'l dublerlari sharikli valni oxiriga ulangan. SHu erda bo'sh qilib kulachokli 4-tsilindirik g'ildirak joylashtirilgan. Korpusga xuddi shunday ravishda yo'l va moment o'tkazgichlari qutisiga aylanishni uzatuvchi 43-chervyakli g'ildirakka ega bo'lgan va 40, 41-tsilindrik shestrmyalari bilan plita ulangan.

Elektr motor tipi	Joylashtirilishi	Ishchi harorat oralig‘i S	Tashqi muhitning nisbiy namligi 20 Sda %	Moylash davriyiligi
M	Xonalardagi va ochiq havodagi statsionar qurilmalar	- 20...+35	80gacha	Uch oyda 1 marta
A	-	-40...+40	95 gacha	
B,V,G,D				Bir yildan kam emas



6.1.-rasmda Takomillashtirilgan elektrik ijro mexnizmlari (elektr yuritmali surgichlar)ning kinematik sxemasi.

Quti quyidagi asosiy elementlarda tashkil topgan. 34-chervyakli yul o'chirgichlari qismi, 33- chervyakli g'ildirak, 27,30-kulochoklar,25,26- moment o'tkazgichlari: 24 va 36-richaglari, purjinalar 22, 35-blokirovka kulochoklari 23,31- mikroo'tkazgichlar 21,32 shestrnali ko'rsatkich qismi 19,20: strelka 18, 17-shestrnyali distantsion ko'rsatkichlar qismi, 16-potentsioner.

Elektr motori ishga tushirilganda elektr yuritma quyidagicha ishlaydi. Aylanma harakat elektr motoridan 2,3,4-tsilndirik g'ildirak va 5-kulachokli mufta orqali 45 sharikli valga uzatiladi. 46 chervyak g'ildirak orqali aylantiruvchi moment ishchi organning (surg'ich) yuritma valiga uzatiladi. Bundan tashqari, 47 chervyak 43 chervyali g'ildirak, 41 va 40- tsilindirik shestrnalar orqali harakat 39-vilka, 33 va 34 chevyak jufti 0,19 shestrnya 18 ko'rsatkich strelkasi va 17 shesterna orqali 16-potentsiometr valikiga uzatiladi. Elektr motorini ishida aylanishi momentini maxovikka uzatish mumkin emas, chunki maxovikni 7- kulochokli vtulkasi ajratilgan holatda bo'ladi. Bu vaktda 5 muftoning kulokchalari 5-tsilindirli g'ildirak kulokchalari bilan bog'lanib qoladi va ular orqali harokat 45 shlitsli valga uzatiladi. Elektr motori qo'shilganda 6-mufta kulachoklari bilan 4 g'ildirak kulachoklari birlashadi, bu holda 5-mufta 9 shtok orqali 7 vtulkani 45 shpitsli val kulachoklaridan bo'shatadi. Bunday mexanik blokirovka 45 shlitsli valni birvaktning uzida elektr motori va qo'l boshqaruvida ishlashini oldiini oladi. Elektr yuritmalar aylanish momentini 3 tomonlama chegaralovchi mufta bilan ishlab chiqariladi. Ularning ish printsipi quyidagicha: maxkamlovchi armatura ishchi organi uning 'Ochiq' va 'YOpiq' holatlarining qandaydir. Oraliq holatlarida aylanish momenti maksimal qiymatida bo'lgan 44 yuritma vali to'xtaydi. Bu vaqtida 46 chervyak, 42 chervyakli g'ildirak o'qiga uraladi va buni natijasida harakatlanayotgan 1 elektr motori orqali shtitslar bo'yab o'qning yo'nalishida harakatlana boshlaydi. 46 – chervyakning oldinga harakati 10 richag, 11, uk, 12 – tishli sektor, 14 va 39 vilkalar, 13, 15, 37, 38 – tsilindrli g'ildiraklar yordamida 25 va 26 moment kulachoklarining aylanma harakatiga o'zgartirib beradi. Ular aylanganda 24 va 36 richaglar 21 va 32 mikroalmashlab ulagichlarni quyib yuboradi va elektr motor zanjiri uziladi. M va A tiplaridagi elektr motorlari tuzilishi jixatidan B,V,G va D tipidagi elektr motorlaridan farq qiladi. Ularda chervyakli reduktor o'rniga tsilindrli reduktor qo'llaniladi. Yana bir kancha kinematik bo'g'lnlarda ma'lumo'uzgarishlar bor, lekin motorlarining barcha turlarining ish printsipi bir xil. Maksimal tok relesiga ega bo'lgan elektr yuritmalar. Elektr motorlarni

yuklamalardan ximoyalash va maxkamlovchi armaturani maxkamlab yopish maqsadida ish tipdagi elektr yuritmalar statorining fazalaridan biriga tok relesi bilan ta'minlanadi.

Elektr motori validagi qarshilik momenti ortishi bilan ishchi tok taxminan aylanish momenti kadratiga proportsional ravishda ortadi. SHuni hisobga olib, aylanish momentini chegaralovchi mufta o'rniga tok relesini qo'llash mumkin. SHu maqsadda elektr motorini ta'minlovchi kuch tarmog'ining fazalaridan biriga oniy harakatli maksimal tok relesi ulanadi. Uning ajratuvchi kontakti esa reversiv magnit ishga tushirgich g'altagi zanjiriga ulanadi.

Maksimal tok relesini qo'llash elektr yuritma konstruktsiyasini soddalashtirish, uning massasi va gabarit o'lchamlarini kamaytirish imkoniyatini beradi, lekin bu holda boshqaruv sxemasi bir muncha murakkablashadi. Maksimal tok relesi bo'lgan elektr motorlari faqat so'rg'ichlarda o'rnatiladi. SHpindel armaturasidagi aylanish momenti siljiganda elektr motori rele yordamida yo'l o'chirgichi bilan harakatga keladi.

### **Elektromagnitli ijro qiluvchi qurilmalar.**

Avtomatik rostlash va boshqarish tizimlarida elektr energiyasini ishchi organning tekis harakatiga aylantirib beruvchi elektromagnitli uzatmalar IM lar sifatida qo'llanishi mumkin. Bu elementlar yana solenoidli mexanizmlar deb ham yuritiladi.

Elektromagnitli IM lar tipi, tuzilishiga ko'ra chiqish koordinatasi ko'rinishlarga ajratilishi mumkin: to'g'ri harakatlanuvchan rostlovchi organga ega bo'lgan IM lar uchun: siljish, tezlik ta'sir qiluvchi kuch; aylanuvchan harakatga ega bo'lgan rostlovchi organli IM lar uchun: aylanish burchagi, aylanish chastotasi, aylanish momenti.


Elektromagnitlar o'zgaruvchan (bir fazali va uch fazali), o'zgarmas tokli bo'lishi mumkin. Ularning asosiy tavsifnomasi: yakorning surilishi; yakorning surilishi va tortish kuchi orasidagi bog'lanish; yakorning surilishi va elektroenergiya sarfi, ishga tushish vaqtি orasidagi bog'lanish. Yakorning

maksimal surilishiga qarab qisqa yurishli va uzun yurishli elektromagnitlar ajratiladi.

Elektr ijrochi elementlar tok, kuchlanishning miqdoriy o'zgarishini va elektr signali vazifasini o'zgarishini burilish, surilish va aylanish kabi mexanik xarakatlarga aylantiradi. Ijrochi elektr yuritmalar sifatida kichik kuvvatli o'zgaruvchan va o'zgarmas tok yuritkichlарidan foydalaniladi. O'zgarmas tok yuritkichlari magnit maydoni qo'zgatish usuliga ko'ra mustaqil qo'zgatishli, o'zgarmas tok magnitli, parallel qo'zgatishli va aralash qo'zgatishli yuritkichlarga bo'linadi. Bular ichida avtomatika talablariga mos keladiganlari o'zgarmas magnitli, mustaqil qo'zgatishli va parallel qo'zgatishli yuritkichlardir. (6.2-a,b,v rasm)

Xozirgi vaqtida DPM (dvigatel s postoyannom magnitonом) seriyali magnito-elektrik yuritkichlar ijrochi elementlar sifatida keng qo'llanilmoqda. (6.2a- rasm) YUritkichda magnit qo'zgatish uchun o'zgarmas magnitdan foydalaniladi. Parallel qo'zgatishli yuritkichning magnit qo'zgatish o'ramasi yakor o'ramasiga parallel ulanadi. (6.2a- rasm)

Qo'zgatish toki:  $I_f = I - I_{ya}$ . Quvvati 100-150 Vt bo'lgan yuritkichlarda qo'zgatish toki  $I_f = (5-10\%) I_{ya}$



6.2 – rasm

Quvvati (5-10) Vt dvigatellarda  $I_f = (30-50\%)I_{ya}$  ni tashkil qiladi. Elektr signallar bilan mashinani aylanish chastotasi n orasida bog'lanishni topish uchun dvigatelning yakor zanjiridagi kuchlanish tenglamasini yozamiz:

$$U = E_{ya} + I_{ya}(R_{ya} + R_q + R) \quad (6.1)$$

Bunda  $E_{ya} = S_e n F$  bo'lGANIUCHUN:

$$U = C_e n F + I_{ya}(R_{ya} + R_q + R) \quad (6.2)$$

Mashinaning aylanish tezligi

$$n = (U - I_{ya}(R_{ya} + R_q + R)) / C_e F \quad (6.3)$$

bo'ladi. Agar dvigatel valda hosil bo'ladiGAN moment

$$M = C_m I_{ya} F, I_{ya} = M / C_m F$$

hisobga olinsa

$$\begin{aligned} n &= (U - M / C_m F (R_{ya} + R_q + R)) / C_e F = \\ &= (U - C_m F - M (R_{ya} + R_q + R)) / C_m C_e F^2 = \\ &= U / C_e F - M (R_{ya} + R_q + R) / C_m C_e F^2 \text{ min}^{-1}. \\ n &= U / C_e F - M (R_{ya} + R_q + R) / C_m C_e F^2 \text{ min}^{-1} \end{aligned} \quad (6.4)$$

Avtomatlashtirishda dvigatel tezligini boshqaruvchi signal sifatida yakor kuchlanishi Uya yoki qo'zg'atish toki  $I_f$  dan foydalaniladi. Agar qo'zg'atish toki  $I_f$  yuritmaga kiruvchi signal bo'ladiGAN bo'lsa, unda mustaqil qo'zg'atishli dvigateldan foydalanish samaraliroq bo'ladi. Parallel qo'zg'atishli dvigatelning mexanik xarakteristikaları  $n=f(I_{ya})$  yoki  $n=f(M)$  7.1 rasmida ko'rsatilgan. Bu xarakteristikalar  $I_f=\text{const}$  bo'lgan hol uchun chizilgan. Unda yakor kuchlanishini o'zgartirish uchun yakor zanjiriga ulangan qo'shimcha qarshilik  $R_q$  dan foydalanilgan. Kuchlanish tenglamasiga muvofiq

$$U_{ya} = U - I_{ya} R_q \quad (6.5)$$

Qo'shimcha qarshilik  $R_q$  ko'payishi bilan Uya kamayadi. Bu o'z navbatida dvigatel tezligini kamaytiradi. Qo'shimcha qarshilik  $R_q=0$  bo'lganda dvigatel o'zining tabiiy xarakteristikasida (6.1) ishlaydi. 6.5-xarakteristikada

dvigatelning aylantiruvchi momenti  $M$  nagruzka momenti  $M_n$  bilan teng bo'lganda, dvigatel to'xtaydi. Ya'ni  $n = 0$  bo'ladi.

Qolgan barcha qo'shimcha qarshiliklarda dvigatel o'zining nominal nagouzkasida ishlayveradi. Yakor kuchlanishining o'zgarishi dvigatel tezligini noldan  $n_N$  gacha o'zgaradi. Agar Uya ning qutblari o'zgarsa, yakorning aylanish yo'naliishi ham teskarisiga o'zgaradi. Hozir DMD seriyali magnitoelektrik doimiy magnitli dvigatellar (6.2-rasm,a) ijrochi yuritmalar sifatida keng qo'llanilmoqda. O'zgarmas tok dvigatellarining asosiy kamchiligi ularda kontakt chyotkasi borligi va o'zgarmas tok manbaining talab qilishdir.

### **Elektromagnitlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:**

1. Tanlanayotgan konstruktsiya siljish uzunligi, tortish kuchi va berilgan tortish tavsifnomasiga mos kelishi kerak;
2. Tez harakatlanuvchan tizimlar uchun shixtalangan magnitli o'tkazgichga ega bo'lgan elektromagnitlar, sekin harakatlanuvchan tizimlar uchun shixtalanmagan magnit o'tkazgichga ega bo'lgan hamda massivli mis gilbzali elektromagnitlar qo'llanilishi mumkin.
3. Ishga tushish tsikllari soni yo'l qo'yilgandan kam bo'lishi kerak.
4. Bir xil mehanik ishlar uchun o'zgaruvchan tok elektromagnitlari o'zgarmas tokda ishlovchi elektromagnitlarga nisbatan ko'proq elektroenergiya talab qiladi.
5. Elektromagnitlar ishlatish uchun qulay va oddiy bo'lishi kerak.

Elektromagnitlarni kuchlanish, tok va quvvat kattaliklari orqali tanlash mumkin. Elektromagnit tanlangandan so'ng uning cho'lg'amlari qizishga nisbatan xisoblanadi. Bu holda ro'xsat etilgan qizish harorati  $85\dots90^\circ S$  xisobida olinadi.

Elektromagnitli IM ning uzatish funksiyasi :

$$W(p) = \frac{U(r)}{U(p)} = \frac{K_m}{(T_c + 1)(T_1^2 + T_2 r + 1)}$$

bu erda  $U$  — yakorning siljishi;

$T_e = L / R_0 T_e$  — elektromagnitning vaqt doimiysi;

$L_0$  va  $R_0$  — induktivlik va elektromagnit galtagining aktiv qarshiligi;

$T_1 = \sqrt{m/c_n}$  ,  $m$  — qo'zg'aluvchan qismlarning massasi;

$S_n$  — prujina qattiqligi;  $T_2 = K_d / S_n$ ;


$K_d$  — koeffitsient (dempfirlash).

Agar boshqaruv obyektining vaqt doimiysi ( $T_c$ ,  $T_1$ ,  $T_2$ )dan katta bo'lsa, uzatish funktsiyasi inertsiyasiz zveno ko'rinishida berilishi mumkin.

## 6.2. Elektromagnitli muftalar.

Muftalar — uzatma va ishchi mexanizmlar orasidagi bog'lovchi zveno hisoblanadi. Ularning ish printsipi bog'lovchi elementlarning elektromagnit xususiyatlariga asoslangan.

Elementlarning bog'lanishi ko'rinishiga qarab muftalar funktsiyali quruq ishqalanuvchan, qovushoq ishqalanuvchan va siljish muftalarga ajratiladi. Quruq ishqalanish muftasi (6.3, a-rasm) 3 va 9 vallarga bog'langan 5, 6 - ikkita yarim mufta holda 2 xalqa va 4 shetkalardan kuchlanish qabul qiluvchi 1 cho'lg'amdan tashkil topgan. 6- yarim muftaning boshqariluvchi qismi 8- shponkaning o'qi bo'yicha harakatlanadi, u ishchi mexanizmning 9-vali bilan bog'langan. Boshqariluvchi 6 mufta 7 prujina yordamida 5 boshqaruvchi muftaga nisbatan siqiladi. Cho'lg'amlarga elektr toki berilishi bilan hosil bo'lган elektromagnit maydon 7 prujina kuchini engib, boshqariluvchi 6 muftani tortadi. Ishqalanish kuchlari hisobiga 5 va 6 yarim muftalarda hosil bo'ladigan aylantiruvchi moment boshqaruvchi valdag'i boshqariluvchi valiga o'tkaziladi. Uzatilayotgan aylantiruvchi momentni kattalashtirish uchun muftalarni ko'p diskli ko'rinishda tayyorlanadi.




6.3-rasm. Quruq ishqalanish va qovushoq ishqalanish muftasining konstruktiv va elektr sxemalari.

Qovushoq ishqalanuvchi muftalar ferroparo-shakli yoki magnitli emulsiyali tarkibiga ega bo'lib, boshqariluvchi va boshqaruvchi elementlarda bog'lovchi qatlam hosil bo'ladi. Bunday muftalarning xarakterli tomoni shundaki, magnit oqimi ortib borishi bilan uzatiluvchi aylantiriluvchi moment ortib boradi. Bunday muftalar yuklamalarga nisbatan chidamli bo'lib, tez harakatlanuvchan IM lardan hisoblanadi (vaqt doimiysi  $T=0,005\dots 0,008$  s), ularning uzatish koeffitsienti  $K=3500$ . Bu muftalar konstruktiv tuzilmasiga ko'ra g'altaklarning joylashishi, soni, ishchi yuzasining shakliga, tok o'tkazgichlarining ko'rinishi va boshqa belgilariga ko'ra farqlanadi


**Ijro qiluvchi doimiy tok dvigatellarini ishlash printsipi,  
konstruktsiyalari, ishga tushirish va himoya qilish sxemalari.**

O'zgarmas tok mashinasi asosan, qo'zgalmas qism stanina, qo'zg'aluvchan qism yakordan iborat. Stanina yirik mashinalar uchun pulatdan, kichik mashinalar uchun chuyandan quyib yasaladi va unga qutblarning o'zaklari urnatiladi. Bosh qutblar staninaning ichki sirtiga o'rnatilgan bo'lib unga, qo'zgatish chulg'amlari uralgan. Bosh qutb mashinaning asosiy magnit maydonini xosil qilad.i.Yakor silindrsimon uzak bulib, o'zakka o'rnatiladi. Yakor qalinligi 0,35-0,5 mm li elektrotexnik pulat plastinalar tuplamidan tayerланади.

Yakor chulg'ami izolyatsiyalangan mis simdan iborat bo'lib, u aloxida-aloxida sektsiya qilib yasalgandan so'ng yakorning o'zagidagi pazlar orasiga joylashtiriladi. Chulg'amning uchlari kollektor plastinkalariga biriktiriladi. Kollektor silindr shaklida bulib, misdan yasalgan, aloxida-aloxida plastinkalardan iboratdir.



6.4-rasm. O'zgarmas tok generatori sxemasi




6.5-rasm. To'rt kollektor plastinali generatorning EYuK si.

Mashina yakori birlamchi dvigatel yordamida o'zgarmas tezlik bilan aylantirilganda (generator rejimi) uning chulg'am o'ramlarini bosh magnit kuch chiziklari kesib utishi natijasida, elektromagnit induktsiyasi konuniga binoan EYuK induktsiyalanadi, ya'ni  $E = \Phi n F$  bu erda  $\Phi$  - o'zgarmas koeffitsent,  $n$  - yakorning aylanish tezligi,  $F$  - bosh qutblarning magnit okimi  $V_b$ ,  $E$  ning ortishi va kamayishi yakorning ( $G^2$  burchakka burilish vakti bilan xosil bo'ladi). O'zgarmas tok mashinalari xam generator xam dvigatel bulib ishlatalishi mumkin. Xar kanday xolatda yakor o'ram simini maydon liniyasi kesib o'tishi mumkin va unda EYuK xosil qilad.i. Bir vaktda simda elektromagnit kuch xosil qilad.i. Generator energiyani elektr energiyasiga aylantiradi. Birlamchi dvigateli mexanik kuchaytirish yakor simida qandaydir tezlik  $V$  bilan xarakatlanishiga olib keladi. Hosil qilingan EYuK  $E$  usha yunalishida tok xosil qilad.i va yakor o'ramida kuchlanish pasayishini tashkil etadi, ya'ni

$$E = U + I \cdot r_s$$

Simda tok bilan birga elektromagnit kuch  $F_{em}$  ta'sir etadi. Vq conts paytida FEMvalni qarshiligin xosil qilish kerak. Dvigatel iste'mol qilad.igan elektr kuvvat REL ko'pincha yakor chulg'amini qizishiga ketadi. Qolgan qismi elektromagnit quvvat bo'lib, valning mexanik quvvatiga teng bo'ladi.

$$P_{\mathcal{D}M} = E \cdot I = (U + I \cdot r_s) \cdot I = P_{\mathcal{D}I} + I^2 \cdot r_s$$



6.6– rasm. O’zgarmas tok generatori va dvigatelining yakor o’rami o’tkazgichidagi EYuK, toklar va mexanik kuchlari.

O’zgarmas tok mashinalari uning o’ramlarida toklar bilan xosil qilingan MYuK ostida ishlash paytida magnit maydoni qutblari o’zaro ta’sirida bo’ladi. Bu yakor reaktsiyasi deb ataladi. Bu xosil bulish uzgarmas tok mashinasini konstruktsiya qilishda xisobga olinadi.


### **O’zgarmas tok generatori va uning usuliga ko’ra tasniflash.**

O’zgarmas tok generatorining xususiyatlari ularning qo’zgatish sxemasiga qarab, ya’ni tok bosh qutbining qo’zgatish chulg’amlariga qanday yuborilishiga qarab turlicha bo’ladi. O’zgarmas tok generatorlari magnit maydonini qo’zgatish usuliga qarab, mustaqil va uz-uzidan qo’zgatishli bo’ladi.

Mustaqil qo’zgatishli generatorning qo’zgatish chulg’amlariga yuboriladigan tok tashqi manbadan olinadi. O’z-o’zidan qo’zgatish li generatorning qo’zgatish chulg’amlariga yuboriladigan tok bevosita generatorning o’zidan (yakordan) olinadi.

Bu generatorlar uch xil bo’ladi.



- parallel qo’zgatishli yoki shunt generatorlar,
- ketma-ket qo’zgatishli yoki series generatorlar.
- aralash qo’zgatishli yoki kompaund generatorlar.



6.7-rasm. Generatorni qo'zgatish. a) mustaqil, b) parallel, v) ketma-ket, e) aralash.


### 6.3.Kontaktsiz dvigatellar. Umumiylumotlar.

Xamma elektr mashinalarida aylanuvchan magnit maydon xosil bo'lishi printsipi bir xilda kechadi va ideal benuqson umumlashtirilgan elektr mashina oddiy elektr mashina bo'lib hisoblanadi. Bunday mashina simmetrik, tuyintirilmagan, tekis va silliq havo tirkishiga (Stator va rotor oaligidagi tirkish) ega bo'lgan buladi. Uning stator va rotor qismlarida ikkitadan chulgam bo'lib :  $w_s\alpha$  va  $w_s\beta$  statordda,  $w_r\alpha$  va  $w_r\beta$  rotorda ular bo'shliqda bir-biriga nisbatan elektr burchak uchi  $90^\circ$  teng. Agar shunaqa mashinalarni stator chulgami yoki rotoni chulgamiga vaqtি birligida  $90^\circ$  buriluvchan elektr toki berilsa, undagi havo tirkishida aylanuvchi magnit maydoni xosil bo'ladi ya'ni aylanuvchan aylanma maydon yonida simmetrik sinusoidal kuchlanishli maydon bo'ladi, chunki bunday mashina fazoviy tor tirkishida garmonika bulmaydi u benuqson ideal elektrik mashinalardan u yoki o'zga darajada bir biridan farqlanadilar, chunki real mashina fazoviy tor tirkishida mavjud mashinalarda ideal sinusoidal maydon olmoq mumkin emas.



6.8-rasm. Kontaktsiz dvigatellar

To'rt qutbliliklarni doimiyalarini aniqlash uchun salt yurish hamda qisqa tutashuv tajribalaridan foydalaniladi. Salt yurish tajribasini o'tkazish uchun to'rt qutblilikni tashqi zanjiri uzub quyiladi ( $J_2 = 0$ ) va uni kirish qismlariga rostlovchi kuchlanish  $U_2$  beriladi. So'ngra chiqish kuchlanish berilgan qiymatga ega bo'lguna qadar ko'tariladi. O'lchov asboblari orqali  $U_2, U_{1x}$  va  $I_{1x}$  yozib olinadi.




6.7-rasm. Salt yurish tajribasini o'tkazish uchun sxema.

Salt yurish tajribasi uchun ( $I_2 = 0$ ) avvalgi formulalar asosida quyidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$U_{1x} = AU_2 + BI_2 = AU_2,$$

$$I_{1x} = CU_2 + DI_2 = CU_2$$

Salt yurish tajribasida chiqish qismlari 2"-2" qisqa tutashtirilib birlamchi kuchlanish  $I_1$  tok  $J_2$  nominal qiymatga ega bo'lgunga qadar ko'tariladi. Asbob ko'rsatishlar yozib olinadi.



6.8-rasm. Qisqa tajribasini o'tkazish uchun sxema.


Qisqa tutashuv tajribasi uchun ( $U_2 = 0$ )

$$U_{1x} = AU_2 + BI_2 = AU_2,$$

$$I_{1x} = CU_2 + DI_2 = CU_2$$

Bu ikki tajribadan kelib chiqib.

$$A = \frac{U_1}{U_2}; \quad B = \frac{U_{1k}}{J_2}; \quad C = \frac{U_{1x}}{U_2}; \quad D = \frac{J_{1k}}{J_2}$$



A, B, C, D qiymatlari orqali T va P sxemali uchun qarshiliklarni topib olish mumkin. Salt yurish hamda qisqa tutashuv tajribalaridan:

$$U_1 = AU_2 + BJ_2 - U_{1x} + U_{1k}$$



$$J_1 = CU_2 + DJ_2 = J_{1x} + J_{1k}$$

Yani ist`emolchilarni berilgan ish rejimi uchun  $U_1$  va  $J_1$  salt yurish va qisqa tutashuv rejimlarini rostlash orqali topiladi. To`rtqutblik usuli tarmoqlarni, transformatorlarni, dvigatellarni, kuchaytirgich kabi qurilmalarni tekshirishda qullaniladi

### **O`zgaruvchan tokli ijro qiluvchi dvigatellar.**

Sinusoidal o`zgaruvchan tok asosan elektrostantsiyalarda bug' va gidravlik turbinali generatorlar yordamida hosil qilinadi. Mazkur generatorlarning ishlash prinsipi elektromagnit induktsiyasi qoidasiga, elektromagnit kuch qonunlariga asoslangan: Stator chulg'amiga mahsus pazlar o'yilgan bo'lib bu pazlarga mis chulg'amlar joylashtiriladi: Rotor o'zgarmas magnit yoki elektromagnitning bir turi bo'lib, generatorning asosiy magnit maydonini hosil qilish uchun hizmat qiladi. Kuchli generatorlarning rotori, elektromagnit rejimida ishlaydigan qilib tayyorlanadi, bunda u hosil qilgan magnit maydonini oqimini boshqarish mumkin bo'ladi. Sinusoidal o`zgaruvchan kattaliklarni harakterlovchi quyidagicha parametrlari mavjud. **Davri, chastotasi, ampletudasi** va **faza**

*siljishi.* **Davr** deb yo'nalishi va kattaligi jihatidan bir marta to'la o'zgarishiga aytildi..




6.9-rasm.Sinusoudal o'zgaruchan tokni vaqtida bog'liqlik grafigi.


6.10-rasm. O'zgaruvchan tok generatori qiqimini ko'rinishi.

**Chastota** deb bir sekund ichida to'la o'zgarishlar soniga aytildi.

**Amplituda** deb musbat va manfiy yarim sharlarda parametrning erishgan eng katta qiymatlariga aytildi.



6.11-rasm.



6.12-rasm. Sinusoidal kattaliklarni o'zgarishi.


*Faza siljishi* deb chastotasi bir hil bo'lgan ikkita o'zgaruvchan tok orasidagi davrlarining boshlanish momentlarini bir-biriga to'g'ri kelmasligiga aytiladi.  $I = I_m \sin \omega t$   $U = U_m \sin \omega t$  bu yerda:  $I_m$  – sinusoidal tokni maksimal qiymati.  $U_m$  – sinusoidal kuchlanishni

maksimal qiymati.  $\omega = \frac{2\pi}{T}$  - burchak chastotasi.

## **Boshqarish sxemalarining tuzilishi**

Texnologik protsess davomida mehnat predmetiga ishlov berish operatsiyalarini bajarish uchun energiya va harakat manbai sifatida elektr, pnevmatik va gidravlik yuritmalardan foydalaniladi. To'qimachilik sanoatida elektr yuritmalar va, ayniksa, asinxron elektr yuritmalar keng qo'llanadi. Bunday yuritma — elektr dvigateli texnologii mashina, xarakat uzatuvchi mexanizm (turli xil mufta va reduktorlar) va boshqarish sistemasidan iborat bo'ladi.

Texnologik mashinalar yuritmasini boshqarish sxemasini tuzishda texnologik mashina va unga xarakat uzatuvchi muftalar ko'rsatilmaydi. Boshqarish sistemalarini loyihalash va qurish uchun asosan boshqarish sistemasining prinsipial sxemasidan foydalaniladi. CHunki bu sxema elektr energiyasini qabul qiluvchi elektr dvigateli elektr o'tkazuvchi simlar va turli xil kommutatsiya va ximoya apparatlari orqali energiya manbai bilan bog'lash yo'llarini va boshqarish sistemasining ishlash prinsipini ko'rsatib turadigan sxemadir. Prinsipial sxema ikki xil —yig'iq va yoyiq xolda tasvirlanadi. Yig'iq ko'rinishda tuzilgan sxemalarda xar bir element kontaktor, magnitli ishga tushirgich, boshqarish knopkalari, rele va boshka boshqaruv apparatlari funksional element sifatida o'z tuzilishiga muvofiq, yig'ilgan holda alohida-alohida ko'rsatiladi. Bunda xar bir funksional elementning tuzilishi va ishlash prinsipi sxemada alovida ko'rinish turadi. Yig'iq ko'rinishdagi prinsipial sxemaning kamchiligi shundaki, u orkali murakkab sistemalarni tasvirlash mumkin bo'lmay qoladi. CHiziqlarning kesishuvi ko'payib ketishi sababli sxemani o'qish kiyinlashadi. Asinxron dvigateli boshqarishning yig'iq sxemasi 6.13- rasmida ko'rsatilgan. Sxema bo'yicha elektr dvigatel (ob'ekt) ijrochi element IE (kontaktor) kontaktlari K1, K2, KZ orqali elektr energiya manbai M ga ulanadi. SHunda ob'ekt ishga tushadi.



6.13- rasm. Asinxron yuritmani boshqarish sxemalari:


a — prinsipial yig’iq sxemasi; b — funksional sxemasi; m ~ energiya manbai, IE — ijrochi element (kontaktor); BE — boshqaruvchi element, O — ob’ekt (yuritma); Rb — boshqaruvchi rele kontakti, UU — universal uzib- ulagich.

YUritmani ishdan to’xtatish uchun kontaktor kontaktlari uzilishi kerak. YUritmani bu tarzda boshqarish funksiyasini boshqaruvchi element BE bajaradi. Boshqarish sistemasidagi alohida funksional elementlarning bunday o’zaro borg’lanishi (bir-biriga ta’siri)ni ko’rsatuvchi funksional sxema 1-rasm, b da ko’rsatilgan. Bunda asinxron dvigatel zanjiri energiya manbai M ga ulanadi. Bu zanjirning quvvati dvigatel quvvatiga muvofiq bo’ladi va kuchli elektr zanjiri deb ataladi. Boshqarish zanjirining quvvati esa juda kichik miqdor 50 vattgacha bo’lishi mumkin. Sxemada ijrochi element IE (kontaktor), boshqaruvchi element BE va universal uzib-ulagich UU alohida yig’ilgan ko’rinishda tasvirlangan. Ularning ishlash prinsiplarini sxema orqali to’la o’qish mumkin. Masalan, kontaktor elektromagnit cho’lg’amidan tok o’tganda po’lat o’zaklarda xosil bo’lgan elektromagnit kuchi prujina 2 kuchini engib, qo’zg’aluvchi po’lat o’zakni qo’zg’almas po’lat o’zakka tortadi. SHunda po’lat o’zak 1 bilan mexanik bog’langan kontaktlar ulanib dvigatel ishga tushadi. Uning ishdan to’xtashi uchun kontaktor elektromagnit cho’lg’ami zanjiri uzilib undan tok o’tmasligi, prujina 2 po’lat o’zakni tortib, kontaktlar K1, K2 va KZ ni uzishi


lozim. Kontaktor elektromagnit cho'lg'amidan o'tadigan tokni boshqaruvchi element BE boshqaradi. Boshqaruvchi element dvigatelning ikki rejimda:

1) odam ishtiroki bilan, 2) odam ishtirokisiz avtomatik rejimlarda ishlashini ko'zda tutadi. Dvigatelni odam ishtirokida boshqarish uchun boshqarish knopkalari: yurgizish — S1, to'xtatish — S2 dan foydalilanadi. Dvigatelning avtomatik rejimda (odam ishtirokisiz) ishlashini boshqaruvchi rele RB, komanda apparatlari va boshqalar ta'minlaydi. Bu ikki rejimda ishlashni amalga oshirish uchun alohida universal uzib-ulagich ‘UU’ kommutatsiya apparatidan foydalilanadi.

Kuchli tok zanjiri



Boshqarish zanjir



6.14- rasm. Asinxron dvigatelni boshqarishning prinsipial sxemasi,

Elektr yuritmani remont qilish va sozlash rejimida ishlashini ta'minlash uchun uzib-ulagichni sozlash — S kontaktlari 1, 2 ulab qo'yiladi, shunda kontakt 3, 4 uzelgan bo'ladi. Avtomatik rejimda ishlashini ta'minlash uchun esa uzib-ulagichni avtomatik (A) kontaktlari 3, 4 ulab qo'yiladi. Kontaktlar 1, 2 uzelgan bo'ladi.

YOyiq prinsipial sxemalarda boshqarish sistemasining funksional elementlari o'zaro bog'lanmagan va sxemaning eng qulay joylarida ko'rsatilishi mumkin. SHunda sxema ancha soddalashadi (6.14-rasm), kontaktor elektromagnit cho'lg'ami sxemani boshqarish zanjirida, uning kontaktlari K1,

K2, KZ esa kuchli nagruzka zanjirida joylashgan bo'lib, ular orasidagi mexanik bog'lanishlar ko'rsatilmaydi. YOyiq prinsipial sxemalarda releli boshqarish apparatlarining elektromagnit cho'lg'ami o'zgarmas tok zanjiriga ulangan, kontaktlari esa o'zgaruvchan tok zanjirida bo'lishi xam mumkin.

Prinsipial sxemalar GOST 2.702—75 xamda GOST 2.710—75 talablariga muvofiq tuziladi. Sxema tuzishda masshtabga amal qilinmaydi, lekin sxema elementlari shartli belgilarining ESKD (edinaya sistema konstruktorskoy dokumentatsii) da ko'rsatilgan o'lchamlari hisobga olinadi. Bu o'lchamlar sxemada p marta katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Amalda ko'pincha  $2 > p > 0,5$  bo'ladi; shartli belgilar o'sha apparatdan tok o'tmagan yoki unga xech qanday tashqi ta'sir bo'lmasan holatni tasvirlaydi va bu holatni shartli ravishda 'normal' holat deyiladi. Sxemada chiziklarning kesishishi va sinishi eng kam bo'lishi talab kilinadi. Sxema elementining xarfiy belgisi uning shartli belgisi ustiga yoki undan o'ngroq tomonga yoziladi. Agar xarf sonli indeks bilan yoziladigan bo'lsa, u son xarfning o'ng tomoniga yoziladi va xokazo.

### **Boshqarish sistemalarining ish rejimlari**

Hozirgi zamon ishlab chiqarish protsesslarida texnologik mashina va mexanizmlar, agregatlar va potok liniyalarining ikki xil rejimda ishlashi va boshqarilishi ko'zda tutiladi; avtomatik boshqariladigan rejimda boshqarish funksiyasini texnik vositalar — rele, komanda apparatlari; operator tomonidan boshqariladigan rejimda esa texnologik mashinalarni boshqarishni odam operator bajaradi.

Ishlab chiqarish protsesslarini avtomatik boshqarish xozirgi zamon ishlab chiqarishidagi asosiy ish rejimi hisoblanadi. Texnologik mashinalarning optimal rejimda ishlashini ta'minlash, sozlash va remont qilish operator tomonidan bajariladi. Bu rejim 'sozlash rejimi' deb ataladi.


Bunday ikki xil rejimda boshqariladigan elektr yuritmalarining prinsipial sxemasi 6.13—6.14 rasmlarda ko'rsatilgan.

Agar asinxron yuritma avtomatik rejimda ishlashi kerak bo'lsa, boshqarish sxemasidagi universal uzib-ulagich UU ning kontaktlari 3, 4

ulangan, kontaktlar 1—2 uzilgan bo'ladi. SHunda boshqaruvchi rele o'zining kontakti RB ni ulasa, kontaktoring elektromagnit cho'lg'amidan tok o'tadi, unda xosil bo'lgan elektromagnit kuchi prujina PR kuchini engib, qo'zraluvchi po'lat o'zakni qo'zg'almas po'lat o'zakka tortadi va kontaktor kontaktlari K1, K2, KZ va K4 ni ulaydi. Elektr yuritma elektr tarmog'iga ulanadi va ishga tushadi. Boshqaruvchi relening kontakti RB uzilganda esa kontaktoring elektromagnit cho'lg'ami K da tok bo'lmaydi. Prujina kuchi qo'zg'aluvchi po'lat o'zak 1 ni-tortib, kontaktlar K1, K2, KZ va K4 ni uzadi, yuritma ishdan to'xtaydi. Bu erda boshqaruvchi rele RB kontakti deganda texnologik mashina va mexanizmlarni berilgan programmaga muvofiq boshqarish uchun xizmat qiladigan komanda apparat yoki releli signal tarqatkichlar kontaktlari ko'zda tutiladi. Elektr yuritma operator tomonidan boshqarilsa, universal uzib-ulagich UU ning kontaktlari 1, 2 ulanib, kontaktlar 3—4 uzilgan bo'ladi. YUritmani ishga tushirish uchun boshqarish postidagi yuritish knopkasi 'S1' qo'll bilan bosiladi. SHunda kontaktoring elektromagnit cho'lg'ami K dan tok o'tadi. Elektromagnit kuchi prujina PR kuchini engib ko'zgaluvchi po'lat o'zak va u bilan mexanik bog'langan kontaktlar K1, K2, KZ va K4 ni ulab yuritmani ishga tushiradi. YUritmani to'xtatish uchun operator endi to'xtatish knopkasi 'S2' ni bosadi. SHunda elektromagnit cho'lg'amidan tok o'tmaydi. Prujina PR kuchi ta'sirida kontaktlar K1, K2, KZ va K4 uzilib, yuritma ishdan to'xtaydi.

#### **6.4. Asinxron elektr dvigatelni ishga tushirish.**

O'zgaruvchan tokning kuch zanjirlari fazalarni belgilovchi harflar bilan va ketma – ket raqamlar bilan markalanadi (A, V, S,N,A1 va hokazolar); boshqarish, signalizatsiya, himoya, blokirovka va o'lchash zanjirlari ketma – ket sonlar bilan markalanadi. Apparatlar kontaktlari, rele g'altaklari, turli kommutatsiyalovchi qurilmalar, signalizatsiya apparaturasi va hokazolar bilan ajratilgan zanjir qismlari har xil markalanadi. Bitta prinsipial elektr sxemasi bo'g'inida birlashuvchi, shuningdek, ajraluvchi kontakt birikmalar orqali o'tuvchi qismlar bir xil markalanadi.




6.15- rasm. Asinxron elektr dvigatejni boshqarishning prinsipial elektr sxemasi.

Prinsipial elektr sxemasining mazmuni ishlab chiqarish jarayonining o’ziga xos xususiyati bilan belgilanadi, bu jarayon uchun avtomatlashtirish tizimi ishlab chiqariladi. Prinsipial elektr sxema ga quyidagilar albatta kirishi kerak: bosh (kuch) zanjirlari sxemasi, boshqarishning, signallashning, elektr ta’minotning tegishli izohlovchi yozuvlari bilan birga element sxemalari, kontakt kalitlari va programma qurilmalarining ishlash (ulanish) diagrammalarli, prinsipial elektr sxemaga kiruvchi elementlar ro’yhati.

Prinsipial elektr sxemaning tuzilishini aniq misollar asosida mufassalroq qarab chiqamiz (6.15-rasm). Asinxron elektr dvigatel SV2 tugmachani bosib ishga tushiriladi. Bunda magnit yuritkich KM chulg’amining ta’minot (manba) zanjiri ulanadi. YUrgizib yuborgich ishlaganda uning kuch


zanjiridagi kontaktlari elektr dvigatelni ulaydi, boshqarish zanjirida esa SV2 tugmachani blokirovkalaydi (to'sadi). SV1 tugmacha bosilib elektr dvigatel uziladi, bu tugmacha yurgizib yuborgich chulg'ami manba zanjirini uzadi. Elektr dvigatelni ortiqcha yuklanishlardan himoya qilish uchun KK1 va KK2 issiqlik relelaridan foydalaniladi, ularning isitish elementlari kuch zanjirining ikkita fazasiga ulangan, kontaktlar esa yurgizib yuborgich chulg'ami manba zanjiriga ulangan. Elektr dvigatel va boshqarish zanjirlari qisqa tutashuvdan FU saqlagichlar yordamida himoya qilinadi. SA rubilnik manba (va boshqarish zanjirlari)ni kuzatish hamda ta'minlash vaqtida uzib quyish uchun mo'ljallangan. Neytrali erga ulangan uch fazali zanjirlarda boshqarish zanjirlari 220V li faza kuchlari bilan ta'minlanadi.



6.16-rasm. Reversiv asinxron elektr dvigatelni boshqarishning prinsipial elektr sxemasi.

Reversiv asinxron elektr dvigatel (6.16-rasm) uchta tugmacha orqali boshqariladi: SV1 ('To'xta'), SV2 ('Olg'a'), SVZ ('Orqaga'). SV2 tugmacha bosilganda KM magnitli yurgizib yuborgich ulanib, u elektr dvigatelga kuchlanish uzatadi. Elektr dvigatelning aylanish yo'nalishni o'zgartirish uchun SV1 tugmachani bosish, keyin esa KM2 magnitli yurgizib yuborgichni ulovchi SVZ tugmachani bosish lozim. Natijada kuch zanjiri fazalari ulanadi

va elektr dvigatel teskari yo'nalishda aylana boshlaydi. Uzuvchi KM1 va KM2 blok – kontaktlarning foydalanishi reversiv magnitli yurgizib yuborgichning ikkala chulg'amini bir vaqtida ulanish imkoniyatini yo'qotadi. Elektr dvigateli tarmoq manbaidan uzish uchun avtomatik QG' uzgich qurilmasi ko'zda tutilgan bo'lib, u elektr dvigateli ortiqcha yuklanishlardan va qisqa tutashuvdan himoya qiladi. Boshqarish zanjirida fazalararo kuchlanish foydalanilgan.




6.17- rasm. Rostlovchi organning elektr yuritmasini boshqarish prinsipial elektr sxemasi.

TJ avtomatlashtirishda elektr yuritkichli to'sqich va rostlovchi qurilmalar (shiberlar, klapanlar, ventillar va boshqalar) dan foydalaniladi, ular uchun Prinsipial elektr sxemalar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish sharoitlarida qo'lida boshqarish ishlab chiqarish xonasidan ham (mahalliy), dispatcher punktidan ham (masofadan turib boshqarish) nazarda tutilishi kerak. 6.17-rasmda rostlovchi organning elektr yuritmasini ikki joydan boshqarish sxemasi tasvirlangan. Boshqarish rejimi SA ni tanlash kalitining vaziyatini mahalliy (M) va masofadan turib (D) boshqarish variantlari belgilaydi. Kalitning neytral holati

N harfi bilan belgilangan. Boshqarish rejimini tanlash boshqarish punktidan amalga oshiriladi.

Elektr yuritkichni ishga tushirishda ulash mahalliy rejimda SVZ tugmacha bilan, masofadan turib boshqarish rejimida SV4 tugmacha bilan amalga oshiriladi. KMT magnitli yurgizib yuborgich ulovchi kontaktlari bilan ishga tushirish tugmachalarini to'sadi va elektr dvigatelni ulaydi, uzuvchi kontakt bilan esa KM2 yurgizib yuborgich zanjirini uzadi. To'sqich 'ochiq' holatiga etganda KM1 yurgizib yuborgich SQ1 chetki viklyuchatelning uzib – ulovchi kontakti bilan uzilib, shu bilan bir vaqtida u NL1 signal lampasiga kuchlanish beradi – 'ochiq'. Xato buyruqni o'zgartirish yoki to'sqichni oraliq holatda to'xtatish uchun SV1 va SV2 tugmachalar ko'zda tutilgan, ulardan biri ishlab chiqarish xonasida, ikkinchisi boshqarish punktida o'rnatilgan. Rostlovchi organni yopish uchun SV5 yoki SV6 tugmachalar bosiladi, ular KM2 yurgizib yuborgichni ishga tushiradi. Rostlovchi organ yopilayotganda sxema tavsiflangandek ishlaydi.

Texnologik jarayonlarning avtomatlashirish tizimlarini yaratishda bir – biridan tarkibi va ularning ayrim qismlarini tuzish usullari bo'yicha farq qiluvchi turli signalizatsiya chizmalari o'rinni olmoqda. Signalizatsiya chizmasining eng ratsional tuzilgan variantini tanlashda uning konkret sharoitda ishlashi, shuningdek, yorug'lik – signal apparaturasi va signalizatsiya datchiklariga qo'yilgan texnikaviy talablarni e'tiborga olish kerak.



6.18-rasm Elektr dvigatel holatini signalizatsiyalash sxemasi:

- a) – bitta signal lampasi bilan; b) – kontaktorning bitta bilok – kontaktidan foydalaniilgan ikkita signal lampasi bilan; v) – kontaktorning ikkita blok – kontaktidan foydalaniilgan ikkita signal lampasi bilan

Ba'zi signalizatsiya chizmalarini ko'rib chiqaylik. 6.18-rasmda elektr dvigatel holatining signalizatsiya chizmasi berilgan. Birinchi holda (6.18-rasm, a) elektr dvigatelning ishga tushish signalizatsiyasi kontaktor (magnitli yuritgich) K chulg'amiga parallel ulangan bitta chiroq HL1 orqali amalga oshiriladi ayrim hollarda chiroq HL1 qo'shimcha qarshilik bilan ketma – ket ulanadi. Bunday chizmada qo'shimcha blok – kontaktlar talab qilinmaydi, biroq chiroqning kuyish ehtimoli ko'p bo'ladi.

Ikkinci holda (6.18- rasm, b kontaktor K chulg'amiga parallel ulangan NL1 lampadan tashqari kontaktorning uzuvchi blok – kontakti bilan ulangan va elektr dvigatelning uzilganini signalizatsiyalovchi NL2 lampa bor. Bunda istalgan lampaning kuyishi noto'g'ri signal berishga olib kelmaydi.

6.18-rasm, v da keltirilgan NL1 va NL2 signalizatsiya lampalarining ulash chizmasi kontaktor K bitta ulanuvchi va bitta uzuvchi blok kontaktlaridan iborat. Agar blok – kontaktlar etmasa, u holda signalizatsiya lampalarini ulash uchun kontaktorning blok – kontaktlarini ko'paytiruvchi oraliq relening kontaktlaridan foydalanish mumkin.


### **Asinxron yuritmalarini tormozlab to'xtatish**

Elektr dvigatellar elektr tarmog'idan uzilganda darrov to'xtamaydi, agregat inersiyasi tufayli birmuncha vaqt aylanib turadi. Natijada agregatlarning ishlayotganda vaqt ko'payib, agregat samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, bir qator texnologik mashinalar (masalan, tanda mashinasi, quritish mashinalari va boshqalar) borki, ularning uz inersiyasi bilan to'xtashiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bu materialning sifatiga ta'sir qiladi, brak material miqdorini ko'paytirib yuboradi. SHu sababli hozirgi vaqtida texnologik mashinalarni tez to'xtatish uchun mexanik usullar — friksion tormoz, tormozlovchi elektromagnit, tormozlovchi muftalar bilan birga elektr usullar — elektr yuritmalarini dinamik tormozlash va teskari ulash bilan tormozlashdan keng foydalaniladi.

Asinxron dvigateli dinamik tormozlash (6.19-rasm). Elektr yuritma normal ishlayotganda vaqt relesi (RV) cho'lg'amidan tok o'tib turadi. Kontaktor

kontakti K5 uzilganda rele R cho'lg'amidan tok o'tmaydi, uning R1 va R2 kontaktlari ochiq bo'ladi.

Biror texnologik nosozlik tufayli yuritma yoki dvigatelning to'xtatish knopkasi S2 bosilganda kontaktoring elektromagnit cho'lg'ami K dan tok o'tmaydi, kontaktor kontaktlari K1, K2, KZ, K4 va K6 uziladi, kontakt K5 esa ulanadi, natijada rele R ning, elektromagnit cho'lg'amidan tok o'tib, uning R1 va R2 kontaktlari ulanadi.



6.19- rasm. Asinxron dvigateli tormozlab to'xtatish sxemalari:  
 a — dinamik tormozlash sxemasi, b — teskari ulash yo'li bilan  
 to'xtatish sxemasi v — RKS tilidagi induktiv tezlik kontroli relesining  
 tuzilishi.

SHunda o'zgarmas tok manbaidan dvigatelning stator faza cho'lg'amlariga o'zgarmas tok o'tib, unda hosil bo'lgan magnit maydon rotor cho'lg'amida induksion tok va tormozlovchi moment hosil qiladi. Bu moment rotorni aylanishdan tezda to'xtatadi. Buning uchun vaqt relesining kechikish vaqtiga rotoring tormozlanish vaqtiga oldindan tenglashtirib qo'yiladi. Rotor aylanishdan to'xtashi bilan vaqt relesining kontakta RV uziladi. Vaqt relesi rotor aylanishdan to'xtashi bilan o'zgarmas tok zanjirini uzib qo'yish vazifasini bajaradi.

Asinxron dvigatelni teskari ulash bilan tormozlash. Asinxron dvigatel fazalarini qisqa muddatga teskari aylanish tomoniga ulash reversivlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning uchun reversiv — kontaktorlardan foydalaniladi (6.19-rasm, b). Kontaktor K1 dvigatelning normal ish rejimini boshqarish uchun xizmat qilsa, kontaktor K2 uni tezda tormozlab to'xtatish uchun xizmat qiladi.

